

ABDULLA RASULOV
ALISHER ISOQBOYEV

**TURKİSTON VA ROSSIYA
MUNOSABATLARI TARIXI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

**ABDULLA RASULOV
ALISHER ISOQBOYEV**

**TURKISTON VA ROSSIYA
MUNOSABATLARI TARIXI**

(o'quv qo'llanma)

I QISM

Namangan -- 2012

Mazkur o`quv qo'llanma 5120300-tarix va 5220200-tarix ta'lim yo'naliشining bakalavriat bosqichi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda Turkiston va Rossiya o'rтasidagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy munosabatlар tarixi o'z aksini topgan. O`quv qo'llanmani yozishda mualliflar asosan XVI asr boshlaridan XX asr boshlariga qadar Turkiston va Rossiya o'rтasidagi munosabatlarni tarixiy manbalar, arxiv, vaqtli matbuot materiallari, adabiyotlardan to'plangan ma'lumotlarning umumiyligi xulosalariga asoslanganlar.

Mas'ul muharrir: tarix fanlari nomzodi B. A. Talapov

**Taqrizchilar: tarix fanlari nomzodi M. A. Alixonov,
tarix fanlari nomzodi A. A. Erqo'ziyev**

Ushbu o`quv qo'llanma Namangan davlat universiteti O`quv-uslubiy kengashining 2012- yil 30- yanvardagi 5- sonli yig'ilishida muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan.

A. Rasulov, A. Isoqboyev.

**Turkiston va Rossiya munosabatlari tarixi
(o`quv qo'llanma)**

© Namangan davlat universiteti



SO`Z BOSHI

Turkiston va Rossiya xalqlari o`rtasidagi munosabatlar tarixi uzoq o`tmishga borib taqaladi. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, turkiy qabilalarning slavyanlar bilan birinchi to`qnashushi 375-yilda sodir bo`lgan ekan. Bundan keyingi jarayonda Osiyorning keng dashtlarida yashagan avarlar, qipchoqlar, hazarlar va boshqa turkiy qabilalar sharqiylar bilan ruslarga yaqin qo`shni bo`lib, ular bilan doimiy ravishda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jihatdan aloqada bo`lganlar.

Mazkur o`quv qo`llanmada Turkiston va Rossiya o`rtasidagi aloqalarning asosan XVI-XX asr boshlaridagi jarayonlariga alohida o`rin ajratilgan. Bu bejiz emas, albatta. Chunki XVI asr o`rtalariga kelib Rus yerlarining Moskva atrofida birlashushi, markazlashushi o`z nihoyasiga yetdi va u Yevropadagi yetakchi davlatlardan biriga aylandi. Ushbu jarayon bu ikki hudud hukmon doiralarining siyosiy va iqtisodiy manfaatlari nuqtai nazaridan bir-biriga qiziqishlarini kuchayishiga olib keldi. Ayni paytda XVI asrda Buyuk ipak yo`lining inqirozga yuz tutishi O`rta Osiyo xonliklarini jahon savdosi va aloqalaridan butunlay uzilib qolishiga olib keldi. Qo`shni davlatlar bilan doimiy urush holatida bo`lgan O`rta Osiyo xonliklarida Rossiya davlatiga nisbatan iqtisodiy va siyosiy munosabatlarda strategik hamkor sifatida qaraldi. Shu bilan bir qatorda yildan-yilga o`z ta`sir doirasini Sharqqa tomon yoyib borayotgan Rossiya imperiyasi uchun ham O`rta Osiyo xonliklari bilan yaqinlashish manfaatli edi.

O`quv qo`llanmada Turkiston va Rossiya o`rtasida o`zaro munosabatlar shakllanishi uchun yuzaga kelgan umumsiyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar, asoslar, elchilik aloqalari, harbiy ekspeditsiyalar, qullar masalasi, savdo-iqtisodiy aloqalarga alohida e`tibor qaratilgan. XIX asrning ikkinchi yarmi davomida (1852-1885) O`rta Osiyo xonliklari Rossiya imperiyasi tomonidan istilo etilgach, mustamlaka sharoitida harbiy-ma`muriy boshqaruv tizimining joriy qilinishi, sudlov, savdosoti, boj tizimi, metropoliyadan o`lkaga aholini ko`chirish siyosati mazmun-mohiyati, maqsadlari tahlil qilinib, tegishli xulosalar chiqarilgan. Mustamlaka sharoitida Turkiston xalqlari madaniy hayotida chuqur iz qoldirgan ilk matbuot va teatrning kirib kelishi, taraqqiy etishida rossiyalik matbuctchilar, matbaachilar, aktyorlarning mazkur soha rivojidagi xissalari juda katta bo`lib, mazkur masala o`quv qo`llanmada tarixiy manbalar asosida ochib berilgan.

“Turkiston va Rossiya munosabatlari tarixi” nomli o`quv-qo`llanmaning I qisini XVI asrdan 1917- yilga qadar bo`lgan jarayonlarni o`z ichiga qamrab olgan bo`lib, u 5220200-tarix bakalavriat yo`nalishi talabalari uchun mo`ljallangan. O`quv qo`llanmaning II qismi Turkiston va Rossiya o`rtasidagi munosabatlarning o`ta murakkab, ziddiyatli va shiddatli o`zgarishlarga boy bo`lgan 1917-1924- yillarini o`z ichiga olgan bo`lib, u 5A220201 - Vatan tarixi magistratura bosqichi uchun rejalshtirilgan. Ayni paytda o`quv qo`llanmani mualliflar tomonidan yangi ma`lumotlar bilan boyitib, to`ldirib borish ham ko`zda tutilgan.

O`quv qo`llanma ayrim kamchilik va xatolardan xoli bo`lmasligi tabiiy. Shu boisdan ham mualliflar o`quv qo`llanma bilan tanishib, u yuzasidan bildiriladigan fikr-mulohaza va tanqidlarni samimiyat bilan qabul qiladilar.

Mualliflar

1-MAVZU: O'RTA OSIYO VA ROSSIYA O'RTASIDAGI O'ZARO MUNOSABATLAR ASOSLARI

Reja

- 1. O'zaro munosabatlar shakllanishining asoslari.**
- 2. O'rta Osiyo xonliklari va Rossiyadagi umumsiyosiy, ijtimoiy-siyosiy shart-sharoitlar.**
- 3. O'zaro munosabatlarda harbiy ekspeditsiya: maqsad va oqibat.**
- 4. Turkiston xonliklaridagi rus harbiy asir-qullari va ularni ozod qilish yo'lidagi sa'y-harakatlar.**

1. O'zaro munosabatlar shakllanishining asoslari. Xalqaro munosabatlar shakllanishi asrlar davomida o'z sayqalini topib kelmoqda. Bu jarayonni tarixiy nuqtai nazardan o'rganish shuni ko'rsatadiki, o'zaro munosabatlar boshlanishi bilan shu kundagi ahvoli uzoq va murakkab davnri o'z boshidan kechirgan. Albatta, xalqaro munosabatlar turli xalqlar, mamlakatlar o'rtasida bir necha bosqichlarni bosib, rivojlanib borgan. Bunday tarixiy jarayonni O'rta Osiyo va Rossiya xalqlari o'rtasidagi munosabatlarda ham kuzatish mumkin.

Ma'lumki, O'rta Osiyo va Rossiya xalqlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tarixi, hujjalarga asoslanganda, IX asrga borib taqaladi. Ilk o'rta asrlar davomidagi o'zaro munosabatlar bevosita emas, balki bilvosita amalga oshirilgan. Bunday aloqalarni L.N.Gumilev ramziy tarzda "Buyuk cho'l" deb nomlangan sahroda istiqomat qiluvchi ko'chmanchi va sahroyilar o'rtasidagi vosita – deya ta'kidlagan. Albatta, o'rta asrlardagi o'zaro munosabatlar, o'z xususiyatiga ko'ra, xalqlar o'rtasida, xususan ko'chmanchilar va sahroyilar o'rtasidagi aloqalarni o'z ichiga olgan. Bu aloqalar mohiyatiga ko'ra, asosan savdo-sotiq munosabatlari, xususan, tovar almashtirishni o'z ichiga olganligini qayd etish mumkin. Agar tarixiy jarayonlarga nazar solinsa, Rossiya uchun Sharq bilan bo'lgan munosabatlar G'arb bilan bo'lgan aloqalarga nisbatan chuqurroq, kengroq va mazmun-mohiyatiga ko'ra ahamiyatliroq bo'lganligi ko'zga tashlanadi. Boshqacharoq ifodalaganda, Rossiya xalqlari hayotida Sharq davlatlari, xususan O'rta Osiyo xonliklari ham muhimroq ahamiyat kasb etgan. Oxir-oqibatda bu o'zaro savdo munosabatlari orqali va shuningdek, harbiy to'qnashuvlar tufayli ko'chmanchilar hayotini o'troq turmush tarzi bilan aralashib ketishiga olib kelgan. Natijada, ko'chmanchi aholining ma'lum bir qismi ruslarning yerlariga kelib o'troq hayot kechirishga o'tgan hollari

ham bo'lgan. O'zaro munosabatlardagi bunday holatlar ma'lum bir davrda savdo-sotiq va hattoki e'tiqod yo'lidagi o'zgarishlarga ham olib kelgan. Masalan, shunday hollar ham ko'zga tashlanadiki, qipchoqlarning ko'zga ko'ringan boyonlari xristianlikning provaslavie oqimiga kirib, ruslar bilan aloqalarini nikoh yo'li orqali mustahkamlashga uringanlar. Bu o'z navbatida munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qilgan. Ammo O'rta Osiyo va Rossiya o'rtasidagi oilaviy, sulo laviy, diplomatik aloqalarga XIII asrdagi mo'g'ullar bosqini ma'lum darajada xalaqit berdi. O'rta Osiyo va keyin Rus yerlarini mo'g'ullar tomonidan zabit etilishi o'zaro munosabatlarni amalda to'xtashiga yoki ma'lum bir tarqoqlik holatida davom etishiga olib keldi.

Mo'g'ullar bosqini natijasida yuzaga kelgan o'zaro urushlar, vayronagarchilik, parokandalik oxir-oqibatda Rus yerlarida ularga qarshi kurashni tezlashtirish zaruriyatini ko'rsatdi. Ammo mo'g'ullar zulmiga qarshi kurash davri ikki asrdan ortiq vaqt mobaynida rus knyazlarini Oltin O'rda bilan o'zaro munosabatlarini mustahkamlashga qaratilganini ham qayd etish lozim. Hattoki, Rusning Tver va Moskva knyazlik hokimiyatlari Oltin O'rda hukumati bilan o'zaro hamkorlikka mo'ljallangan shakl olganligi, hokimiyatni tashkil etish va hattoki ularga taqlid qilishda Oltin O'rda tamoyillariga zo'r berganligi hamda ulardan foydalanganligi qayd etilgan. Ayni paytda bunday holat bir taraflama bo'lmagan. Xususan, Rus knyazlari ham Oltin O'rda davlatining siyosiy hayotida faol ishtirok etganlar. Masalan, Oltin O'rda hukumati Rus ustidan nazorat qilishni knyazlarning o'zlariga ishonib topshira boshlaganlar. Bu yerda aslida "ishonch"dan ko'ra, Oltin O'rda ichki zaifligi ko'zga tashlanadi. Bunday holat XIV asrdan yanada yaqqol namoyon bo'la boshlagan.

XVI asr ikkinchi yarmida Moskva davlati tomonidan Qozon va Astraxan xonliklari va keyinchalik Sibir xonligi, Kabardin yerlarini bosib olingandan so'ng, Kaspiy dengizi va Kavkazortiga chiqadigan yo'llar ochildi. Natijada, O'rta Osiyo xonliklari va Eron bilan bevosita aloqa o'matishga sharoit yaratdi. Endilikda O'rta Osiyo xonliklari va Rossiya o'rtasida tovar ayriboshlash, savdo ishlarini yuritish imkoniyatlari kengaydi. O'mi kelganda ta'kidlash joizki, O'rta Osiyo bilan bo'ladigan savdo-sotiq aloqalari Astraxan, Qozon, Nijniy Novgorod, Saratov kabi shaharlar taraqqiyotiga ham yordam berdi. Umuman olganda, Rossiya o'z oldiga, kelajakda Yevropa davlatlarining Kaspiy atrofi, butun O'rta Osiyo, Eron, Hindiston va Xitoy savdosining

qadimgi yo`lidan o`tuvchi qismi bilan iqtisodiy aloqalarini o`z nazoratiga olishni maqsad qilib qo`ygandi.

Ta`kidlash joizki, XVII asrning oxirgi choragiga qadar O`rta Osiyodan kelgan savdogarlar Rossiya va Xitoy o`rtasidagi savdo-sotiq aloqalarida asosiy vositachi hisoblanganlar. O`rta Osiyo savdogarları Balx, Buxoro, Xiva orqali Rossiyaga hind mahsulotlarını, xususan choy, qimmatbaho toshlar, marvarid, shirinlik va boshqalarni yetkazib berardilar. Yana shunisi borki, o`zaro munosabatlari rivojida O`rta Osiyo savdogarları Rossiya shaharlarida yoki aksincha rus savdogarları O`rta Osiyoning turli shaharlarida savdo ishlari bilan yillar davomida bo`lishlari muhim ahamiyat kasb etgan.

Shunday qilib, XVI-XVII asrlarni Sharq va Rossiya o`rtasidagi munosabatlarda ma`lum bir burilish davri deyish mumkin. O`zaro munosabatlarning bu davrida tatarlarning u yoki bu darajada, xususan savdo-sotiq, til va din, ruhan o`rta osiyolik xalqlarga yaqinligi muhim ahamiyat kasb eta boshlagan. Bunday holat Rossiyaga sharqona munosabat hamda an`analarni asta-sekinlik bilan kirib borishiga zamin yaratgan. Boshqacharoq ifodalaganda, o`zaro munosabatlар vaqt o`tgan sari sharqona an`analar bilan boyib borgan. Yuqorida qayd etilgan omillar, ma`lum darajada O`rta Osiyo va Rossiya o`rtasidagi masofaviy uzoqlikni ma`lum darajada “yaqinlashtirdi”. Xususan, Ivan Grozniy tomonidan olib borilgan bosqinchilik urushi natijasida Rossiya to`la-to`kis Volga bo`ylab o`tadigan savdo oqimini, transportini o`z nazoratiga oldi. O`z navbatida bunday “shart-sharoit” Rossiyani O`rta Osiyo bilan savdo-sotiq munosabatlarini o`z nazorati ostida rivojlanishi va hatto siyosiy aloqalarni o`rnatishiga turtki berdi. Ta`kidlash joizki, o`zaro munosabatlari rivojidagi bu o`zgarishdan nafaqat Rossiya, balki O`rta Osiyo xonliklari ham manfaatdor edi.

Rossiya O`rta Osiyo xonliklari bilan munosabatlarni rivojlantirishdan qanday manfaatlarni ko`zda tutgan? **Birinchidan**, Rossiya uchun O`rta Osiyo (ayniqsa gilam va kamon) tovarlari muhim ahamiyat kasb etgan. **Ikkinchidan**, Rossiyani O`rta Osiyo xom-ashyolari qiziqtirgan. **Uchinchidan**, Rossiya Yevropa mamlakatlari – G`arbgan nisbatan xom-ashyo bazasi, oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib beruvchi qolq mamlakat hisoblangan holda, ayni paytda O`rta Osiyoga nisbatan teskarisi, ya`ni ancha ilg`or davlat sanalardi. **To`rtinchidan**, Rossiya uchun O`rta Osiyo harbiy strategik, iqtisodiy jihatdan ham qiziqish uyg`otardi.

O'z navbatida O'rta Osiyo xonliklarining Rossiya bilan o'zaro munosabatlarni rivojlantirishdan qanday maqsadlar bor edi? **Birinchidan**, O'rta Osiyo xonliklari o'z hunarmandchilik mahsulotlarini Rossiyaga sotishdan manfaatdor edi. **Ikkinchidan**, O'rta Osiyo xonliklari o'z hududida kamyob bo'lgan Sibir mo'yndasi, baliq tishi, yog'ochdan yasalgan idishlarini xarid qilishdan manfaatdor bo'lgan. **Uchinchidan**, Rossiyadagi metall va metall buyumlarini O'rta Osiyoga keltirish, quroq-yaroq olishdan manfaatdor edilar.

Shunday qilib aytish mumkinki, O'rta Osiyo va Rossiya o'rtasidagi munosabatlar shakllanishi bir tomonlama bo'lmay, bil'aks o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'yishdan har ikki tomon ham manfaatdor bo'lgan.

2. O'rta Osiyo xonliklari va Rossiyadagi umumsiyosiy, ijtimoiy-siyosiy shart-sharoitlar. Tarixiy jarayonlar tahlili shuni ko'rsatadi, O'rta Osiyo va Rossiya munosabatlari o'zaro umumiy manfaatlarga asoslangan edi. O'zaro munosabatlarda rus podsholari dastlabki paytlarda, O'rta Osiyo xonliklariga nisbatan tajovvuzkorlik niyatidan yiroq, ya'ni tinch-totuv, savdo, iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan siyosatni olib bordilar.

O'rta Osiyo va Rossiya munosabatlarida Sibir bilan aloqalar muhim ahamiyat kasb etgan. Chunki, O'rta Osiyo qadim zamondardan Sibir bilan savdo-iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlar o'rnatgan, barqaror savdo yo'llari muntazam xususiyatga ega bo'lib kelgan. O'rta Osiyo xonliklari va Rossiya o'rtasidagi munosabatlar har ikki tomon uchun ham, xususan savdogarlar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Masalan, o'z davrida mashhur bo'lgan "Stroganovlar savdogarlar va sanoatchilar uyi" Sibir xonliklari ustiga yurish qilishi uchun o'zining qurolli otryadlarini tuzgan. Bundan maqsad nafaqat mo'yna olish, balki u yerda o'rta osiyolik savdogarlar bilan savdo qilish uchun yangi imkoniyatlarni ham nazarda tutgan. Stroganovlarga berilgan yorliqda (1574) buxoroliklar bilan erkin va o'lponsiz savdo qilish huquqi taqdim etilgandi. Sibir uchun O'rta Osiyo bilan savdo qilish naqadar ahamiyatli ekanligi haqida quyidagi dalil asos bo'la oladi: Masalan, 1596- yili shohga Sibirdan arznama yuboriladi, unda savdoni izga solish uchun Buxoroga elchilarni yuborish so'ralgan, chunki keyingi paytlardagi bosqinchiliklar oqibatida O'rta Osiyo bilan savdo aloqalariga putur yetkazilgan edi. Oxir-oqibatda bunday arznomalar o'rganib chiqilib, barcha Sibir shaharlarida o'rta osiyolik savdogarlar o'lponsiz savdo qilish imtiyozlariga va huquqlariga ega bo'lganlar. Hattoki, podsho

hukumati O'rta Osiyodan kelgamlarni G'arbiy Sibir hududlariga ko'chib o'tishlarini va o'zbek xonliklari bilan qayta o'zlashtirilgan yerlarda savdo-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashni ma'qullab chiqqan edi. O'rta Osiyo savdogarlari nafaqat mahalliy, balki Eron, Hindiston va boshqa mamlakatlarning mollari bilan ham savdo qilar edilar. Natijada, bularning barchasi O'rta Osiyo va Rossiya o'rtasida anchagini faol diplomatik munosabatlarning rivojlanishiga olib keldi.

Yuqorida qayd etilganidek, Moskva davlati tomonidan Qozon xonligi (1552) va Astraxan xonligini (1556) bosib olinishi muhim strategik ahamiyat kasb etdi. Sharqiy slavyan pravoslav aholisi ustunlik qiluvchi Sharqiy Yevropada Moskva davlati endi uzil-kesil yirik va ko'p elatlari imperiyaga aylanib bo'lgandi. Volga yo'li ustidan nazorat o'matilishi va shu bilan bog'liq ravishda Dashti qipchoqning o'zaro urushlar natijasida parokandalikka yuz tutishi Moskva hukmdorlarini Oltin O'rda xonlarining merosxo'rlariga aylantirdi va keyingi bir necha o'n yilliklardagi rus sharq siyosatini "Oltin O'rda yerlarini to'plash" deb tavsiflasa bo'ladi.

Sharqiy bozor Rossiya uchun foydali edi, uning iqtisodini rag'batlantirib turardi. Savdo munosabatlarning rivojlanishi, diplomatik aloqalarning mustahkamlanishi uchun ham asos bo'lib xizmat qilardi. Mavjud manbalarning shohidlik berishicha, 1583- yildan 1600- yilga qadar Moskva davlati O'rta Osiyodan kamida 17 elchilikni: Buxorodan 8, Xivadan 3, Qozoq o'rdalaridan 2 elchilikni qabul qilgan. Ular har galgidek, Sharq savdogarlari karvonlari hamrohligida kelar va o'zlarini bilan xonning "sovg'a-salomlari"ni olib kelar ediilar. Agar G'arbdan Rossiya ga xom-ashyo olib kelinib, hasham buyumlari va zarb qilingan tangalar olib ketilgan bo'lsa, Sharq mamlakatlari esa tayyor buyumlar chiqarilish, qurmatbaho buyumlar bilan bir qatorda arzon narxdagi matolar, xalq iste'moli uchun ipak va paxta olib kelinardi. O'zaro munosabatlarning umumsiyosiy shart-shareitlari shakllanishida, xususan, Rossiya tashqi siyosatida Sharq va G'arb masalaari nisbatiga kelsak, bu vaqtida A.A. Ordin-Nashchokin asosiy shaxs bo'lgan. U elchilik buyrug'inining boshqaruvchisi hisoblanar va "shohning bosh muhrdori va elchilikning buyuk davlat ishlari muhofizi" degan dabdbabli unvonga ega bo'lish bilan birga davlat kansleri ham edi. A.A. Ordin-Nashchokin Rossiyaning taqdiri ham Yevropa, ham Sharq davlatlari bilan o'zaro munosabatlarni rivojlantirishga bog'liq ekanini tushunardi.

A.A. Ordin-Nashchokin Rossiyaning Sharq mamlakatlari bilan o'zaro munosabatlari nechog'li ulkan ahamiyat kasb etishini anglar edi.

V.O. Klyuchevskiy yozadi: “Uning siyosiy nigohi xazina va xalq uchun yangi foydalarni diqqat bilan kuzatgan va hamma tomonga baravar qarab turardi. U Fors va O`rta Osiyo, Xiva va Buxoro bilan savdo aloqlari o`rnatishga harakat qilardi...”

O`zaro munosabatlар rivojlanishidagi ijtimoiy-siyosiy shart sharoitlar diplomatik aloqalarni har tomonlama olib borishni, bu masala yechimida savdo munosabatlarini tuzish hamda savdo karvonlari o`tadigan yo`llarni ma`lum darajada nazorat ostiga olish, xususan bu yo`llardagi sun`iy to`sinq, taqiqlarga barham berib, yo`llarni qaroqchilarsiz bo`lishiga erishish zarur edi.

O`rta Osiyo va Rossiya o`rtasidagi umumsiyosiy aloqalar, xususan diplomatik munosabatlар doimiylik xususiyatidan yiroq bo`lib, amalda imzo-muhrlar qo`yilgandan keyin ham, bu shartnomasi u yoki bu tomon nuqtai nazaridan qachongacha foya keltirsa, o`sha paytgachagini kuchda bo`lgan.

3. O`zaro munosabatlarda harbiy ekspeditsiya: maqsad va oqibat. Rus shoiri A.S.Pushkin shunday yozgan edi: “Pyotr I ikki armon bilan ko`z yumdi: biri – Prut sohilidagi mag`lubiyat uchun Turkiyadan, ikkinchisi A.Bekovich-Cherkasskiy mag`lubiyati uchun Xivadan o`ch ololmaganligida edi”.

XVI-XVII asrlardagi O`rta Osiyo va Rossiya munosabatlari o`zaro umumiy manfaatlarga asoslangan edi. Rus hukmdorlari, dastlabki paytlarda, O`rta Osipyoga nisbatan o`zaro munosabatlarda xonliklar bilan tinch-totuv, savdo, iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan siyosatni olib bordilar. Boshqacharoq ifoda etganda, Rus hukmdorlari O`rta Osipyoga nisbatan bosqinchilik rejali yo`q edi. Ammo XVIII asrdan, qachonki Rus davlati iqtisodiy, siyosiy jihatdan mustahkamlanganda, janubi-sharqqa bosqinchilik siyosatini yurgiza boshladilar. Ayniqsa bu Pyotr I boshqaruvi davrida yaqqol ko`zga tashlana boshladi.

Shvetsiya bilan olib borilgan Shimoliy urushdagi g`alabadan so`ng 1721-yili Rossiya imperiya deb e`lon qilindi. Ammo yangi imperiya bu vaqtida Yevropaning xom-ashyo manbai va tayyor mahsulotlari bozori hisoblanib, taraqqiyotda orqada qolgan edi. Rossiya uchun o`zga mamlakatlarni bosib olish rejasi tuzildi. Ammo har qanday harakat xarajatlarni talab qilardi. Rus davlatining oltinga bo`lgan talabi oshdi. Ayni paytda o`z mollarini sotish uchun talab bo`lgan bozorga ham chitliyoy katta bo`lgan. Pyotr I urush xarajatlarini qoplash va armiyani ta`minlash maqsadida senatga “oltin davlatning qon tomiridir” deb xat

yozib, oltin-kumush konlarini qidirib topish zarurligini uqtirib o'tdi. Xuddi shu vaqtda, ya'ni 1713- yilda Nafasxo'ja ismli turkman Astraxanga kelib, Amudaryodan oltin qum olinishi va o'tmisht zamonlarda uning Kaspiy dengiziga quylganligi haqida rus hukumatiga ma'lumot beradi. Shuningdek, Amudaryoni Kaspiyga burish mumkinligi va bu ishda turkmanlar yordam berajagini ham aytadi. Bunday axborot Pyotr I ni faol harakatlarga undaydi. Chunonchi, u 1714- yilning 19-mayida Xiva xonligini zabt etish haqidagi farmonni Senatga yuboradi. A.Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasi oldiga qo'yilgan vazifalar Pyotr I tomonidan chiqarilgan ikkita farmonda o'z ifodasini topgan. 1714- yil 29- maydagi farmonga ko'ra, u Astraxanga borishi va bu yerda keragicha kemalar, oziq-ovqat va boshqa narsalar bilan 1500 nafar odam olishi, ular bilan Kaspiy dengizining sharqiy sohili bo'ylab Xiva yerlarigacha suzib borishi, u yerda albatta istehkom barpo etishi belgilab qo'yilgandi. A.Bekovich-Cherkasskiyga Eron yerlariga yetib borishi, Amudaryoning eski o'zani topilgan taqdirda, uning bo'yida istehkom qurishi, uni 600 yoki 700 askar bilan mustahkam qo'lda ushlab turishi bo'yicha qat'iy ko'rsatma berilgan edi. Shu bilan birga A.Bekovich-Cherkasskiyga Kaspiy dengizi sharqiy qirg'og'i xaritasini tuzish topshirilgan.

A.Bekovich-Cherkasskiy missiyasi 1714- yil yozida boshlandi. U Astraxanga kelib, dengiz ekspeditsiyasini tayyorlash bilan birga joslardan bir necha guruhini O'rta Osiyoga, Orol va Kaspiy dengizi oralig'idagi joylar, Amudaryo, uning irmoqlari, oltin konlari haqida turli ma'lumotlar to'plagani yuboradi. Dengiz ekspeditsiyasi 1714- yil noyabrda Kaspiy dengizining shimoliy qirg'og'i yoqalab Sharqqa qarab dengizga chiqdi. Biroq qish qattiq kelib ekspeditsiya dekabrdayoq Astraxanga qaytishga majbur bo'ldi. Bu vaqtga kelib A.Bekovich-Cherkasskiy o'z odamlaridan O'rta Osiyoda oltin quruqlikda ham qazib chiqarilishi haqida ma'lumot oldi. Bunday konlarni qidirib topish uchun A.Bekovich-Cherkasskiy Pyotr I dan 500 nafar kazaklardan iborat otryad yuborishni so'raydi. Uning bu talabiga ko'ra yuborilgan kazak otryadi xivaliklar bilan birinchi to'qnashuvdayoq halok bo'ldi.

1715- yil aprelda A.Bekovich-Cherkasskiy yana dengizga chiqdi. U Kaspiy dengizining shimoliy va sharqiy qirg'oqlarini tekshirib, o'rgandi. Shu yil oktabrda u talofatlarsiz Astraxanga qaytib ketdi. A.Bekovich-Cherkasskiy Astraxanga kelganidan so'ng safar yakunlari bo'yicha Pyotr I ga maktub yuborib, unga Kaspiy dengizi xaritasini ham ilova qilib yubordi.

1716- yil 14- fevralida Pyotr I A.Bekovich-Cherkasskiy bilan suhbatlashib, amalga oshiriladigan vazifalarni quyidagicha belgilab bergen:

1. Bir vaqtlar Amudaryo Kaspiy dengiziga quyilgan joyda 1000 kishilik harbiy istehkom qurilsin. Amudaryo oqimi va to'g'onlarini sinchkovlik bilan o'r ganib, imkoni bo'lsa, eski yo'liga burib yuborilsin. Suvni Orol dengiziga yo'naltiradigan to'g'onlar buziisin. Bu ishlarni bajarishga qancha kishi kerakligi aniqlansin.

2. Xiva xonligini rus davlati tobelligiga o'tishiga erishilsin hamda bizning manfaatimizga xizmat qilish sharti bilan harbiy qism qoldirilsin. Agar xon rozi bo'lsa va sharoiti ko'tarsa, harbiy qismni o'zi ta'minlasin. Bordiyu buni qila olmasa, harbiy qismni bir yil davomida ta'minlash kafolati olinsin, keyingi yillardagi xarajatlar esa uning zimmasiga yuklatilsin.

3. Agar Xiva xoni rozilik bildirsa, uning kishilariga ikki rusni qo'shib, Amudaryo suvi bo'y lab oltin borligini aniqlash uchun Yorkent (Sharqiy Turkiston)ga jo'natilsin. Shuningdek, savdogarlarning Amudaryo bo'y lab Hindistonga borishlari uchun kemalar berilishi xondan so'ralsin.

4. Xiva xonligida Buxoro xonligining rus davlati tobelligiga o'tish xohishi bor-yo'qligi haqida aniq ma'lumot qo'lga kiritilsin.

5. Ko'rsatilgan topshiriqlarni amalga oshirish uchun 4000 kishidan iborat muntazam qo'shin va kerakligicha kemalar ajratilsin. Bundan tashqari, Yoyiq kazaklaridan 1500, eshkakchilardan 500 va otiqlardan 100 kishi berilsin. Ular savdo karvonlarini muhofaza qilish niqobi ostida Astraxandan harbiy qal'a va shahar quriladigan joyga, ya'ni Kaspiyning sharqiy qirg'og'iga yuborilsin.

1716- yili A.Bekovich-Cherkasskiy Moskvada turgan vaqtida uning huzuriga Xiva, Buxoro, Samarqand va Balxda bo'lib qaytgan joslardan biri Tebey Xitoyev kelib, Samarqand yaqinida oltin konlari mayjudligi haqida ma'lumot beradi. O'zi bilan olib kelgan oltin qumi va lojuvard namunalarini ko'rsatadi. Shu bilan birga O'rta Osiyodagi muhim savdo yo'llari va savdo uchun mayjud shart sharoitlar haqida ma'lumotlar beradi.

A.Bekovich-Cherkasskiyning ikkinchi dengiz ekspeditsiyasi 1716-yil 15- sentabrda boshlandi. Uni amalga oshirish uchun maxsus flotiliya tashkil qilinib uning tarkibiga 100 ta kema jalb qilindi. 1716- yil 9-oktabrda flotiliya To'pqo'rg'on burniga suzib keldi va bu yerda istehkom qurilib, unga avliyo Pyotr nomi berildi. Keyin Aleksandrboy

qo`ltig`ida ikkinchi qurildi. Qizilsuvda esa uchinchi istehkom qad ko`tardi. Keyinchalik uning o`rnida Krasnovodsk shaharchasi barpo etildi. Shu yerdan A.Bekovich-Cherkasskiy Xiva xoni Sherg`ozixonga uch kishilik elchi yubordi. Elchilarga xondan ekspeditsiyaning Xivaga borishiga ruxsat olish vazifasi yuklatilgan edi. Biroq yuborilgan elchilar Xivadan qaytib kelmadilar.

A.Bekovich-Cherkasskiy har bir istehkomda garnizon va oziq-ovqat qoldirib, 1717- yil boshida Astraxanga qaytib ketdi. Shu bilan ikkinchi Kaspiy ekspeditsiyasi o`z nihoyasiga etdi. Uning asosiy natijasi istehkomlar, eng avvalo Krasnovodsk istehkomini qurish bo`ldi. Pyotr I rejasiga ko`ra, Krasnovodsk qayta tiklangan daryo o`zanini qo`riqlash va Rossiyaning O`rta Osiyo bilan munosabatlarida tayanch bo`lib xizmat qilishi kerak edi.

Ma`lumotlarga qaraganda, Pyotr I Buxoro xonligini ham Rossiya tasarrufida bo`lishini xohlagan. Bu paytda Buxoro xonligida osoyishtalik bo`lmasdan, o`zaro feudal urushlar avjiga chiqqan, markaziy hokimiyat juda kuchsizlangan edi. Ayni paytda Rossiyaning strategik maqsadlaridan biri O`rta Osyoning boyliklariga ega bo`lish va Hindiston uchun yo`l ochish edi.

1717- yilning 14- martida A.Bekovich-Cherkasskiy Pyotr I farmonini amalga oshirishga qaratilgan talablarni hukumat Senatiga ma`lum qildi. Senat tomonidan qabul qilingan qarorga ko`ra, Astraxan, Saratov, Saritsin, Samara va boshqa joylardan harbiy qism jamlanib, uning umumiy soni bir hujjatda 6344, ikkinchisida esa 6110 kishi deb ko`rsatilgan. Qo`shin bilan olib ketiladigan to`plar uchun 481 pud porox, 1230 pud qo`rg`oshin va boshqa narsalar ajratildi. Askar va zabitlarning ichishlari uchun 4000 chelak vino va 597 chelak pivo beriladigan bo`lgan.

Ushbu ekspeditsiya oldida 13 banddan iborat vazifalar belgilangan edi. Bunga ko`ra A.Bekovich-Cherkasskiy Volga-Kaspiy yo`li orqali Xiva tomon yurish qilib, Amudaryo qирг`оғида harbiy qal'a qurishi, Amudaryoni Kaspiy dengizi tomon burishi va Xiva xonligini bosib olishi lozim edi. Xiva xonligi egallangandan keyin A.Bekovich-Cherkasskiy xonlik kishilari bilan birga ikki rus kishisini Yorkentga oltin borligini aniqlash uchun yuborishi ko`zda tutilgan edi. Bundan tashqari A.Bekovich-Cherkasskiy zimmasiga Buxoro amirligining Rus davlati tobelligiga o'tish masalasini aniqlash vazifasi yuklatilgan edi. Ekspeditsiyani to`laqonli tashkil etishga uch yil davomida tayyorgarlik ishlarini amalgा oshirgandan so`ng. 1717- yil 9- iyunda A.Bekovich-

Cherkasskiy 3727 piyoda, 617 otliq dragun, 2 ming kazak, 230 dengizchi va 22 to`p bilan Guryev shahridan Xiva xonligi tomon yo`lga chiqdi. Ayni paytda rus qo`shinlarini kelayotgani haqidagi xabarga muvofiq Xiva xonligida tayyorgarlik ko`rilayotgan edi. Xiva xonligiga uch kunlik yo`l qolganda, ya`ni Porsu degan joyda Xiva qo`shini rus askarlarini qurshab oldi. Ikki o`rtadagi jang to`g`risida keng ma`lumotlar mahalliy va rus ma`lumotlarida saqlanib qolmagan. Xiva xoni Sherg`ozixon (1714-1728) A.Bekovich-Cherkasskiy huzuriga elchilar yuborib, masalani tinch yo`l bilan hal qilishni taklif qilgan. Taklif asosida rus qo`shinlari beshga bo`linib, xonliklarning turli shaharlariga taqsimlash va so`ngra muzokara yuritish ko`zda tutilgan. Xon kishilari ko`pligi uchun bir yerda oziq-ovqat va joy bilan ta`minlashning iloji yo`qligini ma`lum qilgan. Rus manbalarining ko`rsatishicha, A.Bekovich-Cherkasskiy soddalik qilib, bu taklifga rozi bo`lgan. O`z navbatida Xiva xoni rus qo`shinlarining bo`lnishidan foydalanib, ularni birin-ketin qirib tashlagan. A.Bekovich-Cherkasskiy va uning o`rinbosari Zamanovning kesilgan boshlari Xiva bozoriga osib qo`yilgan. Shunday qilib, A.Bekovich-Cherkasskiy qo`shinining ancha qismi qirib tashlangan. Qolgan ma`lum qismi asirga olinib ishlatilgan. Ayrim rus kishilari Astraxanga qochishga muvaffaq bo`lgan. Shunday qilib Pyotr I ning harbiy kuch bilan Xiva xonligini bosib olish harakati muvaffaqiyatsizlik bilan tugagan.

A.Bekovich-Cherkasskiy boshchiligidagi harbiy yurishdan Buxoro xonligi xabardor bo`lsa-da, biroq unga qarshi biror chora ko`rmay, xolis turdi. Chunki Buxoro xonligi hukumati rus davlati bilan aloqaning yomonlashuviga yo`l qo`ymaslikni ko`zlagan edi. Xiva xoni Sherg`ozixon g`alabasining namoyishi sifatida A.Bekovich-Cherkasskiy kallasini Buxoroga yubordi. Ammo Buxoro xoni Abulfayzxon Rossiya bilan munosabatlar keskinlashishidan cho`chib, uni olmay qaytarib yubordi.

Sherg`ozixon rus hukumati tomonidan o`ch olinishini sezib, Rossiya bilan diplomatik va savdo aloqalarini tiklashni maqsadga muvofiq deb topgan. Shu maqsadda Vaysmamat (Uvays Muhammad)ni elchi sifatida Peterburgga yuborgan. Elchi orqali Pyotr I ga xonlikni bosib olmoqchi bo`lganligi uchun A.Bekovich-Cherkasskiy askarlariga zarba berilganligi ma`lum qilingan. Ammo o`z paytida Xiva xonligi tomonidan A.Bekovich-Cherkasskiy boshchiligidagi harbiylarni qirib tashlanishi Pyotr I g`azabini keltirgan. Bu voqeal Rossiyaning xalqaro maydondagagi obro`siga putur yetkazgan edi. Shuning uchun ham Pyotr I

elchilik qoidalarini buzib, elchi Vaysmamatni 4 ta hamrohi bilan Astraxandan soqchilar nazoratida Peterburgga keltirib, Petropavlovsk qamoqxonasiga tashlashni buyurgan. Keyin elchi tashqi ishlar hay`atiga chaqirilib, suhbatdan o`tkazilgan.

Xiva xoni elchisini A.Bekovich-Cherkasskiy va rus askarlarining xuni uchun osib o`ldirilishi lozim deyilganda, elchi “bu sizlarning ishingiz” deb javob bergan. Xiva xoni elchisi 1721- yil 10- martida qamoqxonada vafot etgan va ehtimolki, u qasddan o`ldirilgan bo`lishi ham mumkin. Qolgan 3 kishi qamoq va katorgaga hukm qilingan. Elchi hamrohlaridan Kuchek (Kichik) nomlisi Rossiya hukumatining rus asirlarini ozod qilishi haqidagi maktubi bilan Xivaga jo`natilgan. Elchiga yana kanselyariya boshlig’ining Xiva xoni yuborgan elchi o`limi haqidagi xabar yozilgan xat ham qo`shib jo`natilgan edi. Keyinchalik Xivadan Rossiyaga qaytib kelgan rus asirlarining aytishlaricha, Xiva xoni Sherg’ozixon Pyotr I yuborgan yorliqni olib, uni oyoqlari bilan tepkilab tashlagan.

Urnuman olganda, xivaliklar tomonidan tor-mor etilgan A.A.Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasining halokati O`rta Osiyoda Rossiyaning harbiy faolligini 100 yilga, aniqrog’i Perovskiyning tajovuzkorona yurishiga qadar to`xtatib qolgan edi.

4. Turkiston xonliklaridagi rus harbiy asir-qullari va ularni ozod qilish yo`lidagi sa`y-harakatlar. O`rta Osiyo xonliklarida ko`plab rus harbiy asir – qullari istiqomat qilganlar. Ular turli yo`llar bilan qozoqlar tomonidan asirga olinib, qul sifatida sotib yuborilgan edi.

Shu davr qonun-qoidasiga ko`ra qullar pul evaziga ozodlikka chiqishi ham mumkin bo`lgan. N.M.Muravyovning aytishiga qaraganda, Xivadagi rus qullariga ovqatlik uchun bir oyda 2 pud un berilgan. Qullar ana shu undan tejab, bozorga olib chiqib sotganlar. Mana shunday yo`llar bilan (odatda 20 yillab pul to`plaganlar) pul to`plab xo`jayinga bergenlar va ozodlik olganlar. Biroq, bu ozodlik faqat xonlik hududi uchungina bo`lib, o`z vatanlariga qaytishi uchun ruxsat berilmagan.

Rossiya hukumati O`rta Osiyo xonliklariga o`z elchilarini yuborayotganda, albatta, ularga rus asirlarini qutqarish haqida muzokaralar olib borishni topshirar edi. Bu masala 1620- yildayoq Buxoroga jo`natilgan birinchi rus elchiligi I. Xoxlov zimmasiga ham yuklatilgan edi.

Rossiyadan Buxoroga elchi bo`lib kelgan kishilar hamda sayyoohlar kuchlari yetganicha rus qullaridan bir nechasini sotib olib ketishga muvaffaq bo`lganlar. Masalan, 1669-1673- yillarda Buxoro va Xivaga

elchi bo`lib kelgan aka-uka Pazuxinlar, Buxorodan chiqib ketayotganlarida 22 rus qulini sotib olib ketganlar. 1820- yilda rus elchisi tarkibida Buxoroga kelgan ruhoni Budrin o`z ma`lumotida quyidagilarni yozgan: “Elchi janoblari Bozorchi qarorgohiga kelganida, uning oldiga juda ko`p asirlar kelib qullikdan ozod qilishini iltimos qilganlar. Elchining xristianlik muhabbatni jo`shtirish uildan bir nechasini 60-70 chervondan (har birini 60-70 Buxoro chervoniga) sotib oldi hamda Rossiyaga olib ketish maqsadida bir necha ozod qilingan rus kishilarini ham o`z himoyasiga oldi”.

Buxoro xoni rus elchilariga sovg'a sifatida rus qullaridan tekinga berib turgan. Masalan, 1669-1673- yillarda Buxoroga elchi bo`lib kelgan Boris Pazuxinga Abdulazizxon tarafidan 9 rus quli sovg'a sifatida topshirilgan. 1675- yilda Abdulazizxon Hoji Farruhni rus davlatiga elchi qilib yuborayotganida rus podshosi uchun yuborilayotgan sovg'alar bilan birga 9 rus qulini ham qo'shib bergan. Abdulazizxon rus elchisi B.Pazuxinga quyidagilarni ta'kidlagan: Buxorodagi barcha rus qullari urushda asir olingan emaslar, balki ularning har birini 40-50 so`m va undan ortiqroq baholarda sotib olingan. Shuningdek, Moskvaga yuborilgan Mulafor (Mulla Farruh) qaytmaguncha hamda Rus davlatining navbatdagi elchisi Buxoroga kelmaguncha boshqa asirlarni jo`natmasligini ham aytib o`tgan.

N.V.Veselovskiy Abdulazizxon bilan aka-uka Pazuxinlar o`rtasida bo`lib o`tgan muzokaralardan xulosa chiqarib, “Xonlar rus elchilarining tez-tez kelib turishini istar edilar. Ma`lumki, elchilar quruq kelmas edilar” – deydi. Ma`lumki, o`zaro munosabatlarda elchilar keltiradigan – olib boradigan sovg'alar ham muhim rol o`ynagan. Aslida, o`zaro munosabatlarda, xususan O`ita Osiyo xonliklari bilan Rus davlati o`rtasidagi elchi ayirboshlashdan ko`zda tutilgan maqsad savdo ishlarini rivojlantirishdan iborat bo`lgan. O`z navbatida “sovg'a ayirboshlash” amalda xonlik bilan Rossiya o`rtasidagi savdo munosabatlaringin bir turi bo`lgan. O`z-o`zidan ma`lumki, rus elchilarining Buxoroga kelishdan maqsadi faqat rus qullarini sotib olish bo`lmay, balki har ikki davlat o`rtasidagi savdoni yanada rivojlantirishdan iborat bo`lgan.

Manbalarga ko`ra, XVIII asr boshida Buxoroda bo`lgan rus qullarining soni 2000 ga yaqin bo`lgan. Masalan, 1725- yilda Buxoroda bo`lgan F.Benevenining aytishiga qaraganda, Buxorodagi rus qullarining soni xon o`rdasida 250, Buxoro bo'yicha 1000, umuman xonlikda jami rus asirlarining soni 2000 kishi bo`lgan.

O'rta Osiyo xonliklarida boshqa millat qullariga nisbatan rus qullari ancha qadrlangan. Shuning uchun bo'lsa kerak, bunchalik ko'p miqdordagi qullarni birdaniga ozod qilish yoki ularning xo'jayinlaridan majburiy suratda sotib olib Rossiyaga jo'natish, o'z davrining shart-sharoitiga ko'ra, ancha murakkab masala bo'lgan. Ayni vaqtida bu quldorlar o'tasida norozilik tug'dirishi ham mumkin bo'lgan. Shuning uchun ham Abdulazizzon rus elchilarini yuborib turishni so'ragan. Bunga sabab qullikda bo'lgan rus asirlarining podsho Aleksey Mixaylovichga yozgan xatlarida ham ko'rish mumkin. Abdulazizzon bunday siyosat orqali ikki masalani birdaniga hal qilmoqchi bo'lgan:

1. Rus elchilarining kelishdan maqsadi qisman rus qullarini ozod qilib, amalda olib ketishi ekanligini quldorlar ko'ziga ko'rsatish hamda ularni o'z qullarini ozod qilish yoki pulga sotishlari uchun zamin yaratish;

2. Buxoroga kelgan har bir rus elchisi orqali 5-10 rus qulini pul badaliga yoki tekinga berib yuborish bilan rus podshosini e'tiborini o'ziga jalb qilib, har ikki davlat o'tasidagi savdo munosabatlarni rivojlantirishdan iborat bo'lgan.

Ammo o'zaro munosabatlardagi elchilik ayrboshlashlar, xususan savdo munosabatlari, qullarni ozod qilish jarayoni XVIII asr oxirlaridan ma'lum bir sabablarga ko'ra o'zgara boshlagan. Xususan, O'rta Osiyo xonliklaridagi rus elchilarini ta'qib ostiga olina boshlangan. Rossiya elchilarini deyarli, xalq ommasidan, ayniqsa Buxoroda qullikda bo'lgan rus kishilaridan chetda tuta boshlaganlar. Shunday holatlar bo'lgniki, xonlikdagi quldorlar o'z qo'llaridagi rus qullarini rus savdogarlariga sotmay qo'yganlar. Bunday bo'lshiga sabablardan biri shuki, Buxoroga kelayotgan rus elchilari va sayyoohlarining ko'proq xonlikning ichki ahvoli va davlat ishlari hamda harbiy salohiyati bilan qiziqa boshlaganliklari edi. Chunki Buxoroda qullikda bo'lgan rus qullari xonlikning ichki va tashqi ahvoli haqida ma'lum darajada tushunchaga ega bo'lganlar. Rus hukumati tomonidan 1767- yil 28- yanvarda rus qullarini sotib olish haqidagi chiqargan qaroriga muvofiq Xiva va Buxoro xonliklari bilan olib borilgan muzokaralar foyda bermadi. Ushbu qarorga muvofiq, rus asirlarini sotib olish uchun har yili 300 so'm miqdorida mablag' ajratish ko'zda ko'zda tutilgan edi. Ammo Buxoro va Xivada qullarni ruslarga sotish deyarli to'xtab qoldi. Hatto Buxoro va Xivada rus qullarini quldorlar tomonidan rus elchilariga sotgan kishilar uchun katta jarimalar solinadigan bo'ldi. Masalan, 1820- yilda Buxoroga kelgan ruhoni Budrin bergen ma'lumotga ko'ra, rus elchisining

bozordagi rus qullaridan sotib olishga qarshi xon va uning vazirlari qo'llaridan kelgan barcha qarshilik choralarini ko'rganlar. Rus qulini sotgan kishilar uchun 100 chervondan jarima solingan. O'z xo'jayinidan qochgan qullarni topirib avaxtaga qamash haqida buyruq berilgan.

1841- yili Buxoroga kelgan rus elchisi Butenev tomonidan amir Nasrullo berilgan yorliqda, rus qullarini ozod qilish haqida alohida modda bo'lган. Ammo amir Nasrullo Butenevning talabiga qulq solmay, "keyinchalik ko'ramiz" degan javobini bergan. 1858- yilda Buxoroga kelgan polkovnik Ignatevning aytishiga qaraganda, uning rus davlati nomidan Buxorodagi rus asirlarini ozod qilish haqida Buxoro amirligiga qo'ygan tajabi amir Nasrullo tomonidan qabul qilinib, darhol amirlikdagi barcha rus asirlari hamda ularning avlodlarini topib keltirish uchun buyruq bergan. Ammo Ignatevning e'tirof qilishicha, topib keltirilgan rus asirlari orasidan 11 kishigina Rossiyaga olib ketish uchun loyiq deb topilgan. Qolganlari esa islam dinini qabul qilgan bo'lib, hatto o'zlarini o'trnishda kim bo'lganliklarni ham unutib, Buxoro urfatlariga berilib ketgan kishilardan iborat bo'lган.

I.I.Kraftning ta'kidlashicha, XVIII asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyo xonliklarida qullikda bo'lган rus asirlarini sotib olish haqida rus davlatining chiqqargan maxsus farmonidan so'ng, rus qullariga qo'yilgan tuzoq, ya'ni rus kishilarini har xil yo'llar bilan qo'lga tushirib qul qilib sotish ishi yanada rivojlanib ketgan. Chunki farmonda har bir rus kishisini qullikdan sotib olish uchun 150 so'm miqdorida mablag' belgilangan. Bunday o'z davri uchun katta mablag', "odam ovlovchilar" uchun juda qo'l kelgan va hatto rus qullari ovini kuchaytirib yuborgan. Shunisi qiziqki, rus hukumati tarafidan O'rta Osiyo xonliklarida bo'lган rus qullarining sotib olinishi tufayli, rus qullariga belgilangan baho yildan yilga ortib borgan. G.I.Semenyukning arxiv hujjatlariga asoslanib, bergan ma'lumotida 1791- yilda bir qulning o'ratcha bahosi 146 so'm, 1792- yilda 193 so'm, 1793- yilda 200 so'm bo'lган.

Buxoro va Xivadagi rus qullari soni haqida har xil sonlar keltiriladi. Muravyov Xivada 3000 ga yaqin rus qullar bo'lган deb, ayni vaqtida Buxoroda har 3000 ta qul bo'lganini qayd etadi. F.Beneveni rus qullari Xivada 1500 tani, Buxoroda esa 2000 dan ortiq tashkil qiladi, deydi.

O'z navbatida N.Veselevskiy Xivada 2000dan ortiqroq rus qullari bo'lган deb taxmin qiladi. Umumlashtirib olganda, XVII-XVIII asrlar davomida Buxorodagi rus qullarining soni 1500-2000 kishiga yetgan. Rus hukumatining rus asirlari har xil yo'llar bilan ozod qilish yo'lidagi

sa'y-harakati natijasida, O'rta Osiyo xonliklarida rus qullarining soni kamayib borgan. XIX asming birinchi yarmida Buxorodagi rus asirlari – qullarining soni 100-150 kishidan oshmagan. Ushbu fikr isbotiga polkovnik Ignatevning Buxoroga missiyasi isbot bo'la oladi. Chunki rus hukumatining ushbu missiyadan ko'zda tutgan maqsadi Buxoroda asirlikda – qullikda qolga larning barchasini ozod qilib olib ketishdan iborat bo'lgan. O'z navbatida Buxoro amiri Nasrullo ham rus hukumatining talabiga ko'ra, 1858- yilda barcha rus qullarini ozod qilgan.

Buxorodagi rus qullarining soni manbalarda turlicha ko'rsatilgan. Jumladan, A.Vamberining yezishiga qaraganda, amir Nasrullo davrida (1826-1860) Buxorodagi qullarning soni 20 mingdan ortiq bo'lgan. G.Spasskiyning bergan ma'lumotiga ko'ra qullar soni 40 ming kishini tashkil qilgan. Blankennagel ma'lumotilariga ko'ra ularning umumiyy soni 50 ming kishidan iborat bo'lgan.

O'rta Osiyo xonliklarida, shu jumladan, Buxorodagi mavjud qul va cho'rilar orasida ko'plab rus qullari ham bo'lgan. Qullar orasida yana kurdilar, qalmoqlar, jamshidlar, xazorlar, afg'onlar, hindlar, turklar va boshqa xalqlar ham bo'lgan... Ana shunday qullar orasida Filipp Yefremov ham bo'lib, uni qozoqlar ushlab olib to'rt dona buzoq terisi barobariga buxoroliklarga sotganlar. 1803- yilda Rossiyadan Buxoroga kelayotgan rus karvoniga ana shunday hujum qilganlar. Natijada, ikki o'rtadagi olishuv davrida karvonboshi Smaylov, doktor S.B. Bolshoy va sakkizta kazak askari qozoqlar qo'liga asir tushganlar. Qozoqlar ularni qul qilib sotib yuborganlar.

F.Yefremovning ta'kidlashicha, A.Bekovich-Cherkasskiyning Xivaga qilgan missiyasi barbod bo'lgach, ma'lum bir qismi qirg'in qilingandan keyin, qolgan qismini asirga olinib, har tarafga qul qilib sotganlar. Shu ekspeditsiyadan qolgan asirlardan 100 nafari maxfiy tarzda Buxoro xoni Abulfayzxonga yuborilgan. Abulfayzxon asirlarga yaxshi munosabatda bo'lib, ularni o'z saroyida maxsus gvardiya sifatida saqlagan. Keyinchalik ulardan birini to'pchiboshi lavozimiga tayinlab, Qoplon deb nom bergan. Keyinchalik bularga no'g'aylar ham qo'shilganlar. Ularning soni 500 ga yetgan. Bularning hammasini ruslar deb ataganlar. Abulfayzxon o'z askarlariiga ishonmagani sababli ana shunday yo'll tutgan. 1721-1724- yillarda Buxoreda bo'lgan rus elchisi F.Beneveni xonga qarashli maxsus qo'shin 350 qurolli qalmeqlardan, 150 xonazod, ya'ni ota-onasi rus qullaridan bo'lgan hamda islom ruhida

tarbiyalangan qulbachchalardan va xristian dinida bo`lgan 30 rus qulidan iborat bo`lganligini yozib qoldirgan.

Senat tomonidan qullikda bo`lgan rus asirlarini pul badaliga ozod qilib olish uchun har yili 6000 so`mdar pul ajratish haqida ruxsat bergenidan so`ng qozoqlar va boshqa xalqlar tomonidan ruslarni “ovlash” yanada kuchayib ketdi. Senat tomonidan berilgan ruxsat asosidagi buyruqda har bir rus asiri uchun 150 so`mgacha haq to`lash ta`kidlangan edi. Bu haqda F.Yefremovning sarguzashtlarida ham ta`kidlab o`tilgan. Yetilib kelgan “shart-sharoit”dan nafaqat qozoqlar, boshqirdlar, qalmoqlar va turkmanlar, balki yunon Pilat Pontikskiy, Gerostrat va Antilla kabi ayrim rus kishilarini ham foydalanish harakatiga tushganlar. Rus hukumati O`rtta Osiyo xonliklarida bo`lgan rus qullarini sotib olib ozod qilayotgan bir davrda, ayrim shaxslar ko`plab ruslarni Xiva va Buxoro bozoriga jo`natib turganlar. Ana shunday shaxslardan biri orenburglik savdogar Zaychikovdir. U o`ziga qarashli bir necha ming desyatina yerning hosilini o`rib-yig`ib olishda odamlarni yollab ishlatgan. Yollangan odamlarni ishlatib bo`lgach, o`z “xaridorlari”ga maxfiy ravishda xabar bergan. Xiva va Buxorodan kelgan qul jalloblari yarim kechada saroya to`satdan hujum qilib, Zaychikovga yollangan odamlarning qo`l-oyoqlariga kishan solib Xivaga olib ketganlar. Bunday harakat Zaychikov tomonidan bir necha marta takrorlangan. Ammo keyinchalik Zaychikov o`zining qilmishlari uchun Sibirga surgun qilingan.

Odam o`g`irlovchilar tomonidan 1828- yil 25- iyul kuni Orsk qal`asidan ruhoniylar vakili tariqasida Krasnogorskka ketayotgan ruhoniy Ioann Rezanovni yo`lda qozoqlar ushlab olib, keyinchalik sotib yuborganlar.

Odam o`g`riliqi bilan shug`ullanuvchilar nafaqat boshqa din vakillarini, balki musulmonlarni ham qul qilish va sotish hollari bo`lib turgan. Masalan, 1860- yil avgustida qora no`g`ay jamoasidan sakkiz kishi Kaspiy dengizi yonidagi oroldan chiqib, dengizning sharqiy tarafida baliq ovlamoqchi bo`lganlar. Natijada qurolli kishilar tomonidan qo`lga olinib, bog`langanlar. Qo`lga tushganlar musulmon bo`lishiga qaramasdan g`oliblar tomonidan ularga kofir ekanligi uqtirilgan. Shundan so`ng ularni Xiva bozoriga, undan Buxoro bozoriga haydar ketganlar.

1820- yilda Rossiyadan Buxoroga kelgan elchilar hay`atida ruhoniy Budrin ham ishtirot etgan. Budrin o`zining “Русские в Бухаре

1820 году” (“1820- yilda ruslar Buxoroda”) asarida Registondagi bozorni tasvirlab, hatto bu yerda qullar ham sotilishi qayd etgan.

M.M.Solovyovning “Ученая экспедиция в Бухаре 1841-1842 гг.” (“1841-1842- yillarda Buxoroda o’rganish ekspeditsiyasi”) asarida ekspeditsiya qatnashchisi naturalist Aleksandr Lemanning Buxoro qul bozorining tuzilishi haqida bergen ma’lumoti bor. Jumladan, u Tar va Tobolsk bojxonalarining 1645-1691- yillar uchun bergen ma’lumotida buxoroliklar tomonidan mazkur shaharlarga 84 nafar qul va cho’rilar (yasirlar) keltirilganligini qayd qilgan.

Ma’lumotlarga ko’ra, bozorda rus qullari boshqa millat qullariga nisbatan qimmat sotilgan. V.V.Grigoryev Xiva va Buxoro bozorlarida rus qullarining narxi 40-50 chervon (tilla), cho’rilar esa 50-100 chervongacha sotiladi deb xabar beradi.

F.Yefremov Doniyol otaliq tarafidan avval ellikboshi, keyinchalik esa Samarqand yonida bo’lgan jangda ko’rsatgan jasorati uchun yuzboshilik martabasiga ko’tarilgan. 1674- yilda Abdulazizzon Rus davlati bilan Sibir orqali bo’ladigan aloqani kuchaytirish maqsadida Hoji Farruhni Moskvaga elchi qilib jo’natadi. Hoji Farruh asli astraxanlik rus bo’lib, qalmoqlar tomonidan asir olingan va Buxoro xoniga sovg’ a sifatida yuborilgan. U saroyda o’sib to’pchiboshi darajasiga ko’tarilgan. Bunday mansabga ko’tarilgan qullar doim ta’qib ostida yashaganlar. Chunki amir va beklar ularga ishonmaganlar. Masalan, Stremoukovning ta’kidlashicha, amir Muzaffar davrida asirga tushgan sibirlik kazak Aleksey Yakovlev, qullikdan qochmaslik sharti bilan amir qo’shinini yaxshilashga harakat qilgan. Unga Usmon deb nom qo’yanlar va beklik unvonini hadya qilganlar. Usmon ya’ni Aleksey Yakovlev amir qo’shinida zambarak quyish, porox ishslash bilan birga, bir xil mundir kiyimini, rus komandasini va muzikani joriy qilgan. Ana shundan so’ng uni go’yo amiriga xiyonat qilishda ayblab, bo’g’ib o’ldirganlar.

1858-1859- yillarda Rus davlati tarafidan Buxoro xonligidan sotib olinib ozod qilingan rus asirlaridan Ivan Marchenko, Kornilo Suvorov, Ivan Nenilin va Pavel Markovlar aytganlariga qaraganda, ularni qozoq Kenisari Qosimovning yigitlari asirga olib Buxoro amiriga sovg’ a qilganlar.

S.S.Shashkovning “Рабство в Сибири” (“Sibirda qulchilik”)nomli asarida Sibirdagi qulchilikni tugatish haqidagi Rossiya podsho hukumatining farmonlarini ko’ramiz. 1808- yil 23- may oyidagi farmonda:

a) Rossianing barcha ozod kishilar uchun qirg'iz (qozoq) bolalarini sotib olish va almashtirishiga ijozat beriladi;

b) har ikki jinsdagi mazkur bolalar 25 yoshga yetganlaridan so'ng ozod bo'lishlari shart.

1859- yilda Sayidazimboy qo'qonliklar qo'lida bo'lgan tobolsklik Danila Korobkinni sotib olib, ozod qiladi. Buning uchun Rossiya hukumati tomonidan mukofotlanadi. Muhammad Solihning "Tarixi jadidayi Toshkand" nomli asarida 1863- yil bahorida rus askarlarining Turkistonga yurishi tasvirlangan. 1863- yil bahorida savdogarlar Toshkentdan chiqib, Turkiston shahriga borganlar. Bular orasida Muhammadboy o'g'li Sayidazimboy ham bo'lgan. Sayidazimboy Turkiston hokimi Mirza Davlatbiy dodhohdan urushda asirga tushgan rus asirini 250 Qo'qon tillasiga sotib olib, rus ma'murlariga topshiradi. Buning uchun rus hukumatining mukofotiga erishadi. General-mayor M.Chernyayev 1866- yil 4- oktabrda bosh shtab boshlig'iga yo'llagan bildirishida Sayidazimboy haqida quyidagilarni yozgan: "Qullarni ozod qilishda u birinchi bo'lib o'mak ko'rsatdi va boshqalarni ham ishontirdi". Biroq Sayidazimboyning qul ozod qilishdan maqsadi insonparvarlik emas edi, balki Rossiya amaldorlarining ishonchini qozonish edi.

O'rta Osiyo xonliklarini Rossiya bilan munosabatlari ma'lum bir salbiy oqibatlar qatori ijobiy natijalarga ham olib kelgan. 1868- yilgi Buxoro-Rossiya shartnomasiga muvofiq, 1873- yildan boshlab Buxoro amiriligi hududida qul oldi-sotdi savdosi ma'n qilinib, ayni vaqtida quzdorlar qo'lida bo'lgan qul va cho'rilar o'n ikki yil xizmat qilganlaridan keyin ozod qilinadigan bo'lgan.

1873- yil 12- avgustdagagi Rossiya – Xiva shartnomasi, 1873- yil 28-sentabr Rossiya – Buxoro shartnomasiga ko'ra qulchilik va qul savdosi butunlay bekor qilingan.

Tayanch so'zlar

"Buyuk cho'l", Moskva davlati, savdo, Sibir, Stroganovlar, Qozon xonligi, Astraxan xonligi, elchilik, A.Bekovich-Cherkasskiy, Nafasxo'ja, harbiy istehkomlar, dengiz ekspeditsiyasi, Xiva xonligi, Sherg'ozixon, Yoyiq kazaklari, Krasnovodsk, rus qullari, "odam ovlovchilar", qul savdosi.

Nazorat savollari

1. XVI asr ikkinchi yarmida Moskva davlatining kengayib borishi O'rta Osiyo bilan aloqalarga qanday ta'sir ko'rsatgan?
2. Rossiya O'rta Osiyo xonliklari bilan munosabatlarni rivojlantirish-dan qanday manfaatlarni ko'zda tutgan?
3. O'rta Osiyo davlatlari va Sibir o'rtasidagi savdo aloqalari haqida gapirib bering.
4. Knyaz A.Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasining maqsadi, vazifalari va yakunlarini so'zlab bering.
5. O'rta Osiyo xonliklarida rus qullarining paydo bo'lishi masalasi bo'yicha nimalarni bilasiz?
6. Rossiya hukumatining O'rta Osiyo xonliklaridagi rus qullarini ozod qilish bo'yicha amalga oshirgan chora-tadbirlari haqida gapiring.

2-MAVZU: TURKISTON VA ROSSIYA O'RTASIDAGI ELCHILIK ALOQALARI

Reja

- 1. Elchilik munosabatlarining yuzaga kelish asoslari.**
- 2. Tomonlarda elchilarni qabul qilish marosimlari.**
- 3. XVIII-XIX asr boshlarida Buxoro amirligi va Xiva xonligining Rossiya bilan elchilik munosabatlari.**
- 4. Tushkent bekligi va Rossiya o'rtasidagi elchilik aloqalari.**

1. Elchilik munosabatlarining yuzaga kelish asoslari. Qadimiy turkiy atamalarni to`plib, ular yuzasidan keng ko`lamli izlanishlar olib borgan taniqli turkshunos-lug'atshunos L.Z.Budagovning ta`kidlashicha, “elchi” atamasi aslida “el” ya`ni xalq, qabila, jamao so`zidan kelib chiqqan. Buning isboti uchun u “ellanmoq” – yarashmoq, do`stlashmoq, moyil bo`lmoq, “el turmoq” – tinch, osoyishta, bo`ysunib yashamoq, “el bo`lmoq” – itoatkor, sadoqatli bo`lmoq kabi atamalarga to`xtaladi. Yana shuni qayd etish lozimki, o`zaro munosabatlarni tartibga solish, ellar orasidagi nizolarga barham berish, o`zaro yaxshi munosabatlarni yo`lga qo`yish tarzida vujudga kelgan va oxir oqibatda bu elchilik munosabatlariga aylangan. Umuman olgandan yuqoridagi fikrlar “elchi” atamasi bo`yicha qisqa bir tushuncha bo`lib, O`rta Osiyo va Rossiya o'rtasidagi elchilik aloqalarida birmuncha boshqacharoq ahamiyat kasb etgan. Chunki elchilik aloqalaridagi tarixiy ildizlar shundan dalolat beradi.

Qadimiy qo`lyozmalarda “elchi” atamasining qator ko`rinishlari bor. Masalan, favqulodda elchi – “elchiyi maxsus”, “elchiyi kabir” yoki “buyuk elchi” atamalari oraliq elchilarga nisbatan ishlatilgan. “Ishur elchi” atamasi esa boshqa mamlakatga bora turib, yo`ldagi mamlakat sarhadlaridan o`tayotganda uning hukmdori huzuriga tashrif buyurgan elchiga nisbatan ishlatilgan. Boshqa yurtlarga yo`llangan vakilga topshirilgan vazifani “elchilik” deb atalgan. O`zaro elchilar almashinuvi esa “elchilashmoq” atamasi bilan yuritilgan. Ayni paytda “elchi” atamasi turkiy davlatlarning o`zaro munosabatlarda qadimdan qo`llanib kelingan “yalavoch” atamasi bilan ham bog’liq.

O`zbekistonlik olimlarning olib borgan izlanishlari natijasida Buxoro bilan Rossiya o'rtasidagi munosabatlarni ilmiy ravishda tekshirib chiqib, rus olimlarining (Jukovskiy, Veselovskiy, Ulyanitskiy va boshqalarining) ilgaridan hukm surib kelgan fikrlariga qarama-qarshi o`laroq Rossiya bilan Buxoro o'rtasida bo`lgan munosabatlardan asosiy

maqsad, diplomatik aloqa tuzish emas, balki ko`pincha savdo ishlari ekanligini hamda Buxoro tomonidan tuzilgan elchixonan ham, shuningdek Rossiya tomonidan tuzilgan elchixonan ham Rossiya va Buxoroda bo`lgan vaqtlarida asosan savdo ishlari bilan shug`ullanganliklarini, hattoki elchilarining o`zlarini ham bu ishga bosh qo`shganliklarini va elchilar orasida odatda savdogar kishilar ham bo`lganligini, bu kishilar elchixonada ishlashdan foydalanib turib savdo ishlari bilan shug`ullanganliklarini aniqlangan. Bundan tashqari, XVI-XVII asrlarda Buxoro bilan Rossiya o`rtasidagi munosabatlarni o`rganish bilan shug`ullangan olimlarning Rossiya Buxoro bilan yaqin munosabatda bo`lishni xohlagan emas, bu munosabatlardagi tashabbus Buxorodan chiqqan. Moskva davlati Buxoro elchixonasiga keraksiz tashvish, deb qaragan, degan qarashlari mutlaqo noto`g`ri ekanligi aniqlandi. So`nggi ma`lumotlardan ma`lum bo`lishicha, Rossiyaning Buxoroga bo`lgan munosabati tamomila xayrxohlikdan iborat bo`lgani, o`zaro munosabatlardan har ikki tomon ham manfaatdor bo`lgan.

XVI-XVII asrlarda Buxoro bilan Rossiya o`rtasidagi savdoning uchta asosiy ko`rinishi bo`lgan:

1. Mahalliy hunarmandlar ishlagan va keng iste`molga ketadigan arzon va turli nav mollar bilan savdo-sotiq qiladigan “erkin” kupleslar savdosi.

2. Rus podsholari va Buxoro xonlarining elchixonalardagi josuslari orqali yuritilgan savdosi.

3. Podsho bilan xon o`rtasida tovar ayirboshlashdan iborat bo`lgan savdo.

Ivan Grozniy davridan boshlab, ya`ni Qozon va Astraxan xonliklari Moskva davlati tomonidan bosib olinganidan keyin, uning chegarasi O`rta Osiyoga yaqinlashgach, O`rta Osiyo xonliklari – Buxoro, Xiva xonliklari bilan Rossiya o`rtasidagi savdo-sotiq munosabatlari muntazam shaklga kirib mustahkamlandi, shu bilan birga bu munosabatlarning shakllari ham o`zgarib turdi.

Buxoro va Xiva savdogarlari o`z mollarini keltirib sotadigan Astraxan Moskva davlatiga qarashli shaharga aylangandan keyin Buxoro va Xiva xonliklari qudratli davlat bo`lgan Moskva davlati bilan mo`tadil savdo-sotiq va diplomatik munosabatlarni o`rnatishga intilishi o`z-o`zidan ma`lum va aniq bir hodisadir. Ammo Moskva davlatining ham O`rta Osiyo xonliklari bilan savdo-sotiq munosabatlarini rivojlantirishga harakat qilishi tarixiy zaruriyat orqasida vujudga keldi. Moskva davlati diplomatik munosabatlar bilan bir qatorda O`rta Osiyo

2-MAVZU: TURKISTON VA ROSSIYA O`RTASIDAGI ELCHILIK ALOQALARI

Reja

- 1. Elchilik munosabatlarining yuzaga kelish asoslari.**
- 2. Tomonlarda elchilarni qabul qilish marosimlari.**
- 3. XVIII-XIX asr boshlarida Buxoro amirligi va Xiva xonligining Rossiya bilan elchilik munosabatlari.**
- 4. Toshkent bekligi va Rossiya o`rtasidagi elchilik aloqalari.**

1. Elchilik munosabatlarining yuzaga kelish asoslari. Qadimiy turkiy atamalarni to`plib, ular yuzasidan keng ko`lamli izlanishlar olib borgan taniqli turkshunos-lug`atshunos L.Z.Budagovning ta`kidlashicha, “elchi” atamasi aslida “el” ya`ni xalq, qabila, jamoa so`zidan kelib chiqqan. Buning isboti uchun u “ellanmoq” – yarashmoq, do`stlashmoq, moyil bo`lmoq, “el turmoq” – tinch, osoyishta, bo`ysunib yashamoq, “el bo`lmoq” – itoatkor, sadoqatli bo`lmoq kabi atamalarga to`xtaladi. Yana shuni qayd etish lozimki, o`zaro munosabatlarni tartibga solish, e'llar orasidagi nizolarga barham berish, o`zaro yaxshi munosabatlarni yo`lga qo`yish tarzida vujudga kelgan va oxir oqibatda bu elchilik munosabatlariga aylangan. Umuman olgandan yuqoridagi fikrlar “elchi” atamasi bo`yicha qisqa bir tushuncha bo`lib, O`rta Osiyo va Rossiya o`rtasidagi elchilik aloqalarida birmuncha boshqacharoq ahamiyat kasb etgan. Chunki elchilik aloqalaridagi tarixiy ildizlar shundan dalolat beradi.

Qadimiy qo`lyozmalarda “elchi” atamasining qator ko`rinishlari bor. Masalan, favqulodda elchi – “elchiyi maxsus”, “elchiyi kabir” yoki “buyuk elchi” atamalari oraliq elchilarga nisbatan ishlatilgan. “Ishur elchi” atamasi esa boshqa mamlakatga bora turib, yo`ldagi mamlakat sarhadlaridan o`tayotganda uning hukmdori huzuriga tashrif buyurgan elchiga nisbatan ishlatilgan. Boshqa yurtlarga yo`llangan vakilga topshirilgan vazifani “elchilik” deb atalgan. O`zaro elchilar almashinushi esa “elchilashmoq” atamasi bilan yuritilgan. Ayni paytda “elchi” atamasi turkiy davatlarning o`zaro munosabatlarda qadimdan qo`llanib kelingan “yalavoch” atamasi bilan ham bog`liq.

O`zbekistonlik olimlarning olib borgan izlanishlari natijasida Buxoro bilan Rossiya o`rtasidagi munosabatlarni ilmiy ravishda tekshirib chiqib, rus olimlarining (Jukovskiy, Veselovskiy, Ulyanitskiy va boshqalarning) ilgaridan hukm surib kelgan fikrlariga qarama-qarshi o`laroq Rossiya bilan Buxoro o`rtasida bo`lgan munosabatlardan asosiy

maqsad, diplomatik aloqa tuzish emas, balki ko'pincha savdo ishlari ekanligini hamda Buxoro tomonidan tuzilgan elchixonan ham, shuningdek Rossiya tomonidan tuzilgan elchixonan ham Rossiya va Buxoroda bo'lgan vaqtlarida asosan savdo ishlari bilan shug'ullanganliklarini, hattoki elchilarning o'zlarini ham bu ishga bosh qo'shganliklarini va elchilar orasida odatda savdogar kishilar ham bo'lganligini, bu kishilar elchixonada ishlashdan foydalanib turib savdo ishlari bilan shug'ullanganliklarini aniqlangan. Bundan tashqari, XVI-XVII asrlarda Buxoro bilan Rossiya o'tasidagi munosabatlarni o'rganish bilan shug'ullangan olimlarning Rossiya Buxoro bilan yaqin munosabatda bo'lishni xohlagan emas, bu munosabatlardagi tashabbus Buxorodan chiqqan. Moskva davlati Buxoro elchixonasiga keraksiz tashvish, deb qaragan, degan qarashlari mutlaqo noto'g'ri ekanligi aniqlandi. So'nggi ma'lumotlardan ma'lum bo'lishicha, Rossiyaning Buxoroga bo'lgan munosabati tamomila xayrxohlikdan iborat bo'lgani, o'zaro munosabatlardan har ikki tomon ham manfaatdor bo'lgan.

XVI-XVII asrlarda Buxoro bilan Rossiya o'tasidagi savdoning uchta asosiy ko'rinishi bo'lgan:

1. Mahalliy hunarmandlar ishlagan va keng iste'molga ketadigan arzon va turli nav mollar bilan savdo-sotiqligini qiladigan "erkin" kupleslar savdosи.

2. Rus podsholari va Buxoro xonlarining elchixonalardagi josuslari orqali yuritilgan savdosi.

3. Podsho bilan xon o'tasida tovar ayirboshlashdan iborat bo'lgan savdo.

Ivan Grozniy davridan boshlab, ya'ni Qozon va Astraxan xonliklari Moskva davlati tomonidan bosib olinganidan keyin, uning chegarasi O'rta Osiyoga yaqinlashgach, O'rta Osiyo xonliklari – Buxoro, Xiva xonliklari bilan Rossiya o'tasidagi savdo-sotiqligini munosabatlari muntazam shaklga kirib mustahkamlandi, shu bilan birga bu munosabatlarning shakllari ham o'zgarib turdi.

Buxoro va Xiva savdogarlar o'z mollarini keltirib sotadigan Astraxan Moskva davlatiga qarashli shaharga aylangandan keyin Buxoro va Xiva xonliklari qudratli davlat bo'lgan Moskva davlati bilan mo'tadil savdo-sotiqligini va diplomatik munosabatlarni o'rnatishga intilishi o'z-o'zidan ma'lum va aniq bir hodisadir. Ammo Moskva davlatining ham O'rta Osiyo xonliklari bilan savdo-sotiqligini munosabatlarni rivojlantirishga harakat qilishi tarixiy zaruriyat orqasida vujudga keldi. Moskva davlati diplomatik munosabatlar bilan bir qatorda O'rta Osiyo

xonliklari bilan savdo-sotiq munosabatlarini ham kuchaytirishga harakat qildi. Bu hodisa o'z atrofiga boshqa rus yerlarini birlashtirgan Moskva davlatining ichki iqtisodiy taraqqiyoti natijasida yuz berdi.

XVI asr oxiriga kelib, Moskva davlatida hunarmandchilik ancha o'sib rivojlandi, hunarmandlar feodal xo'jaligining ehtiyojlari uchun uning qaramog'ida ishlabgina qolmasdan, balki turli hunarmandchilik sohalarida ixtisos orttiradilar, bozor uchun ishlab chiqaradilar, feedallar multidan shahar atrofiga va shaharning o'ziga kelib o'msha boshlaydilar.

Moskva davlatida turli-tuman ixtisoslarni o'z ichiga olgan ikki yuz choqli har xil kasb egalari bor edi. Shu bilan birga hunarmandlik ishlari juda mayda ixtisoslarga bo'lingan edi. Ayrim qishloq va shaharlar aksari ma'lum bir hunar egalarini birlashtirar va alohida buyum ishlab chiqarish bilan nom chiqarar edilar. Chunonchi, Smolensk shahri mato ishlab chiqarish bilan shuhrat qozongan, Vyazma shahri chana, Tver shahri hunarmandlari yog'och idishlar yasash bilan mashhur edi. Chet o'lkalarda, ayniqsa O'rta Osiyoda bunday buyumlarga talab katta edi. Hunarmandchilikning ixtisoslashishi va rivojlanishi munosabati bilan Moskva davlati shaharlarining xususiyati ham o'zgardi. XVI asrda savdo-sanoat markazlarida bozorlar odatda har bir mol uchun ayrim rastalarda bo'lar edi. Moskvadagi bozorlarda maxsus mol sotadigan rastalar behisob edi. Masalan, charmfurushlik rastasida yana etikdo'zlik, kovushdo'zlik va tagcharm rastalari ham bo'lar edi. Yagona davlatning ko'p shaharlarida yarmarkalar paydo bo'ldi. XVI asrda bu yarmarkalar juda katta ahamiyat qozondi va buyuk mamlakatning uzoq hududlarini iqtisodiy jihatdan birlashtirdi hamda turli viloyatlarning tovarlarini Moskva davlatining bir burchidan ikkinchi burchiga olib borib sotish uchun imkon berdi. Yarmarkalarga turli joylarning hunarmandlari tomonidan ishlab chiqarilgan xom-ashyo va mollar bilan juda ko'p savdogarlar borardilar.

Manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, Rossiya va Turkiston xonliklari o'rtasidagi elchilik aloqalari asosan XVI asr o'rtalaridan boshlangan. Dastlabki Buxoro elchisi A'zam Aziz va Shayx Moskvaga 1558- yili kelgan. Keyingi elchi Muhammad Alini Abdullaxon II 1589- yili yorliq bilan yuborgan. Ammo uni Rus podshosi qabul qilmagan. Chunki elchi Muhammad Aliga berilgan yorliqda Rus podshohining unvoni noto'g'ri keltirilgan edi. Rus diplomatiyasi bunday noaniqliklarga katta e'tibor bergen. Ma'lumotlarga qaraganda, XVI asr birinchi yarmida rus davlatiga 13 ta Buxoro xonligi, 7 ta Xiva xonligi elchilari tashrif

buyurgan. Kelgan elchilarning eng asosiy vazifalari o'zaro savdo munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan edi.

Rus hukumati asosan Buxoro xonligi bilan diplomatik munosabatlar olib borishga katta e'tibor qaratgan. Ayni paytda Buxoro xonligi ham Rus davlati bilan aloqalar o'rnatishga intilgan. Jumladan, Ivan Grozniy hukmronligi davrida Moskvaga 5 ta Buxoro elchiligi kelgan edi. Ammo Rus davlatidan Buxoro va Xivaga yuborilgan elchilar soni ancha kam edi. Chunki Turkiston xonliklarida Rus davlati elchilariga doimo shubha bilan qaraganlar. XVI asr ikkinchi yarmidan XVIII asr boshlariga qadar Buxorodan Moskvaga kelganiga nisbatan Rossiyadan Buxoroga uch barovar kam elchilik jo'natilgan edi.

Turkiston xonliklari va Rus davlati munosabatlarda an'analar sintezi davri sifatida XVI-XVII asrlar e'tirof etilgan. Rossiya dvoryanchiligini shakllanishida tatar nasabdorlarining roli katta bo'lган. Vaqt o'tishi bilan o'zaro munosabatlarda sharqona an'analar chuqurroq ildiz ota boshladi.

2. Tomonlarda elchilarni qabul qilish marosimlari. Sharq xalqlari va Rossiya o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, xususan rus diplomatiyasining rivojlanishida ma'lum bir tarixiy an'analarga yondashilgani ko'zga tashlanadi. Masalan, S.V.Jukovskiy quyidagilarni ta'kidlaydi: "Elchilik taomili bo'yicha davlat nuqtai nazari va uzoq amallar ila elchilik marosimi ishlab chiqildi, u qariyb butunlay Osiyocha tartibda kechdi".

G'arbiy Yevropadagina elchilikka shunday katta ahamiyat berib, aqlii va ma'lumotli kishilarni elchi qilib tanlar edilar, deb o'ylash xato bo'lar edi. V. Leshkov o'zining "Qadimgi rus diplomatiysi" degan asarida Rossiya davlatida elchilarga naqadar katta ahamiyat berilganini ko'rsatib o'tadi. Elchixonada ishida qatnashish, qadimgi ibora bilan aytganda, "Ulug' ishni boshqarish" demakdir. Rus davlatida elchilarni uch tabaqaga bo'lar edilar: 1) ulug' elchi, 2) oddiy elchi yoki vakil, 3) choparlar. Faqat duma a'zolari bo'lgan boyarlar va zodagonlar ulug' elchi yoki vakil sifatida yuborilar edilar. Mansab darajalari pastroq bo'lgan bakovullar ham elchi qilib yuborilardi. Hatto kichik amaldorlar chopar qilib yuborilar, ular odatda elchixonalardan, vakolatxonalardagi ishlarga qatnasha olardilar. Choparlar o'zları yuborilgan hukmdorning javobini tinglashga huquqlari yo'q edi. Ular odatda o'z hukmdorlarining yorlig'ini olib kelib topshirardilar. Ulug' elchilar va vakillar "javob tinglash" huquqiga ega edilar.

Moskvadan jo`nab ketayotgan elchi odatda, avvalo, ishonch yorlig`i, ya`ni o`z elchiligin tasdiqlovchi va hukmdorning elchiga ishonishni iltimos qilingan qog`ozini olardi. Unda: “Elchining so`zi mening so`zim” deb yozilgan bo`lar edi. Ikkinchidan, elchiga “Dasturilamal” topshirilar, unda elchining qiladigan ishi, elchixonaning maqsad va vazifalari mukammal bayon qilinari edil, shuningdek turli holatlarda chet elda elchi o`zini qanday tutishi kerakligi ham ko`rsatilardi. Elchining o`zini qanday tutish haqidagi qoida juda mukammal yozilardi. “Dasturilamal” juda batafsil bo`lar, o`z podshosining obro`yini tushirmslik yo`llari ko`rsatilar, bunga esa juda katta ahamiyat berilardi. Elchiga safarda, podsho huzurida muzokara vaqtida o`zini qanday tutishi to`g`risida mukammal yo`l-yo`riq berilardi.

“Dasturilamal”da kutilmagan voqealar ham nazarda tutilardi. Chunonchi, elchi V.A.Daudovga va Yu.Qosimovga berilgan dasturilamalda basharti Buxoro yoki Xiva xonlari, biror sabab bilan qabul marosimiga rioya qilmasalar va elchilardan rus podshosining salomatligini so`ramasalar, elchilarning nima qilishlari ko`rsatilgan. Ularga xonlarni podshoning salomatligini so`rashga qanday qilib majbur etish to`g`risida maslahat berilgan.

Elchidan, odatda, o`z safari to`g`risida mukammal ma`lumot be`ishni talab etilar edi. Elchilar odatda, o`z elchikonalari to`g`risida aniq hisobot berar edilar. Bu hisobot ehtiyyot qilib saqlanar va o`sha hisobotni podshohga topshirar edilar.

O`sha zamondagi odatlarga muvofiq, chet mamlakatda elchilar muayyan huquqqa ega edilar. Bu huquqlarni elchilarning o`zları ham, ularni yuborgan podsho ham har jihatdan himoya qilardi. Buni biz mehmondo`stlik qoidalarini buzganlik to`g`risida almashishingan yorliqlardan aniq bilamiz. Elchi o`zi yuborilgan mamlakat saroyida rioya qilinishi lozim bo`lgan asosiy talablardan biri – o`z hukmdorining vakili sifatida o`ziga bo`lgan munosabatidir, ya`ni qabul marosimida maxsus takalluf bo`lishini talab etar, agar qabul marosimida boshqa davlatlarning elchilari ham hozir bo`lsalar, o`z podshosining obro` va martabasiga qarab joy egallashi lozim edi.

So`ngra elchi o`zi yuborilgan hukmdor mamlakatida o`zi va hamrohlari uchun ozuqa talab qilishga, shuningdek o`zi, hamrohlari olib kelgan podsholik mollari va o`ziga qarashli buyumlari uchun ulov talab qilishga haqli edi. Bundan tashqari elchi o`z shaxsini va molining xavfsiz saqlanishini talab qilishga va o`zi keltirgan mollarning boj-xirojidan xorij bo`lishini talab qilishga haqli edi.

Sovg'alarmi, odatda, elchilarning o'zi qabul marosimida o'z qo'li bilan topshirar va maxsus saroy amaldorlari tomonidan e'lon qilinib turilardi, shu bilan birga elchiga bu sovg'alarmi xonning o'zidan boshqa hech kimga bermaslik uqtirilardi.

Yorliqlarni va sovg'a-salomlarni topshirish elchilar tomonidan podsho dasturilamalini bajarishda asosiy o'rinni tutardi.

V.V. Bartold o'zining "XVII asrda o'zbek xonlari saroyida qabul marosimlari" degan kitobida Mahmud ibn Valining 1634–1640 yillarga doir "Bahrul asror fi manaqibul ahyor" nomli qo'l yozmasidan foydalanib, shu marosimlarni tasvirlaydi.

Bu qo'l yozmada xonlar saroyidagi barcha mansab va amal egalari va ularning vazifalari mukammal ko'rsatiladi va ayrim mansablarni kimlar egallashi mumkinligi belgilanadi.

Buxoro xonining o'ng tomonidan ko'ra, chap tomonidagi joy faxriy o'rinni hisoblangan. Bayramlar, ziyofatlar va elchilarni yoki bir shahzoda yoinki boshqa bir kimsani qabul qilish marosimida eng faxriy o'rinni, odatda, yasovulboshi egallar edi. Yasovulboshining vazifasi boshqa hukmdorlar, sultonlar, elchilarning sovg'alarini podsho oldidan olib o'tar va ularning arzlarini podshoga og'zaki bildirardi. Yasovulboshi rus podsholari saroyidagi duma amaldorining vazifasini bajarardi. Yasovulboshidan so'ng so'i eshik og'aboshi, undan keyin miroxo'r, shig'ovul, mirzaboshi, so'ngra xazinador o'tirar edilar. O'ng tomonni o'ng eshik og'aboshi, o'ng qo'l vazirlari ishg'ol qilardi. Taxt orqasida qo'rchi (soqchi) turardi. Qo'rchilar orqasida qo'shbegi, uning orqasida chehra og'asi turardilar. Bu keyingi vazifada burungi vaqlarda to'rt kishi turardi. Hojiblar (saroy xizmatkorlari) eng keyindagi o'rinni ishg'ol qilardi.

O'zbek xonlari saroylarida ajnabiylar qabul qilish tartibi rus podsholari saroyidagi singari maxsus qoidaga muvofiq o'tkazilar va ko'p jihatdan Moskva saroylaridagi qabul marosimlariga o'xshab ketar edi. Farqi shunda ediki, xon elchilarni aksari saroy ichida emas, balki bog'da qabul qilardi. Bunga o'sha mamlakatning iqlimiylar sharoitlari sabab bo'lsa kerak.

Elchini olib kelish uchun odam yuborilardi. Masalan, rus elchisi Ivan Danilovich Xoxlovni xonning huzuriga boshlab kelish uchun o'shandan sal ilgari Moskvaga elchi bo'lib borib kelgan odamni yuborgan edilar. Moskvadagi qoida singari elchi uchun ot-ulov yubormas, yoki yuborsalar ham elchining qattiq talabidan keyingina va rus podshosi Buxoro elchisi uchun doim ot yuborardi, deganidan

keyingina yuborardilar. Elchining shunday talabidan keyingina xonning otxonasidan ba'zida ulug' elchi uchungina bitta otni yasatib chiqarilardi. Hamrohlari esa o'zлari uchun ot topishlari kerak edi. Elchi kelishi bilan unga xon taxtining ro`parasidan uzoqroqdan joy ko`rsatilardi. So`ngra shig'ovul oldinga chiqib xonga elchi yuborgan hukmdorning arzini yetkazar va u yuborgan sovg'a-salomlarni ma'lum qilib ko`rsatardi. Keyin u bir necha qadam orqaga tisarilib elchining salomini aytar edi va hokazo. Elchi esa bu vaqtida qabul marosimi boshida ko`rsatilgan joydan qimirlamay o'tirardi.

Sovg'a-salomlar ko`rsatilib, so`rashib bo`lganlardan keyin elchi oldiga uning martabasiga qarab ikki amaldor ikki tomonidan kelar va uning qo`ltig'idan olib, taxt oldiga olib boradilar.

Bu marosim xonlar saroyida qadimdan beri davom etib kelardi. Bu to`g'rida R.G. de Klavixo ham Amir Temur saroyida elchi qabul qilish marosimi to`g'risidagi hikoyasida bayon etadi.

Elchini taxt oldiga olib kelganlardan keyin u to`xtab sukut qilib turar, xon esa uning yelkasiga qo`lini qo`yar, shundan keyin saroy ahllari elchini qurshab uni xon ko`rsatgan joyga eltib o`tqizar edilar.

Yuqorida ko`rsatilib o`tilganicha, elchining yelkasiga qo`l qo'yish marosimi Moskva saroyida ham, faqat g'ayridin davlatlarining elchilariga nisbatangina bajo keltirilardi. G'arbiy Yevropa elchilari, odatda, Moskva podshosining qo`lini o`par edilar.

Qabul marosimi vaqtida rus podshosining taxi yonida, odatda, oltin dastsho'y va suvlik oltin ko`za, sulgi bo'lardi. Musulmon elchisi yelkasiga qo`lini tegizgandan keyin podsho o'sha zamon qo`lini yuvardi.

O'zbek xoni esa qaysi dindan bo`lishidan qat'i nazar, elchining yelkasiga qo`lini qo`yaverardi.

Xon qo`lini tegizib elchi o`ziga ko`rsatilgan joyga o'tirganidan keyin xonning savolini kutar va ularga javob berardi. Savol-javob tugagandan keyin saroy ahllari dasturxon tuzar, elchi esa o'rnidan qo`zg'olardi. Bakovul elchi uchun saroydan tashqariga ziyofat hozirlardi. Ammo bu odatga har qachon rioya qilinavermagan.

XIX asrga kelib Buxoro amirligi saroyida elchilarni qabul qilish marosimi bir qator o`zgargan va avvalgi yozma qoidalarga yangiliklar kiritilgan. Jumladan, elchi olib kelgan chet hukmdorining maktubi kichik inoqqa topshirilar, u xatni ochib, amirning buyrug'i bilan o'z hukmdorining shaxsiy kotibi – munshiga topshirar, u esa baland ovozda uni o'qib eshittirar edi.

Qabul marosimi qoidalarini o'zaro muhokama qilish tajribasining qo'llanilgani shunday yangiliklardan biri bo'lgan. Jumladan, 1820- yili Rossiya imperatori Aleksandr I (1800-1825) Buxoro amiri Haydar (1800-1826) saroyiga yuborgan rasmiy elchisi A.F.Negrini qabul qilish ikki tomonga maqbul bo'lishi uchun uzoq muhokama va munozara qilingan edi. Rossiya diplomatiyasi o'z talablarini yirik davlat nuqtai nazaridan qo'ygan bo'lsa, Buxoro hukumati teng huquqlik davlat sifatida e'tirof etilishi ko'zda tutar edi.

Buxoro amirligida Rossiya elchisini qabul qilish marosimi qoidalariga kiritilgan o'zgartirishlar Buxoroning yirik davlat bilan diplomatik aloqalarini kengaytirishdan manfaatdor ekanligidan darak beradi hamda muayyan bir darajada ehtiyyotkorlik mavjudligini ham ko'rsatadi.

3. XVIII-XIX asr boshlarida Buxoro amirligi va Xiva xonligining Rossiya bilan elchilik munosabatlari. Elchilar va elchilik missiyasi a'zolari nozik psixolog va kuzatuvchi, geograf, etnograf, tarixchi, publisist kabi xislatlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi lozim edi. Elchilardan ular borgan mamlakatning nafaqat saroy hayoti, hukmron doiralari va ularning rejalarini to'g'risida, balki o'sha mamlakatning xalqi, shaharlari, xo'jalik turlari, siyosiy tuzumi, iqtisodi, ichki nizolari va boshqa ma'lumotlarni yig'ishi talab etilgan. Shu tufayli ham elchilik missiyalari bu davrda o'zaro siyosiy-iqtisodiy aloqalarda muhim o'rinni tutgan.

Yuqoridagi vazifalarni bajarish O'rta Osiyo va Rossiya o'rtasidagi elchilik aloqalarida ham ko'zga tashlanadi. Abdullaxon II tomonidan 1585- yilda Muhammad Ali boshchiligidagi, 1589- yilda Do'stum boshchiligidagi Moskvaga yuborilgan. Elchilar Moskva hukmdori tomonidan iliq kutib olingen. Bu ikki elchilik oldiga o'rtasidagi savdosotiq munosabatlarini tartibga solish vazifasi yuklatilgan edi. Elchilar Rossiya podshosi Fyodor Ivanovichga Abdullaxon II ning buxorolik savdogarlar uchun Moskva davlatidagi barcha shaharlarda erkin savdo qilish imkoniyatini yaratish, Qozon va Astraxanda doimiy bozorlar ajratish iltimos qilingan xatini keltingan. Rus podshosi bu iltimoslarni to'liq bajarganligi o'sha davr hujjatlarida o'z aksini topgan.

Buxoro va Rossiya o'rtasidagi do'stona aloqalar XVI asr oxirida, xususan Sibir xonligining ruslar tomonidan bosib olinishi tufayli biroz buzilgan bo'lsada, amaida butunlay to'xtab qolmadidi. 1589- yili Moskvada bo'lgan Buxoro elchisi Do'stum orqali Abdullaxon II ruslarning Sibir xonligidagi tajovuzini qoralagan va o'z noroziligini

bildirgan edi. 1589- yildayoq Buxoroga tatar millatiga mansub Boybo'ri Toychiev boshchiligidagi Moskva elchilar keladi va buxorolik savdogarlarga Sibir shaharlarida katta imtiyozlar yaratishga rus hukumati tayyor ekanini bildirib, ikki o'rtadagi siyosiy kelishmovchiliklarni biroz yumshatishga erishdi.

XVII asrda Buxoro va Moskva davlati o'rtasidagi elchilik aloqalari yanada rivojlandi. Mazkur davrda Buxoro va Xiva elchilar 26 marta Moskvaga tashrif buyurgan bo'lsalar, rus elchilar 9 marta Buxoro va Xivaga kelganlar. Masalan, 1619- yilda Imomqulixonning Odambiy boshchiligidagi elchilar Moskvada, Rossiya podshosi, Romanovlar sulolasining birinchi vakili Mixail Fyodorovich huzurida bo'ldi. Bu elchilik missiyasiga javoban podsho Mixail Fyodorovich tomonidan Ivan Danilovich Xoxlov boshchiligidagi elchilar Buxoroga jo`natiladi. Lekin bu elchi Buxoroda ushlanib qolganligi va quruq qo'l bilan qaytarilganligi uchun Sibir (Tyumen shahri) orqali 1622- yilda Tobolskka kelgan va Moskvaga borishni mo`ljallagan Buxoro elchisi Balik Chobakov sovuq kutib olinib, rus podshosining Imomqulixonga yozgan xati bilan Buxoroga qaytarib yuborilgan. Bu xatda rus podshosi o'rtadagi aloqalarni davom ettirishni taklif etib, elchilarni Moskvaga uzoq Sibir orqali emas, Astraxan orqali yuborishni taklif qilgan.

1716- yil fevralda Buxoro xonligi elchisi Xonquli to'pchiboshi Astraxanga keldi. U bilan birga savdogar Asan bobo, ikki yasovul, xotini va bolalari ham kelgan edi. Buxoro xoni Abulfayzxon Rossiya podshosi Pyotr I ga 36 nafar rus asirlarini ham ozod qilib yuborgan edi. Buxoro xoni Astraxan ober-komendanti Chirikov nomiga yozilgan yorliqda o'zaro yaxshi qo'shnichilik aloqalari va savdo-sotiq aloqalarini davom ettirish maqsadida elchi yuborayotganini bildiradi. Shuningdek, ushbu elchilik orqali Rossianing Kaspiy dengizi sharqiy qirg'oqlarida shahar-qal'alar qurish rejasini qo'llab-quvvatlashini ham bildiradi. Demak, Buxoroda Pyotr I tomonidan Kaspiy dengizi qirg'oqlarida qal'a istehkomlar qurilayotgani haqida xabardor bo'lganlar.

1716- yil 16- martda Pyotr I tomonidan Abulfayzxon nomiga yozilgan yorliqda A.Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasi "Rossiya davlati va Buxoro xonligi uchun umumiy manfaatlarga asoslangan zarurat" tufayli yuborilganligi va shuning uchun ham A.Bekovich-Cherkasskiy hurmatini joyiga qo'yishni so'ragan. Ushbu yorliqni A.Bekovich-Cherkasskiy Xiva missiyasini yakunlagach, Buxoro xoniga yetkazishi ko'zda tutilgan edi.

1716- yil aprelda A.Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiya tayyorgarligini ko`rish jarayonida Astraxanda Buxoro elchisi Xonquli to`pchiboshi bilan uchrashgan va bu to`g`rida Pyotr I ga xat yozgan. Unda Xonquli to`pchiboshining iltimosiga ko`ra, Rossiya dushmanlikda, Turkiya bilan aloqada deya gumon qilinayotgan buxorolik va xivalik asirlarni ozod qilishni so`ragan. Bu paytda Pyotr I Sharqiy Prussiyada edi. Xatni olgan Pyotr I uning iltimosini qondirmagan. Biroq A.Bekovich-Cherkasskiy Xonquli to`pchiboshiga buxorolik va xivalik asirlarni ekspeditsiya yakunlangandan so`ng ozod qilishga va`da bergen.

Buxoro elchisini Rossiya poytaxtida kutib olish va qabul marosimlari ham o`ziga xos tarzda amalga oshirilgan. Buxoro elchisi Peterburgga oz masofa qolganda tashrif bo`yicha ruxsat berilishini kutib to`xtashi lozim edi. Beigilangan kunda elchi va uning hamrohlari uchun uchta kareta¹ yuborilgan. Rossiya devonxonasi vakili elchi va uning hamrohlarini sog`-salomat yetib kelganlari bilan qutlagandan keyin o`zini senatorlar tomonidan kutib olishga yuborilganini hamda mehmonlarni ajratilgan joyga qadar kuzatib qo`yishini bildirgan. Qabul qilingan tartibga ko`ra, kelgan elchi va uning hamrohlari Rossiya devonxonasi vakilini tik turgan holda eshitishlari, unga minnatdorchilik bildirishlari, shoh va vazirlar salomatligini so`rashlari kerak edi. Bir ozdan keyin elchi Rossiya devonxonasi vakili bilan birinchi karetaga, Buxoro savdogari va rus amaldori ikkinchi karetaga, oxun va tilmoch uchinchi karetaga o`tirishgan. E`chilik sekinlik bilan yura boshlagan, chunki birinchi kareta yonida tilmoch ham yurib, elchi Rossiya devonxonasi vakili bilan suhbatlashib ketgan. Elchini poytaxtga kirib kelishi bilan uni yo`ning ikki tomonida juda ko`p miqdordagi olamon, piyoda askarlar polki to`plar yonida saf tortib kutib olganlar.

Buxoro elchisi Xonquli to`pchiboshi 1717- yil 26- iyunda Peterburgga yetib kelgan bo`lsa-da, uni qabul qilish 3- iyluga beigilangan. Senatorlar tomonidan qabul qilingan Xonquli to`pchiboshiga Buxoro xonining maktubini topshirishi so`ralganida u qat`iylik bilan “Yorliqni xonning xohish-irodasiga ko`ra, shaxsan podshoh Pyotr I ga topshiriladi”, degan. Shu boisdan ham Xonquli to`pchiboshini Pyotr I poytaxtga qaytganidan so`ng 1717- yil 20- oktabrda qabul qilgan. Pyotr I bilan uchrashuv uchun elchiga Rossiya devonxonasi o`rnbosari Shafirov karetasi, savdogar Asan boboga esa senat kotibi kretasini yuborilgan. Buxoro elchisi sovg`a-salomlarini 12 nafar askarlar ko`tarib borgan. Bu

¹ To`rt g`ildirakli yengil soyabonli arava - mualliflar.

tantanali jarayonni kuzatishga chiqqan aholi ko`chalarni to`dirib yuborgan. Abulfayzxonning sovg'asidan tashqari qabul tartib-qoidasiga ko`ra elchi va savdogarning ham alohida sovg'alari topshirilgan. Sovg'alar ichida eng qimmatbahosi sifatida Buxorodan ozod qilib yuborilgan rus qullari e'tirof etilgan. Qabul Senatning yuqori palatasida bo`lib, eshik ro`parasidagi baland joyda Pyotr I tik turgan holda elchini qabul qilgan. Elchi eshikdan kirib, tiz cho`kkan va xon nomidan egilib salom bergan. Xonquli to`pchiboshi Pyotr I ni shvedlar ustidan qozongan g`alabasi bilan qutlagan hamda sovg'alarmi topshirgan. Shundan so`ng Xonquli to`pchiboshi "Ishonch yorlig'i"ni topshirgan. "Ishonch yorlig'i"ni Pyotr I ning ishorasi bilan devonxona o`rbinosari Shafirov qabul qilgan. "Ishonch yorlig'i"da Abulfayzxon Xonquli to`pchiboshi elchi sifatida yuborilgani, u Rossiya urf-odatlarini yaxshi bili², Buxoro hukumati o`zaro yaxshi qo'shnichilik munosabatlari hamda savdo-sotiqni rivojlantirishdan manfaatdor ekanligi ta`kidlangan. Yorliqdan tashqari podsho nomiga yozilgan xat ham bitilgan bo`lib, unda Astraxanda buxoroliklar asilda ekanligi, Buxorodan ozod qilib yuborilgan 36 nafar rus qullari evaziga ularni ozod qilish so`ralgan edi.

Bu paytda Rossiya poytaxtida Xivaga yuborilgan A.Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasining halokatidan xabardor edilar. Shu bciidan ham Xonquli to`pchiboshi graf Gavril Ivanovichga xat yozib, mazkur qirg'inbarotga Buxoro davlatining hech qanday aloqasi yo`qligini, aksincha Abulfayzxondan maktub olgan bo`lib, unda xon Xivaga rus asirlarini ozod qilish bo`yicha sa'y-harakatlar qilayotgani, Agarda Xiva xoni asirlarni ozod qilmasa, Buxoro davlati urush qilishga ham tayyor ekanligi yozilganini qayd etgan.

Xonquli to`pchiboshi elchiligi Buxoro xonligi va Rossiya davlati o`rtasida savdo-sotiqni rivojlantirish borasida ham yutuqqa erishgan. Jumladan, Pyotr I shu yili Buxoro xonligi tovarlaridan rus shaharlarida boj olmaslik haqida farmon bergen.

Xonquli to`pchiboshi elchiligi 1718- yil martga qadar Peterburgda bo`lgan. Elchilik ortga qaytishida Astraxanda ma`lum muddat ushlab turilgan. Chunki Pyotr I asli kelib chiqishi italiyalik bo`lgan Florio Benevenini elchi qilib tayinlab, Buxoroga birgalikda borishiga qaror qilgan edi.

² Buxoro xonligi elchisi Xonquli to`pchiboshi aslida rus millatiga mansub bo`lib, o`z paytda asirga tushib qolgan va Buxoro xoni Abulfayzxon tomonidan sotib olingan. Sadoqatli xizmati uchun xon uni to`pchiboshi (bosh qo'mondan) lavozimiga ko'targan edi - mualliflar.

Rus elchiliginin Buxoro xonligiga yuborishga sabablardan biri Abulfayzxonning ushbu masalada o'z elchisi Xonquli to'pchiboshi orqali murojaati edi.

Pyotr I dastlab o'z javob xati-yorlig'ida, 1718- yil 18- martida Buxoroga elchini "Astraxandan Buxoroga bermalol borish" imkoniyati bo'lganda yuborishini qayd etgan edi. Ammo Xonquli to'pchiboshi elchiligin Astraxanga qaytishiga qadar, ya'ni 1718- yil 5- iyuliga qadar Rossiya hukumati rejalar o'zgarib, Rossiya elchisini Buxoroga Xonquli to'pchiboshi bilan birga yuborishga qaror qilgan. Shu maqsadda fors va turk tillarini biladigan F.Benevenini Buxoroga elchi qilib jo'natishga qaror qilingan. Ushbu elchilik bilan shaxsan Pyotr I va uning yaqin yordamchilarini shug'ullangani podsho hukumatining bu elchilikka alohida e'tibordan dalolat beradi. 1718- yil 9- iyulda Pyotr I imzosi bilan tasdiqlangan "Ishonch yorlig'i"da F.Beneveni elchi tariqasida yuborilayotgani, do'stlik va umumi manfaatlar yo'lidagi sa'y-harakat ekanligi tasdiqlangan. F.Beneveni elchiliginning asosiy tarkibi 8 nafar bo'lib, shuningdek xizmatkorlar hamda ko'pgina harbiy qo'riqchilar kuzatuvida edi. Mazkur elchilikdan ko'zlangan maqsad va vazifalar 1718- yil 13- iyulda G.Golovkin va P.Shafirovlar tomonidan imzolangan, 7 banddan iborat quyidagi maxfiy yo'riqnomada o'z aksini topgan edi:

1. Elchi etib tayinlandi. Astraxanda Buxoro elchisiga qo'shilib, tayinlangan mamlakatga birgalikda jo'nash.

2. Yo'lda, ayniqsa Buxoro xonligi hududida, hamma iqtisodiy va geografik o'ziga xosliklarni eslab qolish. Buxoroliklarga sezdirmagan holda Kaspiy dengizi ulardan qaysi tomonda joylashgani, qanaqa kemalarga egaligi, shaharlar va ularning mudofaa qobiliyatini aniqlash.

3. Diplomatik qoidalarga rioya etilishini qat'iy ta'minlash. Pyotr I shon-sharafiga ziyon yetkazmaslik. Elchini qabul qilish odatlarini so'rab-surishtirish va Buxoro xonligi Eron elchiligiga qanday izzat-ikrom ko'rsatsa, Rossiya elchiligiga ham undan kam bo'limgan hurmat ko'rsatilishi talab qilish hamda unga erishish.

4. Buxoro xonligi harbiy-siyosiy strategiyasiga jiddiy e'tibor qaratish. Qal'alar, undagi qo'shinlar miqdori, harbiy qo'shinlar tarkibi va ularning holatini aniqlash.

5. Buxoro xonligining ichki va tashqi holatini aniqlash. Xonning kuch-qudratini, xalq ustidan nazorati qay darajada ekanligi, aholisi qo'zg'olon va isyonlarga moyil yoki moyil emasligi, boshqaruv shakli, Eron, Xiva va Turkiya bilan o'zaro munosabatlарini hamda qaysi

tornondan harbiy tahdid borligi, qaysi davlat bilan do'stona munosabatda ekanligini aniqlash. Elchi mumkin qadar ko'proq Buxoro xonligi tashqi siyosatiga ta'sir o'tkazishi zarur.

6. Rus – Buxoro savdo munosabatlarini rivojlantirish imkoniyatlari o'rganish zarur. Buning uchun buxoroliklar qanaqa tovarga ega va ularni qayerga sotishini, Buxoro bozorlarida Rossiyaning qaysi mahsulotlariga ehtiyoj borligini aniqlash, ko'chmanchilar hujumi xavfi bor-yo'qligini o'rganish.

7. O'rta Osiyoda oltin qazib olish haqidagi ma'lumot to'g'ri yoki noto'g'riliгини aniqlash. Qaysi daryolarda oltin borligi, qancha miqdorda oltin olish imkoniyati borligi, kon yoniga borish mumkinligini aniqlash. Shuningdek, maxfiy tarzda Buxoro xoniga qo'riqlash uchun bir necha yuz yoki undan-da ko'proq miqdordagi rus kishilaridan iborat gvardiya taklif qilish. Maqsadlarni amalgalashish yo'lida Xonquli to'pchiboshi va uning odamlari bilan do'stona aloqada bo'lish.

Umuman olganda, F.Beneveni elchiligidagi yuklatilgan vazifa Rossiyaning O'rta Osiyodagi siyosatini, xususan A.Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasi zimmasidagi vazifani davomi edi.

Elchilik Buxoroga 1721- yili yetib keldi. F.Beneveni zimmasiga Turkistonga oid harbiy va diplomatik ma'lumotlar yig'ish, ayniqsa Xivaga qarshi Rossiya – Buxoro ittifoqini tashkil etish, bu xonliklar bilan urush bo'lgan taqdirda qancha askar va to'plarni ishga solish mumkinligi, ularning joylashgan yerlarini aniqlash vazifasi yuklatilgan edi. Shuningdek, u Buxoro xoni Abulfayzxonga maxsus rus otryadini taklif etishi hamda Turkiston o'lkasida oltin zahiralari mavjud joylarni o'rganishi lozim edi. F.Beneveni Buxoroda 1721-1724- yillari faoliyat ko'rsatib, Buxoro xonini Xiva xonligini qo'llab-quvvatlamaslikka ko'ndiradi. F.Beneveni elchiligi xodimi N.Miner savdogar niqobi ostida bir necha bor Hirot, Balx va Badaxshonga borib keladi. U amalda elchi F.Benevenining topshirig'ini bajarib, to'plagan ma'lumotlarini Peterburgga yetkazish ishlari bilan ham shug'ullangan.

Mazkur davrda Buxoro amirligi va Rossiya o'rtasidagi elchilik aloqalarida buxorolik Ernazar Maqsudov alohida o'rinn tutadi. 1761-yilda savdo karvoni orqali kelgan E.Maqsudovga elchilik talablariga rioya qilinmagani bois Orenburgdan Peterburgga borishga ruxsat berilmagan. 1774- yilda yana u elchi sifatida kelganida Peterburgga qadar borishga muvaffaq bo'lgan va Rossiya imperatritsasi Yekaterina II qabulida bo'lgan. Manbalarda qayd etilishicha, E.Maqsudovning mohir diplomatligi tufayli Rossiya imperatritsasining hurmat-e tiboriga

sazavor bo`lgan. Uning 1780- yilgi elchi sifatidagi tashrifi chog`ida Peterburgda yuqori darajadagi e`tibor bilan qabul qilingan. 1780- yil 18- avgustida Rossiya imperatori Buxoro amiriga yozgan xatida Rossiya ilgarigidek Buxoro bilan o`zaro munosabatlarni tinch-totuvlikka asoslangan hollarda olib borish hamda savdo aloqalaridan har ikki tomon foydalanishi hamda so`ralgan metall bilan ta`minlanish qayd etilgan edi. Ammo yana Buxoro savdogarlariga nafaqat Orenburgda, balki Rossianing boshqa shaharlarda ham savdo qilish bo`yicha so`rovi qondirilmaydi. Chunki Buxoro savdogarlarining Rossianing markaziy shaharlarda erkin savdo qilishlari rus savdosi uchun zarar keltirishi qayd etilardi.

1780- yili rus savdogarlari istak va talablariga muvofiq Buxoroda savdo vakolatxonasini ochish maqsadga muvofiq deb topildi. Shu munosabat bilan Orenburgdan Buxoroga (yuqori darajadagi rahbariyat ruxsati bilan – mualliflar) 1780- yili Rossiya davlati va umumiy manfaatlaridan kelib chiqib, Buxoroda savdo vakolatxonasini ochish uchun M. Bikchurin boshchiligidagi maxsus elchilikni Orenburgdan Buxoroga yubordi. M.Bikchuringa yuklatilgan vazifalar qatorida Orenburg va Buxoro oralig`idagi yo`lni har tomonlama o`rganish ham bor edi. M.Bikchurin ko`zda tutilgan hamma vazifalarni bajargani holda, Buxoro amirining Rossiya savdo vakolatxonasini ochishga roziligin ololmay qaytdi.

Rossiya imperiyasi va Xiva xonligi o`rtasidagi diplomatik aloqalar Buxoro xonligiga nisbatan sustroq ahvolda edi. Xiva xonligi Rus davlatiga o`z elchilagini kamroq jo`natgan. 1750- yili Xiva xoni nomidan elchi bo`lib kelgan Ashurbek Orenburgda o`zini Peterburgga yuborishlarini so`ragan. Ammo tashqi ishlar davlat kollegiyasi 1750- yil 13- avgustida bergen topshirig`ida elchini Orenburgdan Xivaga qaytarish, yorlig`i va sovg`alarini tashqi ishlar davlat kollegiyasi ixtiyoriga topshirish buyurilgan edi. Chunki rus hukumati Orenburg general-gubernatorlarining Turkiston xonliklari va Rossiya o`rtasidagi o`zaro munosabatlardan xabardorligini hisobga olib, ularga turkistonlik elchilarni Peterburgga yuborish yoki yubormaslik masalasini mustaqil hal qilish huquqini berilgan bo`lib, ular ayrim elchilar masalasini Orenburgning o`zidayoq hal qilar edilar.

1761- yili Temirg`oz Is`hoq Tangriberdiyev Xivadan Orenburgga elchi sifatida yetib keladi. U bilan birga elchilik tarkibida yana 5 kishi bor edi. Elchi Tangriberdiyev boshchiligidagi elchilar bilan savdo karvonida 40 ta tuya yuk bo`lib, bu Orenburgdagisi yarmarkaga

mo`ljallangan edi. Xiva elchisi 1761- yil sentabrdan Orenburgga kelib, Peterburgda imperator bilan uchrashish xohishi borligini bildiradi. Uchrashuvdan maqsad tegishli yorliqni topshirish va o`zaro karvon savdosini rivojlantirish edi. Ammo elchiga Peterburgga yuborish bo`yicha ruxsat berilmaydi. Shu bilan birga Xiva savdogarlarini hech qanday to`sqliksiz Orenburgga kelishlariga ruxsat berilgan.

XIX asr boshlaridan Rossiya hukumati O`rta Osiyo xonliklariga nafaqat diplomatik, balki maxsus ilmiy ekspeditsiyalarni ham yubora boshladi. Rossiya elchiliklari tarkibida, endilikda arxeologlar, tarixchilar, vrachlar va boshqa mutaxassislar ham bor edi. Ularga nafaqat ilmiy vazifalarni bajarish, balki O`rta Osiyo to`g`risida u yoki bu ma`lumotlarni toplash ham yuklatilgan edi.

Ammo ayni paytda Buxoro, Xiva, Qo`qondan Rossiyaga nisbatan e`tibor faqatgina savdo munosabatlari qaratilishi davom etardi. Ayni paytda Rossiya hukumati savdo qatori O`rta Osiyonidagi tubdan o`rganishga kirishgan edi. O`zaro munosabatlardan tahlili shuni ko`rsatadiki, Buxoro va Rossiya, Xiva va Rossiya, Qo`qon va Rossiya o`rtasidagi munosabatlarda tenglik, sherikchilik alomatlari to`laqonli ishga tushmagan edi. Masalan, 1793- yili Orenburgga Buxoro amirligidan elchi bo`lib kelgan Shohmurod Fayzullabek Maqsudovni Peterburgga borib, imperator qabuliga yorlig`ini topshirishga ruxsat berilmadi. Bunga sabab qilib, elchiga berilgan yorliq diplomatik yozishmalar qoidasiga rioya qilinmaganligida deb ko`rsatildi. Ammo aslida gap boshqa yoqda edi... Buxorolik savdogar Do`strmuhammad Boykishev elchi Shohmurod Fayzullabek Maqsudovni Buxoro amirining josusi deb ma`lumot yetkazgan edi. 1795- yili Shohmurod Fayzullabek Maqsudovni Orenburgdan chiqarib yubordilar, chunki Buxorodan Eshmuhammad Boykishev elchi bo`lib kelgan edi. U imperatorga fil va yorliq keltirib, Buxoro amirining 600 pud mis sotib olish haqidagi iltimosini ham yetkazdi. Oradan bir yil o`tib, Orenburgga Buxorodan yangi elchi ya`ni Maxsum Doniyolov yorliq bilan kelgan. Ushbu elchi Buxoro amirining imperatoridan harbiy yordam berish bo`yicha iltimosini keltirib, xususan Buxoroga 10 ming qo`shin va 50 ta to`p berishlarini so`ragan. Ammo bu elchilik ham Orenburgdan Peterburgga o`tkazilmagan va Buxoroga qaytib ketishiga to`g`ri kelgan. Ammo shuni qayd etish lozimki, M. Doniyolovdan avvalgi elchi Eshmuhammad Boykishev Xo`ja Nazarboyev bilan Peterburgga borishga, imperator huzurida bo`lishga muvaffaq bo`lgan. Rossiya imperatori Buxoro amiri so`ragan 600 pud misni berishga qaror qilgan

va shuningdek, amirga bir sandiq kumushdan yasalgan oshxona anjomlari, otaliq va elchiga bir sandiqda kumushdan yasalgan choy idishlari hadya etilgan. Eshmuhammad Boykishev Orenburgda nafaqat elchilik, balki savdo ishlari bilan ham shug'ullangan. Bu yo'nalishdagi xizmatlari uchun Orenburg general-gubernatori G.S. Volkonskiy tomonidan oltin medalga tavsiya etilgan edi.

Rossiya hukumati O'rta Osiyo xonliklari bilan diplomatik aloqalarda o'z elchilarini musulmonlardan tayinlashga e'tibor qaratgan. Bunday holat o'zaro munosabatlarda muhim ahamiyat kasb etgan.

1799- yili Orenburgga birdaniga Buxorodan ikkita elchi - Ma'sumxon Mirza Abdurasul va mulla Miraloviddinlar kelishgan. Ularga Peterburgga borishga ruxsat berilgan. Elchilar Buxoro amiri Shohmurodning yorlig'ini impertorga topshirganlar. Unda Buxoro savdogarlariga taqiqlar ko'payib ketgani, xususan savdo karvonlarini Rossianing markaziy shaharlariiga borishiga ruxsat berilmayotgani qayd etilgan. Ammo bu shikoyat imperator tomonidan yana qoniqtirilmagan.

1801- yili Buxoro amiri Haydar E. Boykishevni Orenburgga yuborib, elchi tariqasida Peterburgda imperator qabuliga jo'natgan. Unga Peterburgga borishga ruxsat berilgan. Elchi tomonidan amiring Aleksandr I ni taxtga o'tirishi munosabati bilan yuborgan sovg'asi - beshta tulpor va tabrik maktubi keltirilgan. Amir Haydar yana Rossiya imperatoridan harbiy yordam berishlarini so'rab, ko'chmanchilardan himoya qilishga hamda Xivaga hujum qilish uchun kerakligi ta'kidlangan. Amir Haydar o'z maktubida Orenburgda savdo qiluvchi buxorolik savdogarlar uchun hayvon boqishga yer ajratishni, buxorolik fuqarolarga Makkaga hajga borishda imkoniyat berishni, buxoroliklarning Orenburgdagi uylarini harbiy qo'riqchilardan ozod qilishni so'rigan. Imperator huzurida bo'lgan elchi E. Boykishev ham o'z shaxsiy iltimosini izhor etib, o'g'li Xo'ja Nazarboyga maslahatchi mansabini berishini, qarindoshi Ashur Muhammadga kollej ro'yxatga oluvchisi mansabini berishlarini so'rigan. Aleksandr I amir Haydar iltimosini qondirish bo'yicha 1803- yil 3- martida Orenburg general-gubernatoriga buxoroliklarni Makkaga borishlariga monelik qilmaslik, ularga pasport berish, buxoroliklar hayvon boqishi uchun Ural bo'yalaridan qulay yaylov ajratish, savdogarlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha ko'rsatma bergen. Shuningdek, Buxoro amiriga qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan oltin soat va ikki to'p, uning vazirlariga chinni choy idishlari, 20 arshin parcha, 10 arshin movut va 5 arshin atlas

bergan. Berilgan yorliqda Buxoro amiri Haydarga o`zaro do`stlikni rivojlantirishni taklif qilgan holda, harbiy yordam masalasini javobsiz qoldirgan.

1803- yili Rossiyaga Buxorodan navbatdagি Mirgalauddin Mirmuhammad Aminov boshchiligidagi 25 kishidan iborat elchilik kelgan. Buxoro elchisiga Peterburgga borishga ruxsat berilgan. Orenburg general-gubernatori G.S.Volkonskiy Buxoro elchisini Peterburgga kuzatib borish uchun 16 kishini ajratgan. Imperatorga tortiq qilingan arg`umoqlar uchun ham 10 kishi jalb qilingan. Peterburgda elchi vitse kansler A.Chartoriyskiy tomonidan qabul qilingan. M. Aminov Orenburgdan 15 pud po`latni xarid qilishga hamda Buxoroga o`zi va boshqa amaldorlar Astraxanda uylangan tatar xotinlarini cib ketishga ruxsat so`ragan. Elchingin bu iltimoslari qondirilgan. Buxoroga qaytgan elchi M.Aminovni amir buyrug`iga asosan hibsga olingan va uni sotqinlikda ayblangan. Ma`lum tekshiruvlardan so`ng M.Aminov aybdor emasligi aniqlanib, ozod qilingan.

Buxoro amirining bunday harakatidan M.Aminov o`zini haqoratlangan hisoblab, ishonchli odamlari orqali rus imperatoriga Rossiya fuqaroligini qabul qilishini so`ragan va Rossiya uchun foydali ma'lumotlar berishini qayd etgan. 1810- yil 14- mayida Rossiya hukumati farmoniga binoan M.Aminov Simferapolda otliq tatar polkiga xizmatga qabul qilingan. Bunday holatlar ko`p marta sodir bo`lgan. Masalan, mansabdor maslahatchi Do`stmuhammad Boykishevning o`g`li Yoqub chegara komissiyasida tilmoch bo`lib, ruslarga xizmat qilgan.

O`zaro munosabatlarda o`ziga xos nozikliklar ham bor edi. Masalan, Orenburg general-gubernatori G.S.Volkonskiy 1807- yili Buxoroga yangi savdo, diplomatik ekspeditsiya yuborgan. Ushbu ekspeditsiyaga savdogar tatarlar - Ahmad Munasipov va Abdulnosir Subxonqulovlar boshchilik qilganlar. Ushbu elchilik ekspeditsiyasi bilan Buxoro amiriga sovg`alar qatori maktub ham bor edi. Orenburg general-gubernatori Buxoro amiridan qaysi tartibdagи yozishmalar orqali elchilarni qabul qilish bo`yicha o`zaro shartnomaga tuzish zarurligini taklif qilgan. Bundan maqsad o`zaro elchilar almashuviga, vakolatiga ishonch bo`lishi ko`zda tutilgan edi. Elchi tatarlar zimmasida yana Buxoro qo`shinlari ahvolini ham aniqlash ham yuklatilgan edi. Orenburgdan yuborilgan elchilar keltirgan maktub bilan tanishgan amir, elchilarni qabul qilishdan bosh tortgan. Chunki general-gubernatorni davlat boshlig`iga murojaati tenglikka asoslanmagan edi. Buxoro amirining

fikricha, “qadim zamondan hukmdor hukmdorga xat yozadi, vazir esa vazirga” aqidasisiga amal qilinishi lozim edi.

Shunday hollar ham uchrardiki, Rossiyaga Buxorodan keladigan elchilar amirning vakolatisiz, soxta yorliqlar bilan ham kelganlar. Masalan, G.Navro'zjonov va M. Muhammad Shariflar 1807- yili Orenburgga Buxoro amiri yorlig'i bilan elchi sifatida kelganlar. Ammo G.Navro'zjonov va M.Allayorovlarning yorliqlari soxta bo'lib chiqqan. Shundan keyin M.Allayorov tezda Buxoroga qaytgan. Ammo G.Navro'zjonov Buxorodagi qarindoshlariga xat yozib, unga haqiqatan ham Buxoro elchisi degan yorliq yuborishlarini so'raydi. 1807-1809-yillar davomida G. Navro'zjonov savdo ishlari bilan shug'ullanib turgan. 1809- yil boshlarida Orenburgga buxorolik savdogar S. O'zbekxo'jayev G.Navro'zjonovga yorliq olib kelgan. Ammo baribir G.Navro'zjonov elchi sifatida tan olinmay, 1811- yili Buxoroga qaytgan.

1809- yil 17- oktabrda Orenburgdan A.Subxonqulov va uning yordamchisi B. Rahmonqulov boshchiligidagi Rossiya elchiligi Buxoroga yo'l olgan. Ushbu elchilik zimmasiga kimlar va qaysi muddatga savdo uchun Buxoroga kelayotganini, amaldorlardan Amudaryo va Sirdaryoda kema qatnovini yo'lga qo'yishga xohish bor-yo'qligini aniqlash hamda Buxoro amiriga Rossiya imperatorining elchilar nomiga bergen yorlig'ini, tashqi ishlar vaziri N.P.Rumyansev va G.S.Volkonskiyning ikkita maktubini topshirishlari kerak edi. Shuningdek, A.Subxonqulov zimmasiga Buxoroga boradigan yo'l masofasi, dam olish joylari, turli xalqlar, xususan qoraqalpoqlarning Rossiyaga munosabatini aniqlash vazifasi ham topshirilgan edi. 1810- yil 28- yanvarda A.Subxonqulov Buxoro amiri Haydar tomonidan qabul qilingan. Amir Haydar Rossiya imperatori tashqi ishlar vaziri N.P.Rumyansevni, Orenburg general-gubernatori G.S.Volkonskiylarning tegishli tarzdagi yorliq va xatlari bilan tanishib chiqib, faqat imperatorga javob xati yozgan hamda qolgan xatlarga ham javob ushbu maktubda ekanligini ta'kidlagan. Buxorodan qaytgan A.Subxonqulov tomonidan yig'ilgan materiallar Davlat kengashi a'zolarida qiziqish uyg'otib, uni Peterburgga hisobot uchun chaqirilgan.

4. Toshkent bekligi va Rossiya o'rtaсидаги elchilik aloqalari. 1784- yili Yunusxo'ja boshchiligidagi Toshkent bekligi mustaqil siyosat yurita boshladidi. Mana shu davrdan boshlab Toshkent va Rossiya o'rtaсида diplomatik munosabatlar o'matildi. Bu sohada tashabbus Yunusxo'ja tomonidan ko'rsatildi. Uning boisi shundan iborat ediki, Toshkentga da'vo qilib turgan qo'shni davlatlar – Buxoro amirligi va

Qo`qon xonligi bosqinidan qutilish, Yunuxo`jani Rossiya bilan aloqa o`rnatishga majbur etdi.

Shu boisdan ham 1792- yilda toshkentlik Muhammadxo`ja va Azizzxo`ja boshliq savdo karvoni Sibirga jo`natildi. Arxiv xujjalrliga ko`ra, Yunusxo`ja karvon boshliqlari orqali Sibir mahalliy hokimiyati nomiga xat yuborilgan. Ushbu xatda Yunusxo`ja Sibir ma`muriyatiga Katta qozoq juzi va Toshkent viloyati o`ziga bo`ysunganligini hamda Toshkentda o`zaro urushlar tugatilib, osoyishtalik o`rnatilganligini xabar qiladi. Shuningdek, u Muhammadxo`ja va Azizzxo`ja orqali yuborgan xatida rus savdogarlarini Toshkentga yuborishni iltimos qiladi.

Yunusxo`janing xatidan ma`lumki, Muhammad va Azizzxo`jalarga Sibir ma`muriyati bilan har ikki tomonni qiziqtirgan masalalr yuzasidan fikr almashishi vakolati berilgan edi. Ayni paytda Yunusxo`ja Rossiyaga jo`natgan dastlabki vakillari orqali Toshkentdagagi tabiiy boyliklardan foydalanishda Rossiyadan yordam olish masalasini qo`yadi. Umuman olganda Yunusxo`ja vakillarining Sibirga kelishi Rossiya hukumatining Toshkentga nisbatan qiziqishini yanada oshiradi. Chunonchi, 1794- yil 10- mayda general-prokuror A.N.Samoylov rus imperatori nomidan G.G.Shstrandmanga Yunusxo`ja vakillarini yaxshi kutib olish va ular orqali Yunusxo`jaga javob xati yozib yuborish to`g`risida buyruq beradi. Ushbu xatda Yunusxo`janing Toshkent va Rossiya savdo aloqalarini kengaytirishi hamda savdo karvonlari xavfsizligini ta`minlash to`g`risidagi taklifi rus hukumati tomonidan zo`r mammuniyat bilan qarshi olinganligi, Toshkent savdogarlarining chet ellardan keluvchi boshqa savdogarlar qatorida Rossiyada yaxshi kutib olinib, rus shaharlarida savdo-sotiq qilish uchun erkinlik berilganligi va bundan keyin ham shunday bo`lajakligi, shuningdek, Toshkent elchilarini Peterburgga yuborishiga rus hukumatining rozi bo`lganligi qayd etiladi. Buyruq oxirida Sibir ma`muriyatidan Toshkent haqida turli ma`lumotlar to`plash hamda bu shahar, ayniqsa uning oltin va kumushga boyligi to`g`risida aniq va to`la ma`lumot olish uchun bir yoki ikki ishonchli kishini Toshkentga yuborish haqida ko`rsatma berilgan edi.

Polkovnik Arsenevskiy 1793- yil 24- dekabrda Ust-Kamenogorsidan Sibir liniyasi boshlig`i, general G.Shstrandmanga bergan bildirishida mabodo Toshkentning oltin va kumushga boyligi to`g`risidagi xabar noto`g`ri bo`lgan taqdirda ham Toshkent bilan savdo-sotiqni kengaytirish Rossiya uchun foydali ekanligini ta`kidlaydi. G.Shstrandmanga Muhammadxo`ja va Azizzxo`jalardan, shuningdek Sibirda savdo-sotiq qiluvchi toshkentliklardan Toshkent haqida to`plangan o`z

ma'lumotlarini Perm va Tobolsk general-gubernatori A.A.Volkovga yuborish topshirilgan edi.

1795- yil yanvarda A.A.Volkov rus hukumati topshirig'iga binoan G.Shstrandmandan Toshkent haqida yanada aniqroq ma'lumotlar toplash, Toshkentdan Ust-Kamenogorsk, Semipalatinsk va Petropavlovskga keladigan savdo yo'lining xaritasini chizish hamda bu yo'llar o'tadigan hududda joylashgan qishloqlarning bir-biridan qanchalik masofada bo'lganini aniqlashni talab qildi.

Sibir ma'muriyati darhol Toshkent to'g'risida ma'lumotlar toplash va Yunusxo'ja bilan aloqa bog'lashga kirishadi. G. Shstrandman 1794-yil noyabrda Toshkent haqida to`plagan ma'lumotlarini A. Volkovga yuboradi. 1794- yil noyabrda serjant A.T.Beznosikov va T.S.Burnashevlardan iborat elchilar o'z vatanlariga qaytayotgan Yunusxo'ja vakillari bilan birgalikda Toshkent bilan savdo munosabatlarini yanada mustahkamlash hamda oltin haqidagi xabarning to'g'rilagini aniqlash, Toshkentga qarashli yerlar haqida aniq ma'lumotlar keltirish maqsadida jo'natiladi.

Rus elchilari O'rta juzlik Jahongir sulton huzurida Troiskdan chiq-qan Toshkent savdo karvoni bilan uchrashib, birgalikda Buxoroga qarab yo'l oladilar. Elchilar qo'lida Yunusxo'ja va Buxoro amiri Shohmurod nomiga turli mazmunda yozilgan ikki xat bor edi. G.Shstrandman tomonidan Yunusxo'ja nomiga yozilgan birinchi xatda Muhammadxo'ja va Azizxo'ja orgali uning xatini olganligini bildirib o'zaro savdo munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan taklifni rus hukumatini mamnun qilganligini hamda ikki kishini Toshkentga yuborganligini xabar qiladi. Yunusxo'jaga yozilgan ikkinchi xatda undan qozoq sultonlari tomonidan o'ziga tortiq qilingan rus dehqoni Plyuxinni ozod qilib Rossiyaga qaytarishni iltimos qiladi. Buxoro amiri Shohmurod va Xo'jand hokimi Xudoyorga yozgan xatlarda ham G.Shstrandman Buxoro va Xo'jandda tutqinlikda yurgan rus dehqonlari, ya'ni Buxoroda Ivan Trifonov va Anton Galanin, Xo'jandda esa dehqon ayoli Plyuxinani ozod etib Rossiyaga qaytarishini iltimos qiladi.

Agar yuqorida qayd etilgan rus kishilarini ozod etishdan bosh tortilganda, ularni pul evaziga ozod qilish ko'zda tutiladi. Rus elchilari Buxoroga yetib keladilar, ammo Toshkent va Buxoro o'rtasidagi kelishmovchiliklar oqibatida Toshkentga yuborilmasdan Buxoroda ushlanib qoladilar. Elchilar 1795- yil aprelda Omskga qaytib ketadilar.

1796- yil iyulda Sibir ma'muriyati Toshkent bilan elchilik aloqalarni o'rnatish maqsadida serjant A.S.Beznosikov, podporuchik

D.Teletnikov va tarjimon Ya.Bikovlardan iborat elchilikni Omskdan Toshkentga yuboradi. Ularni qozoq O'rta juzi Qorakesak volostining sultonı Bukeyning o'g'li Ishim sulton Toshkentgacha kuzatib boradi. Toshkent to`g'risida D.Telyatnikov qoldirgan ma'lumotlarga ko`ra, rus vakillarining Toshkentda do`stona vaziyatda kutib olinganligi hamda ularga shahar haqida har xil ma'lumotlar toplash uchun imkoniyat berilganligidan dalolat beradi.

Rus davlati kansleri A.A.Bezborodko elchilar Telyatnikov, A.S.Beznosikovlarning Toshkent to`g'risida to`plagan ma'lumotlariga asoslanib, Yunusxo`jani unga yuborilgan zabitlardan hech narsani yashirmagan hokim deb ta`riflagan edi. D.Telyatnikov missiyasiga berilgan - topshirilgan asosiy vazifalardan biri Toshkentdagı oltin koni haqida batafsilroq ma'lumot to`plash edi. D.Telyatnikov rus hukumatiga bergen hisobotida Toshkent oltin konlari to`g'risidagi xabarlarning noto`g'ri ekanligi qayd etadi.

1797- yilda Yunusxo`ja rus hukumati bilan o`zaro aloqalarni kengaytirish masalalarini muhokama qilish uchun rus elchilar bilan birga Rossiyaga Abdullajon Oxun Maxsum va Ashurali Bahodir mingboshidan iborat elchilarini yuboradi. Sibir ma'muriyati Toshkent elchilarini yaxshi kutib oladi va ularni Peterburgga kuzatib yuborishni D.Telyatnikov, unter-ofitser Beznosikov va tarjimon Bikovlarga topshiradi. Elchilar va kuzatuvchilar 1797- yil noyabr oyining boshlarida Peterburgga yetib keladilar. Elchilar zo'r qiziqish bilan qarshi olinadi. Elchilar bilan bevosita rus davlati kansleri A.Bezborodko va Osiyo departamenti shug'ullanadi.

1798- yil 9- yanvarda Toshkent elchilarini rus davlati kansleri A.Bezborodko qabul qiladi. Ular o`zaro savdoni rivojlantirish masalalari yuzasidan fikr almashadilar. Elchilar rus imperatori Pavel I qabulida ham bo`ladilar. Bu marosimda graf Straganov, Lashkarov va tarjimon Muratovlar qatnashadilar. Toshkent elchilari rus hukumatiga Yunusxo`janing xatini topshiradilar. Xatda Yunusxo`ja rus hukumati elchilarini Toshkentga kelganliklari va ular bilan o`zining ikki ishonchli kishisini yuborganligini xabar qilib, rus hukumatidan Toshkentdagı tog' boyliklarini tekshirish uchun ikki tog' injenerini Toshkentga yuborishini iltimos qiladi.

Toshkent elchilari 1798- yil Peterburgdan o`z vatanlariga qaytadilar. Sibir harbiy liniyasi boshlig'i general-mayor Gorchakov Toshkent elchilarini o`z vatanlariga xavf-xatarsiz yetib borishlarini ta`minlash maqsadida ularni Toshkentgacha kuzatib qo'yishni qozoq

sultonlariga topshiradi. Elchilar Toshkentga kelgach, Yunusxo'jaga Pavel I ning yorlig'ini va kansler A.Bezborodko hamda Gorchakovning xatini topshiradilar. Imperator Pavel I o'z yorlig'ida Yunusxo'jaga Toshkent elchilarining Peterburgga kelganini qayd etib, unga muvaffaqiyat tilaydi. Kansler A.Bezborodko xatida esa Yunusxo'jaga rus hukumatining Toshkent bilan o'zaro savdo aloqalarini rus chegara shaharlarida erkin savdo qilishlariga ijozat bergenligini, shuningdek, Yunusxo'ja so'rigan tog' injenerlari hamda Toshkent elchilari orqasidan alohida yuborilajagini ma'lum qiladi. Shuningdek, u Yunusxo'ja tomonidan rus savdogarlariga Toshkentda erkin savdo qilish huquqi va ularning xavfsizligini ta'minlash haqida kafolot berilgan taqdirdagina rus savdogarlarining o'z mahsulotlari bilan Toshkentga borajaklarini bildiradi. Kansler yana o'z xatida Toshkent Rossiyadan harbiy yordam so'riganligi to'g'risida gapirib, Xitoy siyosatidan xabardor bo'lgan rus hukumatini Xitoy davlatining Toshkentga hujum qilishiga ishonmaganligini bildiradi. Aslida, shuni qayd etish kerakki, XVIII asrning oxirida Xitoy davlatining Toshkentga hujum qilish xavfi yo'q edi. Bundan tashqari Toshkent va Xitoy o'rtasida Qo'qon xonligi turardi. Rossiya imperiyasi hukumi Toshkent elchilarining harbiy yordam to'g'risidagi iltimosiga juda ehtiyojkorlik bilan qarab, Xitoy tomonidan Toshkent ustiga hujum bo'lismiga o'zining ishonmasligini bildiradi. Shuning uchun ham rus hukumi Yunusxo'jaga Toshkent va Xitoy munosabatlarida hech qanday ig'vogarchilikka yo'l qo'ymaslikni maslahat beradi. Kansler o'z xatining oxirida har ikki tomonni qiziqtirgan masalalar yuzasidan Toshkent hukumi bilan aloqani olib borish vakolati G.Shtarndmanga topshirilganini ma'lum qiladi. O'z navbatida rus davlati kansleri G.Shstrandmandan rus chegara shaharlariga kelgan Toshkent karvonlarining savdo qilishiga erkinlik berish, ularga nisbatan hech qanday g'ayriqonuniy harakatlarga yo'l qo'ymaslikni uqtiradi.

Sibir ma'muriyati rus davlati kansleri, knyaz A.A.Bezborodkoning buyrug'iga asosan 1800- yili tog' muhandislari Pospelov va Burnashevlarini Toshkentga jo'natadi. Ularga Yunusxo'ja iltimosiga binoan, Toshkent tabiiy boyliklarini tekshirish, shuningdek, u yerlarni selitracha (selitradan o'q dorisi-porox tayyorlangan – mualliflar) boyligi haqida aniq ma'lumotlar keltirish vazifasi topshirilgan edi³. Shuningdek,

³ Rus hukumi Pospelov va Burnashevlariga bergan topshirig'ida toshkentliklarga metallurgiya bo'yicha real yordam berishni qat'iy ma'n etgan edi. Aslida ular Toshkentning tabiiy boyliklari to'g'risida ma'lumot olish uchun yuborilgan edilar.

Toshkentga boradigan karvon yo'li, aholi, Toshkent haqida keng ma'lumotlar toplash yuklatilgan edi. Ular 1800- yil 1- mayda Petropavlovskdan Toshkentga qarab yo'lga chiqadilar. Ular Toshkentga yetib kelgach, Yunusxo'ja qabulida bo'ladilar. Pospelov va Burnashevlarg'a to'rt xil ko'rinishga ega bo'lgan tog' jinslarini ko'rsatadilar. Bu tog' jinslari tarkibida oltin va nodir metallar bo'lmay, balki ularning har pudida ikki qadoqcha mis borligini aniqlangan. Yunusxo'janing topilgan rudadan temir eritish korxonasi qurib berish iltimosi, kerakli asboblar, yoqilg'i va rudada temir miqdorining ozligi, qurilish ishini biladigan kishilar Toshkentda yo'qligi tufayli qondirilmaydi. Rus muhandislari Toshkentda uch oydan ortiq turib, 1800- yil oktabrda Rossiyaga qarab yo'lga tushadilar. Yunusxo'ja ular bilan rus hukumatiga yuborgan xatida iltimosini qondirilganligi uchun minnatdorchilik izhor etadi hamda o'zining ikki o'rtadagi mavjud yaxshi munosabatlarga sodiq bo'lib qolajagini bildiradi.

XIX asrda ham Toshkent hukumati, XVIII asr oxirida bo'lganidek, Rossiya bilan o'z munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan harakatlarini davom ettirdi. O'zaro munosabatlaridagi bosh masala iqtisodiy aloqalar bo'lib qoldi.

1802- yilda Toshkent hukumati vazir Mullajon Maxsum rahbarligidagi elchilar Peterburgda savdo munosabatlari masalasida uchrashdilar. Vazir Mullajon Maxsumning savdo vaziri N.P.Rumyansevga yozgan xati buni tasdiqlaydi. 1803- yilda Toshkent elchilar Peterburgdan o'z vatanlariga qaytdilar. Elchilarni Omskgacha kuzatib boruvchi X.Kuznetsev, unter-ofitser Bikmayevlarga berilgan qo'llanmada hech qanday g'ayriqonuniy harakatlarga yo'l qo'ymaslik topshiriladi.

Shunday qilib, XVIII asr oxiri - XIX asr boshida Toshkent - Rossiya hukumatlari o'rtasida olib borilgan elchilik aloqalari o'zaro iqtisodiy va siyosiy munosabatlarni mustahkamlash va yanada rivojlantirishi yo'lida katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Rossiya va O'rta Osiyo o'rtasidagi faol savdo munosabatlari ma'lum darajada o'zaro diplomatik aloqalarni ham rivojlanishiga xizmat qildi. O'rta Osiyodagi xonliklardan Buxoro amirligi nisbatan Rossiyaga ko'proq xayrihoh edi.

Rus hukumati oldida Xiva va Qo'qon xonligi bilan ham, mumkin qadar, diplomatik aloqalarni rivojlantirish vazifasi turardi. Shu yo'nalihsda rus hukumati ehtiyyotkorlik bilan diplomatik aloqalarni olib borar, xususan O'rta Osiyo bilan savdo munosabatlarini to'g'ri yo'lga

solish va bu borada karvon yo`lidagi xavfsizlikni ta`minlash, xonliklardagi ijtimoiy-siyosiy ahvolni chuqur o`rganish bilan shug`ullanardi. O`z navbatida O`rta Osiyo xonliklaridagi hukmdorlar ham mumkin qadar ko`proq Rossiya va uning shaharlari to`g`risida ma`lumotlarga ega bo`lishni xohlashardi. Shuning uchun ham O`rta Osiyo savdogarlarini tarkibida doimo saroy amaldorlari ham qatnashganlar.

Tayanch so`zlar

Elchi, elchilik, savdo munosabatlari, Abdulazizzon, Abdullaxon II, elchilik rasm-rusumlari, ulug` elchi, oddiy elchi, vakil, choparlar, "Dasturilamal", V.A.Daudov, I.D.Xoxlov, F.Beneveni, yorliq, "Ishonch yorlig'i", Buxoro elchisi, Xonqli to`pchiboshi, E.Maqsdov, Abulfayzxon, Yunusxo`ja.

Nazorat savollari

1. Elchi, elchilik atamalarining kelib chiqishi haqida nimalarni bilasiz?
2. Buxoro xonligi va Rossiya o`rtasidagi savdoning asosiy ko`rinishlarini aytib bering.
3. Turkiston xonliklari va Rossiya o`rtasidagi keng qamrovli savdo munosabatlari asosan qaysi asrdan boshlangan?
4. Turkiston xonliklari va Rossiyada elchilarni qabul qilish marosimlari haqida so`zlab bering.
5. Xonqli to`pchiboshi (Buxoro) elchiligi va uning tarixiy ahamiyati qanday bo`lgan?
6. F.Beneveni elchiligi haqida qanday ma`lumotlarni bilasiz?
7. Toshkent bekligining Rossiya bilan diplomatik aloqalar o`rnatishdan ko`zlagan asosiy maqsadi nima edi?

3-MAVZU: TURKISTON VA ROSSIYA O'RTASIDAGI

SAVDO-IQTISODIY MUNOSABATLAR

Reja

- 1. Savdo-iqtisodiy munosabatlardagi shart-sharoit va manfaatlar.**
- 2. Iqtisodiy munosabatlarda mahsulot turlari, savdo aylanmasining ortishi.**
- 3. Savdo-iqtisodiy munosabatlarda Orenburg shahrining tutgan o'rni.**

1. Savdo-iqtisodiy munosabatlardagi shart-sharoit va manfaatlar. Turkiston va Rossiya o'rtasidagi munosabatlarda savdo-iqtisodiy aloqalar muhim ahamiyat kasb etgan. Zero, o'z davrining shart-sharoitlari, xususan diplomatik aloqalardan asosiy maqsad ham ko'p hollarda savdo-iqtisodiy aloqalarni o'rnatish, mustahkamlashga qaratilgan edi. Shunday savdo-iqtisodiy munosabatlar Toshkent va Rossiya o'rtasida ham o'rnatilib, bu tarixda o'ziga xos iz qoldirgan.

Ma'lumki, 1784- yilda Yunusxo'ja boshliq mustaqil Toshkent bekligi tashkil topdi. Toshkent hukmdori mustaqil va teng huquqli davlat sifatida, Rossiya bilan aloqa o'rnatgach, Yunusxo'ja o'zining birinchi maslahatchisi Mullajon Oxun va Ashirmat Botir mingboshini elchi sifatida Peterburgga jo'natdi. Ular 1796- yilda Omsk, Yekaterinburg, Penn, Qozon va Moskva orqali Peterburgga yetib kelishdi. Peterburgda elchilarga rus imperatorining Yunusxo'ja nomiga yozilgan yorlig'i, kansler A. A. Bezborodkoning xati va turli sovg'alar topshirildi. Yunusxo'janing rus imperatoriga 45 to'p ipak gazlamasi va 10 juft qimmatbaho mo'ynasi evaziga har biri 20 gaz keladigan ikki to'p qimmatbaho gazlama (parcha), 12 gaz ko'k movut va oltin zanjirli soat berilgan. Mullajon Oxun va Ashirmat Botir mingboshiga 12 gazdan gazlama (parcha) va 6 gazdan ko'k movut sovg'a qilingan. Mullajon Oxun rus imperatoriga shaxsan o'zi nomidan qalam va 3 ta qoplon terisi sovg'a qilganligi uchun unga oltin soat va oltin uzuk qo'shimcha tuhfa etilgan. Bu sovg'alardan tashqari, har ikki elchiga 1000 so'm pul mukofoti, birga kelgan qarindoshlari va xizmatkorlariga ham sovg'alar topshirilgan.

Demak, yuqorida keltirilgan ma'lumotlar tasdiqlaydiki, XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida Toshkent hamda Rossiya hukumatlarining o'zaro savdo-sotiqni rivojlantirishdan manfaatdor ekanligi, bu o'zaro aloqalarni yanada har tomonlama kengaytirishga intilayotganliklari ana

shu yillari Toshkent-Rossiya diplomatik aloqalarini jonlanishida namoyon bo`ldi.

Toshkentliklar, Sibir ma`muriyatining ma`lumotlariga qaraganda, avvalgi vaqtarda bo`lganidek, Ust-Kamenogorsk, Semipalatinsk, Yamishevsk, Jelezinsk, Petropavlovsk kabi Rossiyaning savdo punktlarida, shuningdek, Troisk orqali Orenburg liniyasi bilan savdo qilganlar. Yuqorida qayd etilgan savdo nutqlaridan Toshkent-Rossiya iqtisodiy munosabatlarda Semipalatinsk, Petropavlovsk va Troisk asosiy o`rin tutgan. O`zaro savdo munosabatlari eski usulda, ya`ni tovar ayriboshlash yo`li bilan olib borilgan.

XVIII asrning 80-yillarida Toshkentdan Sibirga turli gazlamalar, paxta va ipak to`qimalaridan tikilgan mahsulotlar, har xil meva, xususan mayiz va o`rik, tamaki va boshqa mahsulotlar olib keltingan. Bu tovarlar Sibir ma`muriyatining rus hukumatiga yuborgan ma`lumotiga “Toshkent mollari” deb atalgan.

Toshkentliklar Sibir shahrlariga yetguncha o`z tovarlarining bir qismini yo`l-yo`lakay qozoq mollariga ayriboshlab Sibirga chorva mollar ni ya`ni ot, qo`y, qoramol va jun, turli mo`ynalar, ya`ni bo`ri, quyon, tulki va boshqa hayvon terilari, teridan tikilgan har xil kiyimlar keltirib rus tovarlariga ayriboshlaganlar. Rossiyadan esa ular turli rus va chet el (ko`proq nemis) movuti, har xil mo`yna, gazmol, charm, temir, mis, cho`yandan yasalgan turli ro`zg`or idishlari, oyna (ko`zgu), marjon va boshqa tovarlarni olib kelganlar. Bu vaqtida Rossiyadan chet mamlakatlarga temir, cho`yan, mis, Rossiya tangasi, miltiq dorisi (porox) va qurol-aslaha chiqarish qat`iy ma`n etilgan edi. Ammo taqiqlarga qaramasdan, toshkentliklar bu tovarlarni yashirin tarzda Rossiyadan olib ketib turganlar.

Semipalatinsk bojxonasi ma`lumotlariga ko`ra, 1781- yilda toshkentlik savdogarlar Rossiyada tayyorlangan 9 dona miltiq, 2 ta qilich, 69 pud 34 qadoq qizil mis olib ketayotgan vaqtlarida ushlanganlar. Toshkentliklar Rossiyaning chegara shahar va qal`alaridagina emas, balki Sibir ma`muriyatining maxsus ruxsati bilan Rossiyaning ichki shahrlarida ham savdo-soti qilganlar. Masalan, 1786- yil fevralida toshkentlik B. Ismoilov va Azizzxo`ja Petropavlovskdan Ibrit yarmarkasiga jo`naydilar.

1787- yilda Troiskdan Toshkentga 27773 so`mlik rus va chet el mollar ni keltirilgan. Toshkent bilan olib borilayotgan savdoda Sibir shahrlaridagi rus savdogarlari bilan birga katta kapitalga ega bo`lgan Moskva savdogarlari ham qatnashganlar. 1787- yili Toshkentga

keltirilgan tovarlarning 23089 so'mi moskvalik birinchi gildiyali savdogar D.Ikonnikovga tegishli edi.

XVIII asr oxirida Sibir liniyasidagi shahar va qal'alar Toshkent va O'rta Osiyoning boshqa shaharlariga o'z savdo karvonlarini jo'natish huquqiga ega emas edi. Toshkentga boruvchi rus karvonlarining asosiy qismi Orenburg guberniyasiga qarashli Troiskdan jo'natilardi. Chunki Orenburg liniyasiga O'rta Osiyoga savdo karvoni yuborish huquqi berilgan edi. Savdo karvonlari faqat Orenburg ma'muriyatining ruxsati bilangina jo'natilgan. Masalan, 1784- yili 28- sentabrida qozonlik tatar savdogari Is'hoq Galiyev va fabrikant Murtazo Ismoilov Orenburg guberniyasi chegara ishlari boshlig'idan Troiskdan o'z gumashtalari orqali Toshkent, Xo'jand, Buxoro va Qobulga bir yil muddat bilan savdo karvoni jo'natishga ruxsat so'raganlar. 1787- yil sentabrdada esa Moskva savdogari Dmitriy Ikonnikovning xodimi Mustafo Murtazin va Is'hoq Eshmurotovlar Orenburg ma'muriyatidan Troiskdan Toshkent, Ho'jand va Qashg'arga savdo karvoni jo'natishga ruxsat so'raganlar.

O'rta Osiyo va Rossiya o'rtasidagi savdo munosabatlari o'zaro tovar almashish usuli bilangina cheklanib qolmay, zaruriyatdan kelib chiqib bir-birlariga tovar qarz berish yo'li bilan ham olib borilgan. Masalan, toshkentliklar rus savdogarlaridan qarz (veksel)ga olgan moliarini O'rta Osiyo va qozoq elatlariga jo'natishga yoki o'zlar bilan olib ketar edilar.

XVIII asrning 80-90- yillaridan boshlab Sibirga, asosan, Ust-Kamenogorsk bilan Semipalatinskga ko'chib kelayotgan toshkentliklar, buxoroliklar soni ko'paya boradi. Ular guruh-guruh bo'lib ko'chib kelib, Rossiya fuqaroligini qabul qilganlar. Bundan ko'zlangan ikki maqsad bor edi:

- birinchidan, Rossiya fuqarosi sifatida o'z savdo karvonlarining qaroqchilardan himoya etilishi yoki talangan mollarni ulardan undirib olish;

- ikkinchidan, boshqa masalalarda rus davlati mudofaaсидан foydalanish, Rossiya shaharlarida erkin savdo-sotiq qilish huquqiga ega bo'lish.

Masalan, 1789- yil boshlarida o'n nafar Toshkent savdogarlari Sibir ma'muriyatiga murojaat qilib o'zlarini Rossiya fuqaroligiga qabul qilish va Ust-Kamenogorskga ko'chib kelib o'mashishlariga ruxsat so'raganlar. Ular o'z xatlarida ixtiyoriy ravishda Rossiya fuqaroligini qabul qilayotganliklarini ta'kidlab, savdo qilish uchun vaqt-i-vaqti bilan O'rta Osiyo shaharlariga borib kelishlariga ruxsat berish, o'z savdo

karvonlarini qaroqchilardan himoya qilish va boshqa janjalli masalalarda Rossiya fuqarosi sifatida ularga yordam berishni rus hukumatidan iltimos qilganlar. Ushbu xatda yanada o`zaro savdo-sotiqni rivojlantirib borishga hamda o`z hamshaharlarini Sibirga ko`plab jalb qilishlari qayd etilgan edi. Ushbu xat oxirida o`zlarini rus davlatiga sodiq bo`lajaklari hamda chet mamlakatlarda Rossiya uchun foydali biror narsa ko`rsalar yoki u haqda eshitsalar, albatta Sibir ma`muriyatiga bu to`g`rida xabar berishlarini qayd etganlar.

1792- yil sentabrda Sibir ma`muriyatining rus hukumatiga bergen ma`humotiga ko`ra, Ust-Kamenogorskda 68 nafar, Semipalatinskda 12 nafar toshkentliklar o`z oilalari bilan yashagan.

O`rta Osiyo savdogarlari Sibir shaharlarida, xususan o`zaro savdo munosabatlarini rivojlantirishda, rus hukumatini O`rta Osiyo, Qashg`ar, Xitoy va boshqa sharq mamlakatlari bilan savdoda muhim rol o`ynayotganlariga ularga berilayotgan yangidan-yangi imtiyozlar guvohlik beradi. Masalan, toshkentliklar 1788- yilda Sibir ma`muriyatiga yozgan arizalarida Xitoydan qaytayotgan 200 otdan iborat o`z karvonlarini Ust-Kamenogorskdan Semipalatinskga hech qanday to`sinqilksiz o`tishga ruxsat berishni va karvonlarni qaroqchilar hujumidan himoya qilishni so`raydilar. Ushbu arizada o`z iltimoslari qondirilmagan taqdirda Semipalatinskdan o`z vatanlariga qaytib ketishlari uqtirilgan. Bundan ko`rinib turibdiki, toshkentliklar rus hukumati oldida ma`lum bir savdo yo`nalishida o`z o`rnilariga ega bo`lganlar. O`z navbatida rus hukumati toshkentliklar iltimosini qondirib, Sibir ma`muriyatiga toshkentliklarga nisbatan hech qanday g`ayriqonuniy harakatlarga yo`l qo`ymaslik to`g`risida buyruq bergen. Shuningdek, buyruqda toshkentliklarning bu liniyada erkin savdo qilishlariga xalaqit bermaslik, Sibir liniyasi atrofida ularni qozoq feodallari hujumidan saqlash, agar ular Sibir liniyasidagi savdo punktlarining biridan ikkinchisiga borib savdo qilishni istasalar, ularga to`sinqilik qilmaslik va ularni rus harbiy otryadi himoyasida kuzatib borish bilan rus hukumati xazinasiga savdodan kelayotgan foydani kamaytirishga yo`l qo`ymaslik ta`kidlangan.

Shuni ta`kidlash joizki, XVIII asr oxirida qozoq juzlari, ayniqsa O`rta juz ustidan rus hukumati ta`sirini kuchaytirish va uni Rossiya tobeligiga qabul qilish masalasi Rossianing Toshkent va u orqali O`rta Osiyo xonliklari bilan olib borilayotgan savdosini rivojlantirish nuqtai nazaridan qarala boshlanganligi ko`rinadi.

Shu maqsadda, rus hukumati qozoq juzlarida o`z ta`sirini kuchaytirish va uni Rossiya tobelligiga kiritishga urinadi. Pyotr I ham o`z davrida Rossiyaning Osiyo mamlakatlari bilan savdo aloqalarida qozoq juzlarining tutgan muhim rolini e'tiborga olib, uni bu yo`ldagi darvoza deb bilgan edi⁴. 1731- yili Kichik qozoq juzining Rossiya tobelligiga kirishi o`zaro siyosiy va iqtisodiy aloqalarni kengaytirish uchun yangi imkoniyatlarni vujudga keltirdi.

1734- yilda I.Kirillov rahbarligida ekspeditsiya tashkil qilinib, unga Orsk daryosi bo`yida shahar qurish, Orol dengizida kemachilikni tashkil etish va O`rta Osiyo shaharlariga hamda Hindistonga savdo karvonni jo`natish vazifalari yuklatildi. Oradan bir yil o`tgach, 1735-yilda Orenburg shahri barpo etildi. Keyinchalik bu shahar Samara va Yoyiq daryolari qo`shilgan joyga ko`chirildi. Aslida rus hukumati tomonidan Orenburg shahrini qurishdan maqsad O`rta Osiyo bilan Rossiya o`rtasidagi iqtisodiy va siyosiy aloqalarni rivojlantirishdan iborat edi.

Orsk daryosi bo`yida shahar qurishdan maqsad, - deb ta`kidlanadi 1734- yil 18- mayda I.Kirillovga berilgan buyruqda, - Kichik qozoq juzini tobeklikda tutish hamda savdo-sotiqni kengaytirishdan iboratdir. Shuningdek, buyruqda yangi quriladigan shaharga buxorolik, xivalik, toshkentlik va boshqa savdogarlarni jalb etish hamda shu yo`l bilan bu yerda savdo-sotiqni rivojlantirish maqsadida ularga Orenburgga kelib o`ruashish va uch yil mobaynida, ya`ni 1735-1738- yillarda bojsiz savdo qilishga ruxsat berilganligi ham uqtiriladi.

1795- yili Sibir qo`shinlari qo`mondoni general-leytenant G.G. Shstrandman general-prokuror A.N Samoylovga yuborgan bildirishida, “O`rta juzni Rossiya tobelligiga qabul qilish bilan bizning chegaramiz bevosita Toshkent, Buxoro va boshqa ularga yaqin bo`lgan mamlakatlar chegaralari bilan yaqinlashadi. Bu esa Toshkent va Buxoro karvonlarini bizning chegaramizga kelishi uchun xavfsizlikni ta`minlaydi. Bu o`z navbatida bu yerda – Sibirda savdoning gullab-yashnashiga olib keladi” – degan edi.

1799- yil 23- dekabrda Rossiya imperatorining “Osiyo xalqlari bilan savdoda tovar oborotini rivojlantirish to`g`risida”gi farmoniga asosan Osiyo davlatlariga Rossiyadan oltin va kumushdan zarb qilingan chet el tangalarini, temir va undan qilingan turli buyumlar, mis (yaxlit va

⁴ Ma lumki, qozoq urug`lari ma`muriy jihatdan uchga, ya ni Katta, O`rta, Kichik juz yoki o`rdaga bo`lingan edi. XIX boshiga oid ma`lumotga qaraganda, Katta juz 70000, O`rta juz 159400, Kichik juz 165700 ga yaqin qozoq oиласидан iborat bo`lgan - mulisflar.

buyumlar shaklida), qo'rg'oshindan qilingan idishlar va g'alla chiqarishga ruxsat berildi. Ammo farmonda Rossiyadan chetga qurolyaroq olib chiqib ketilishiga yo'l qo'ymaslik uqtirilgan.

2. Iqtisodiy munosabatlarda mahsulot turlari, savdo aylanmasining ortishi. Buxoroliklar Kuchumxon hukmronligi (XVI asrning ikkinchi yarmi) davridayoq Sibirning mahalliy aholisi bilan savdo aloqalari o'matgan edilar. Buxoroliklar O'rta Osiyodan keltirilgan mollar evaziga Sibirdan qimmatli mo'ynalarni olib o'z yurtlariga qaytganlar. O'zaro savdo munosabatlari Sibir Moskva davlati tomonidan bosib olingandan keyin ham davom etdi. Masalan, buxoroliklarning Sibirdagi savdo-sotiq faoliyati shu darajada tanlangan ediki, hatto ularning Tobolskdagi maxsus do'konlari XVII asr boshlaridanoq vujudga kelgan edi. Chunonchi, Tobolsk⁵ shahrining 1623- yilgi ro'yxatida bu shaharda buxoroliklarning qancha do'konlari bo'lganligi qayd etilgan.

Buxoro savdogarlari Sibirdagi shaharlar va aholi yashaydigan joylarni turli xil mollar bilan ta'minlab turganlar. Jumladan, 1658- yilda buxorolik Nodir Boqiyev Berezovskdan 3630 ta olmaxon, 45 ta suvsar, 160 ta oqsichqon va 23 ta tulki mo'ynasini Tobolskka keltirgan. 1662-yili boshqa bir buxorolik savdogarning Surgutdan 3000 ta olmaxon, 25 ta tulki mo'ynasini Tobolskka keltirgani ko'rsatilgan.

XVII asr o'rtalarida Sibirda bo'lgan sayohatchilardan biri Tobolskdagi buxoroliklarning do'konlarini quyidagicha bayon etgan: "Buxoroliklar paxtani katta-katta bo'z qoplarda sotadilar. Bundan tashqari ular paxta ipidan to'qilgan gazlamalar, zarbof matolar, atlas, yo'l-yo'l shoyilar, shuningdek qalampir, qimmatbaho toshlar va boshqa narsalar sotadilar".

O'rta Osiyo va Rossiya o'rtasidagi savdo aloqalarida XVIII asrda ham Buxoroning yetakchi o'rin egallaganini ko'rish mumkin. Jumladan, 1787-1796- yillarda Rossiyaga O'rta Osiyodan keltirilgan mollarning qiymati 4625861 rublni tashkil qilgan bo'lsa, ulardan Buxoro amirligining ulushi 4518316 rublga teng bo'lgan. Mazkur davrda O'rta Osiyoga Rossiyadan keltirilgan 4094028 rubl miqdoriga teng mahsulotlarning Buxoroga to'g'ri kelgan hissasi 3680869 rublga tengdir. Ko'rsatib o'tilgan 10 yil davomida Buxoro amirligi bilan olib borilgan ayrboshlash savdosи Rossiya 450 ming rubldan ortiq daromad keltirgan.

⁵ Sibir xoni Kuchumxonning poytaxti Kashlik 1582- yil kuzida Moskva davlati tomonidan bosib olingandan so'ng, ruslar tomonidan Tobolsk nomi bilan atala boshlangan - mualliflar.

XIX asr boshida Rossiya gazmol to'qish sanoatining rivojlana borishi mamlakatda ip yigiruv manufakturalari qurish va uni ko`paytirish vazifasini qo`ydi. Shu tariqa Rossiyada ip yigiruv manufakturalari paydo bo`la boshladi. Shu vaqtadan e'tiboran Rossiya hukumati O`rta Osiyodan tayyor paxta ipi bilan bir qatorda ko`proq paxta xom-ashyosini olishga intildi.

XIX asrning dastlabki yillardan boshlab rus hukumati O`rta Osiyodan Rossiyaga keltirilayotgan paxta miqdori va uni yanada ko`paytirish yo'llari haqida ma'lumotlar to`plashga kirishdi.

1808- yili 2- avgustda rus hukumati tomonidan berilgan buyruqqa binoan Orenburg ma'muriyati Aleksandr yigiruv manufakturasi uchun paxta sotib olishga kirishdi. Troisk bojxonasining rus hukumatiga bergen bildirishiga ko`ra, 1809- yilda bu yerda mazkur manufaktura uchun O`rta Osiyo savdogarlaridan 28 toy paxta sotib olindi. Endilikda, O`rta Osiyo va Rossiya o`rtasidagi iqtisodiy aloqalar, to`qimachilik sanoatining paydo bo`lishi natijasida, xususiyatiga ko`ra o`zgara boshladi.

Rossiya sanoatining rivojlana borishi bilan bu yerda O`rta Osiyodan keladigan yigirilgan ip, paxta va ipakka bo`lgan ehtiyoj tobora kuchaya bordi. XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab yigirilgan ip, paxta va ipak narxining tezlik bilan ko`tarilib borishi buning yaqqol dalilidir. 1760- yilda Orenburgda ingichka paxta ipining bir pudi 20 so`mdan 25 so`mgacha sotilgan bo`lsa, 1802- yilga kelib uning narxi 60 so`mdan 70 so`mgacha, 1811- yilda esa 120 so`m va undan ham qimmatroqqa sotilgan. 1760- yilda bir pud paxta 5 so`mdan 8 so`mgacha sotilgan bo`lsa, 1803- yilga kelib 45-50 so`mdan 70 so`mgacha yetdi. 1754- yilda bir pud ipakning narxi 30 so`mdan 60 so`mgacha bo`lsa, 1804- yilda u 120 so`mdan 180 so`mgacha va 1811- yilda esa 600 so`mdan 700 so`mgacha ortdi. Bu davrda O`rta Osiyodan Rossiyaga asosan 3 nav paxta keltirilgan: birinchi nav Shahrisabz paxtasi hisoblanib, uning har pudi 45 so`mdan 70 so`mgacha, ikkinchi nav O`ratepa va Jizzaxdan keltirilib, bir pudi 40 so`mdan 50 so`mgacha va uchinchi nav Miyonqol paxtasi hisoblanib, uning har bir pudi 35 so`mdan 45 so`mgacha bo`lgan.

XIX asrda O`rta Osiyodan Rossiya shaharlariiga paxta va yigirilgan ip bilan bir qatorda ko`plab har xil to`qima hamda tayyor kiyimlar keltirilishi davom etdi. Rossiya to`qimachilik sanoati rivojlanayotgan bo`lsada, rus to`qimachilik sanoati iste'mol qilinayotgan gazmolning

faqt 30% miqdorinigina to`qir edi. Shuning uchun ham Rossiyada O`rta Osiyo to`qimasiga bo`lgan talab katta edi.

1811- yilda polkovnik Strukov O`rta Osiyodan keltiriladigan gazmollarning ahaniyatiga to`xtalib: "Osiyoliklar keltiradigan har xil gazzmollar oddiy kishilar tomonidan kiyim-kechak uchun zo`r ishtiyoq bilan ishlataladi, chunki u kiyim uchun yurushoq va chidamlidir", deydi.

XIX asda o`sib borayotgan Rossiya to`qimachilik sanoati rus hukumati oldiga Rossiyaga xom-ashyo-paxta va yigirilgan ip chiqariladigan o`lkalardan biri bo`lgan O`rta Osiyo bilan o`z iqtisodiy aloqalarni yanada kengaytirish va mustahkamlash vazifasini qo`yadi.

1802- yil aprelida Rossiyaning O`rta Osiyo bilan iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish masalasi Rossiya podsholigi hukumati Davlat Kengashida muhokama qilinadi. Davlat Kengashida Osiyo mamlakatlari bilan savdo aloqalari Yevropa davlatlarini, xususan Angliyani boyitishda muhim vosita bo`lganligi ko`rsatiladi. Shuningdek, Kengashda Rossiya va O`rta Osipyoni bog`lovchi uchta asosiy karvon yo`li: 1. Mang`ishloq, 2. Orenburg, 3. Sibir yo`llari mavjud ekanligi ta`kidlanadi. Ushbu Kengashda Rumyansev ma`ruza qilib, Rossiya va O`rta Osiyo shaharlari o`rtasidagi iqtisodiy aloqalarni yanada kengaytirish masalasi ustida to`xtalib, bu aloqalarni rivojlantirishga xalaqit berayotgan asosiy sabablardan biri karvon yo`llari o`tadigan qozoq dashtlaridagi tartibsizliklar ekanligi ko`rsatilib, Rossiya tobeligidagi qozoq urug`lari ustidan nazoratni kuchaytirish taklif qilinadi. Kengashda tavsiya etilgan savdoni rivojlantirishga oid yuqoridagi tadbirlar rus imperatori tomonidan ma`qullandi.

1803- yilda Petropavlovsk, Semipalatinsk va Buxtarma bojxonalariga O`rta Osiyo shaharlari rus savdo karvonlarini jo`natish huquqi berildi.

Sibir general-gubernatori M.M. Spiranskiyning (1772-1839) O`rta Osiyo va Rossiya savdosi haqida to`plagan ma`lumotlariga qaraganda, bu davrda Toshkent savdogarlari butun Sibir liniyasi bo`ylab savdo qilganlar, rus hukumati qonun-qoidalarini yaxshi bilganlar, rus tilini yaxshi o`zlashtirganlar.

Polkovnik Strukov to`plagan ma`lumotlarga ko`ra, XIX asr birinchi o`n yilligida har yili Toshkentdan Sibir shaharlari, asosan Semipalatinsk bilan Petropavloskga bir mingdan ikki mingga qadar tuyalarga ortilgan tovarlar keltirilib turilgan. Bu vaqtda Buxorodan Rossiyaga bir yilda 3000-4500 tagacha, Xivadan esa mingga yaqin tuyalarga yuklangan tovarlar jo`natilib turilgan.

Buxoroda savdo ishlari yanvarda boshlanib maygacha davom etgan. Boshqa mamlakatlardan kelgan savdogarlar uchun Buxoroda 10 ta karvonsaroy mavjud edi. Buxorodagi savdo-sotiq ishlarida oltin, kumush, mis Buxoro pullari muomalada bo`lgan. Buxoroning 1 oltin puli ruslarning 16 rubliga teng kelgan. Agar o`zaro savdo munosabatlari natijasida oltin tangalar xorijdagi mamlakatlarga taalluqli bo`lsa, uni eritib Buxoro chervonlariga aylantirilgan. Buxorodan oltin tangalarni olib chiqib ketish yoki olib kelish, chervonlarni olib chiqib ketish yoki ularni oltin zeb-ziynatlarga aylantirish taqiqlanmagan edi. Buxoroda savdo-sotiq yoki tovar almashtirish naqd pullarda, shuningdek, qarzga ham amalga oshirilgan. Ammo bunday holat hech qanday yozma majburiyatlsiz, veksellarsiz amalga oshirilib, faqat guvohlar ko`rsatmasiga asoslangan.

Xorijdan Buxoroga kelayotgan karvonlar shahardan tashqariga joylashib, amaldorlar qo'shbegi farmoyishiga binoan kelgan tovarlarni hisob-kitobini olib, tegishli boj solig'i olganlar. Buxoroga keltirilayotgan tovarlardan quyidagi tarzda boj solig'i olingan: agar keltirilgan tovarni musulmon olib kelgan bo`lsa -1/40 qismi ya`ni 2,5%, tovarni xristianlar yoki forslar olib kelgan bo`lsa 1/20 qismi ya`ni 5% va ba`zan bu ko`rsatkich 10 yoki 20% gacha ham borgan. Rus tovarlariga munosabat Xivada o`ziga xos edi. Rus savdo karvoni Xiva xonligining qayeriga yuborilmasin, ushbu karvonni faqat poytaxt orqali o'tishiga majbur qilinardi. Bundan maqsad har xil soliqlar edi. Agar savdo karvonlari Xiva yo`lidan yurmay, boshqa yo`lni tanlasa, unda ularning tovarlari talon-taroj qilinardi. Rossiyadan keltirilgan tovarlarga belgilangan soliqlardan tashqari, Buxoroda qo'shbegi va amaldorlarga turli sovg'alar ham berilardi. Buxoro amaldorlariga beriladigan sovg'alar odatdagi hol edi.

Rossiya fuqarolaridan O`rtta Osiyoga ko`proq tatar savdogarları tashrif buyurishgan. Chunki ularni boshqa musulmonlar qatori yaxshi kutib olinib, xonlik himoyasiga olingan. O`z navbatida tatar savdogarlariga mahalliy aholining o`zi ham do`stona munosabatda bo`lib, xayrixohlik qilganlar. Shuning uchun ham rus savdogarları o`rtta osiyoliklar bilan savdo qilishda ko`proq tatarlardan foydalanishgan. Bunday holat rus hukumatining ma'lum bir noroziligiga olib kelgan. Shuning uchun ham rus hukumati o`z elchilarini orqali O`rtta Osiyo xonliklaridan savdo munosabatlarida rus va musulmonlardan olinadigan soliqlarni tenglashtirishni so`ragan. Hatto, Rossiya tashqi ishlari vaziri K.V.Neselrode XIX asr boshlarida Buxoro elchisi Mirza Azimjonov

Peterburgga kelganda, amirdan xristianlardan olinadigan soliqlarni tenglashtirishni so'ragan. Bunga elchi o'zi bergen javobda xristianlardan ikki barovar soliq olinishi islom arkonlari bilan bog'liq bo'lib, buni hatto amirning o'zi ham bekor qilishga ojizligini ta'kidlagan.

O'rta Osiyo va Rossiya savdo karvonlarining kelish va ketishlari ham ma'lum bir tartibda amalga oshirilgan. Savdo karvonlarning o'zaro tashrifi Nijegoroddagi yarmarkaning ochilish davriga ham bog'liq bo'lgan. Odatda Nijegorod yarmarkasi iyul oyi o'rtalarida boshlanib, 20-avgust atrofida tugagan. Shu munosabat bilan Buxoro savdo karvonlari Rossiyaga barvaqt yo'lga chiqqan. Chunki Buxorodan Rossiya chegaralarigacha ikki oy yo'lda yurishga to'g'ri kelgan. Ko'p hollarda O'rta Osiyo savdo karvonlari may oyida Rossiyaga yetib kelganlar va bu jarayon noyabr oyiga qadar davom etgan. Umuman qizg'in savdo ishlari iyun oyi boshlaridan dekabr oyiga qadar davom etgan. O'rta Osiyo - Rossiya savdo munosabatlarda qozoqlar nafaqat yo'l boshlovchi, balki karvonlarga nisbatan qaroqchilik, talonchilik ishlarini ham amalga oshirganlar. Savdo yuklarini olib o'tishda transport haqi yuklar soniga qarab belgilangan. Masalan, Orenburgdan Buxoroga 1 ta tuyadagi yuk uchun 17-25 rubl kumush olingan. XIX asr boshlarida bu narx 9-16 rublni tashkil qilgan. Bitta tuyada 2 botmon yoki 16 pud yuk olib ketish mumkin bo'lgan. Iyun oyidan savdoning hammasi "Ayrboshlash saroyi"ga ko'chib, yarmarka shaklida davom etgan. Yarmarkaga Moskva, Tula, Yaroslavl, Penza, Qozon, Simbirsk, Astraxan, Saratov va boshqa guberniyalardan savdogarlar kelganlar. Yarmarkada savdo ishlari 1755- yil 1- dekabrda qabul qilingan nizom asosida olib borilgan. Ushbu nizomga muvofiq o'rta osiyolik savdogarlar ixtiyorida qimmatbaho toshlar, oltin, kumush bo'sagina Moskva va Peterburgga borishlari mumkin bo'lgan. Istisno tariqasida Moskva va Peterburgga maxsus yorliq orqali yuborilganlar. Bundan ko'rinish turibdiki, O'rta Osiyo savdogarlarining Rossiyadagi markaziy shaharlariga borib savdo qilishlari ma'lum bir norozilikka olib kelgan. Shu sababdan Yekaterina II 1763- yili Senatga bergen topshirig'ida har qanday shikoyatlarga va noroziliklarga o'rinni qoldirmay, savdogarlarga sharoit yaratib berish zarurligini uqtirilgan.

O'zaro savdo munosabatlardagi bunday holatlar ma'lum bir chora-tadbirlar ko'rishga undagan. Masalan, Buxoro savdogarları Orenburgga kelib, ba'zi hollarda o'z mollarini rus savdogarlariga ma'lum bir vaqtga, veksel asosida bergenlar. Ushbu vekselda olingan pul yoki Rossiya mollariga almashtiruv qayd etilardi. Natijada o'rta

osiyolik savdogarlar Rossiyaning ichki shaharlari pulni undirish, o`z mahsulotlariiga mablag`ni yig`ish sabablari bilan borar edilar. Bundan tashqari, o`rta osiyolik savdogarlar Moskva va Peterburgda qimmatbaho toshlar sotish huquqiga ega edilar. Bunday imkoniyatdan unumli foydalangan savdogarlar endilikda qimmatbaho toshlarni nafaqat ruslarga, balki Rossiyadagi xorijlik savdogarlarga ham bevosita sotishga muvaffaq bo`lardilar. O`z navbatida xorijliklardan, ruslar ishtirokisiz, mollarni to`g`ridan-to`g`ri sotib olardilar. Bunday hol rus savdogarlar ni noroziligiga olib kelardi. Shuning uchun bo`lsa kerak, Orenburg ma`muriyati Senatga murojaat qilib, o`rta osiyolik savdogarlarni Rossiya ichki shaharlariha har xil sabab, bahonalar bilan borishni taqilashni so`ragan. Chunki o`rta osiyoliklarning chegaradagi shaharlар orqali savdo-sotiq olib borishi Rossiya xazinasi uchun foya keltiradi deb topilgan. Ammo bu taqiq o`rta osiyolik savdogarlarda ma`lum bir noroziliklar tug`dirgan hamda ular shikoyat bilan Senatga murojaat qilganlar. Ushbu masalani o`rganib chiqqan graf Rastopchin hukumatga bergen hisobotida o`rta osiyolik savdogarlarga Rossiyaning markaziy shaharlarda savdo-sotiq qilishlariga ruxsat berish maqsadga muvofiq emas, chunki o`rta osiyoliklar o`z mollarini Orenburgda Rossiya tovarlariga almashtiradilar, bu bilan rus ishlab chiqarish sanoatini rivojlanishiga yordam berishini qayd etgan. Ushbu fikrni Orenburg general-gubernatori O.A.Igelstrom ham “Xiva va Buxoro bilan savdo qilish bo`yicha yozishma”da qo`llab-quvvatlagan edi. Shunday qilib, Rossiya-O`rta Osiyo savdosini olib borish bo`yicha “Qoida” ishlab chiqilgan. Ushbu “Qoida”ga muvofiq o`rta osiyolik savdogarlarga hech nimani pulga sotmaslik, balki o`zaro kelishuvga ko`ra rus mollariga almashtirish zarurligi uqtirilgan.

Rossiya savdogarlari o`rta osiyolik savdogarlar mollariga o`z mahsulotlarini almashtirish uchun Orenburgga kelish bilan cheklanmay, o`zlar ham tovarlarini Buxoro, Xivaga olib borishgan. Masalan, 1785-yilda Rossiyadan Buxoroga 188315 rublik tovar keltirilgan. Buxoroga Rossiyadan kelgan savdogarlar qatorida Murtaza Ismoilov, Sulaymon Nazirov, Muhammad Yusupov, Asaf Inozemzev, Gubay Musin, Abdulla Utyamishev, Abdurashid Ibrahev, Musa Maqsudov va boshqalar bor edi. O`zaro savdo munosabatlariada 1787-1796- yillar oralig`ida Buxoro va Xivadan Orenburgga 46119854 rublik, ayni shu davrda Orenburgdan Buxoro va Xivaga 4044020 rublik tovar keltirilgan edi. Ma`lumotlarga ko`ra, faqatgina Buxorodan Rossiyaga har yili 3 mingdan 4 minggacha tuyalarda 8 million rublik yuklar keltirilgan. Mazkur davrda Buxoro

amirligining bir yillik tashqi savdosi 12-15 million rublni tashkil qilgani holda uning katta qismi Rossiya hissasiga to`g'ri kelgan.

Rossiya uchun O`rtal Osiyo xonliklari bilan savdo Napoleon Fransiyasi bilan urush (1812-1814) paytida yanada muhim ahamiyat kasb etgan. Angliya bilan savdo munosabatlari to`xtashi munosabati tufayli Rossiya O`rtal Osiyo orqali savdoga katta e'tibor qaratgan. Rossiyaga ilgari Yevropa mamlakatlardan keltiriladigan Hindiston, Eron tovarlari endilikda buxorolik savdogarlar tomonidan amalga oshirila boshlandi. O`rtal Osiyo va Rossiya o`rtasidagi savdo munosabatlari rivoji va savdogarlarga shart-sharoitlar yildan-yilga ortib borgan. Buxoro, Xiva, Toshkent savdogarлari Rossiyada nafaqat ichki shaharlarga borish, joylarda tovarlarning narx navosini aniqlash imkonini bergen. Bu esa hech qanday to`siq yoki qo'shimcha qiymatlarsiz joylardan tovarlarni xarid qilish imkonini bergen.

Rossiya va O`rtal Osiyo o`rtasidagi savdo aylanmasi 1858- yilda 11 million rublni, 1862- yili esa 15 million rublni tashkil qilgan. Rossiya bilan bo`layotgan o`zaro savdo munosabatlarida ko`proq ulush Buxoro amirligi hissasiga to`g'ri kelgan. Jumladan, A.Vamberining ma'lumotiga ko`ra, XIX asrning 40-50- yillarda Rossiyadan O`rtal Osiyo xonliklariga 1014237 funt sterling miqdorda mahsulot olib kelingan bo`lsa, buning 783785 funt sterlinggi Buxoro amirligi hissasiga to`g'ri kelgan. Ayni paytida O`rtal Osiyo xonliklaridan Rossiyaga 1345741 funt sterlingga teng mahsulot chiqarilgan bo`lsa, bunda Buxoro amirligining ulushi 1096380 funt sterlingga teng bo`lgan.

3. Savdo-iqtisodiy munosabatlarda Orenburg shahrining tutgan o`rni. O`rtal Osiyo va Rossiya o`rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlarda Orenburg shahri muhim o`rin tutgan. Zero, Orenburgga asos solinishining (1734) muhim omillaridan biri ham Rossiya mahsulotlarini O`rtal Osiyo xonliklarida sotish va sharq tovarlarini olib kelish bo`lgan edi. Dastlab shunday qal'a-shahar qurish g'oyasi I.K.Kirillov tomonidan ilgari surilib, 1734- yil 1- iyunida imperatritsa Anna Ivanovna (1730-1740) tomonidan qo'llab-quvvatlangan edi. I.K.Kirillov tomonidan boshlangan harakat 1737- yildan V.N. Tatishev tomonidan davom ettirilgan. Ammo I.K.Kirillov va V.N.Tatishevlar tomonidan qilingan sa'y-harakatlar kutilgan natijani bermagan. Chunki bunga boshqirdlar tomonidan amalga oshirilayotgan qo`zg'onlonlar xalaqit bergen. Keyinchalik V.A.Urusov va I.I.Nepmoyevlar Orenburgni ma'lum darajada O`rtal Osiyo uchun savdo qilish nuqtasiga aylantirdilar. 1743- yilga kelganda asosan, Orenburgni qurish tugallandi. Endilikda

Orenburgga savdogarlarni jalb qilish kerak edi. Dastlabki taklif etilganlar qatoridan tatarlar o`rin olgan edi. Orenburgga qozonlik tatarlar taklif etilib, savdo-sotiq ishlari bilan shug`ullanishga imkon yaratilgan edi. Qozon tatarlarini Orenburgga joylashuvi O`rtta Osiyo bilan savdo-sotiq munosabatlarini rivojlantirishda muhim turtki bo`lib xizmat qildi. Tatarlar orqali o`rtta osiyolik savdogarlar Orenburgga kelib joylasha boshlaganlar. Rus hukumatining topshirig`i bilan Orenburg ma`muriyati o`rta osiyolik savdogarlarga ma`lum bir shart-sharoit va imtiyozlar yaratib bera boshlaganlar. 1808- yil 12- maydag`i ma`lumotlarga ko`ra, Orenburgda o`rta osiyoliklardan 46 oila yashagan. Albatta, ularning hammasi savdo bilan shug`ullanmay, balki yirik savdogarlar qo`lida ish yurituvchi, etikdo`z, novvoy, cho`pon, kumushdan idishlar yashovchi usta bo`lib ham ishlaganlar. 1825- yilga kelganda Orenburgda o`rta osiyoliklar 130 oilani tashkil qilgan. Orenburgga joylashgan o`rta osiyoliklar tatarlar yordamida Rossiya shaharlarida savdo-sotiq bilan shug`ullana boshlaganlar. Chunki 1755- yil 1- dekabrdagi farmonga binoan osiyolik savdogarlarga Rossiyada savdo-sotiq bilan shug`ullanish ma`n etilgan edi. O`z navbatida Orenburg tatarlari ma`lum bir manfaatlar asosida o`rta osiyoliklar tovarlarini Rossianing ichki shaharlarida sotishga yordam beriganlar.

Yekaterina II hukmronligi (1762-1796) davrida Orenburgdag`i musulmon aholiga shart-sharoitlar yaratish bo`yicha ayrim chora-tadbirlar amalga oshirildi. Hatto 1782- yili Orenburg va boshqa janubiy guberniyalarda sharq tillarini, xususan arab tilini o`rganishga imkon yaratish bo`yicha hukumat qarori qabul qilindi. Orenburg Rossiya uchun qozoq juzlarida islomni tarqatishda o`ziga xos markaz bo`lib xizmat qilgan.

O`rta Osiyodan Orenburgga kelganlar o`z urf-odatlari, turmush tarzlarini ham olib kelganlar. Ular shuningdek, Orenburgda O`rtta Osiyo qishloq xo`jalik mahsulotlarini ham yetishtirishga harakat qilganlar. Masalan, Buxorodan keltirilgan chigit orqali Orenburgda paxta yetishtirishga uringanlar. Ammo Orenburgdag`i ob-havo tufayli paxta yetishtirish imkoniyati bo`lmagan. Lekin shunga qaramasdan, qovun va oshqovoq yetishtirishga erishganlar.

1714-1744- yillari Orenburgda maxsus “Ayirboshlash saroyi” qurilib, u yerda O`rtta Osiyo va Rossiya savdogarları o`z tovarlarini almashtirish imkoniyatiga ega bo`lganlar. Buxorodan Orenburgga oltin, kumush hamda mahalliy tangalar keltirilgan. U paytlarda paxta va shoyi matolar kamroq keltirilib, bular mahalliy ehtiyoj uchun ishlatilardi.

O'zaro savdo aloqalari rivojlanishi natijasida, 1754- yil 2- iyunda Rossiya imperiyasi Senati qaroriga ko'ra, Orenburgdagi savdo aloqalariga yarmarka maqomi berilib, rus va osiyolik savdogarlarga yalpi va yakka tartibda savdo qilish imkoniyati berildi.

Rossiyaning savdogarlari bevosita O'rta Osiyo bozorlarida savdo qilishga harakat qilganlar. Bunday sa'y-harakatlar Orenburgdagi ma'muriyat tomonidan qo'llab-quvvatlangan. Orenburgga I.I.Nepluyev (1742-1757) general-gubernatorlik qilgan davrda O'rta Osiyoga tovarlarni jo`natish taqiqlari bekor qilingan. Shu maqsadda, 1749- yili I.I.Nepluyev Xiva va Buxoroga 3 ming rublik tovarlar bilan karvon jo`natgan. Ushbu savdo karvoni o'z tovarlarini sotib, katta foyda bilan orqaga qaytgan va Orenburgga 7 pud kumush olib kelgan. Bunday natijadan ruhlangan I.I.Nepluyev yana Xivaga 20 ming rublik tovar bilan savdo karvonini tayyorlagan. Ushbu savdo karvoniga Danila Rukavkin boshchilik qilgan. Ammo ushbu savdo karvoniga Xivada ishonchsizlik bilan munosabatda bo'lganlar. Xiva xoni rus savdogarlarini uzoq vaqtgacha qabul qilmagan. Karvon bilan kelganlarni qo'riqchilar ixtiyorida saqlab, erkin savdo-sotiq olib borishlariga imkon bermaganlar. Boz ustiga xonning ayonlari tomonidan 6 ming oltin rublik tovarlarni tortib olganlar. Karvon boshlig'i 10 oy davomida Xivada ushlab turilgan, ammo savdo qilishga ruxsat berilmay, hamma tovarlari tortib olingan. Bundan xabar topgan I.I.Nepluyev Orenburgda savdo qilayotgan savdogarlarni garov tariqasida ushlab qolgan. Shundan keyin Xiva xoni Rossiya savdogarlari tovarlariga pul to`lab, savdogarlarni Orenburgga qo'yib yuborgan. Orenburgga qaytgan D.Rukavkin o'zining Xivaga qilgan safari tafsilotlarini yozib, 1776- yili nashr ettirgan. D.Rukavkin ushbu safar xotiralarida Orenburg va Xiva orasidagi masofa va qal'alar, xonlikka taalluqli quro'l-aslaha hamda ularning turlari, qaysi tillarga ehtiyoj ko'pligi, Xivada saqlanayotgan rus asirlari hamda o'zi bilan 40 yil avval asirga tushganlardan 4 nafarini ozod qilib, Orenburgga olib kelganini qayd etgan.

O'rta Osiyo va Rossiya o'rtasidagi savdo munosabatlarni rivojlan-tirshdan nafaqat Orenburg guberniyasi ma'muriyati, balki butun rus hukumati manfaatdor edi. Ammo shunisi borki, I.I.Nepluyev tomonidan Rossiya va O'rta Osiyo o'rtasidagi savdo munosabatlari rivojiga qaratilgan, 10-20 ming rublik kapitalni o'z ichiga olgan kompaniya tuzishga qaratilgan sa'y-harakat tegishli kadrlar tanqisligidan kelib chiqib amalga oshmay qolgan.

Rossiya olimlari, davlat arboblari tomonidan O'rta Osiyo hududi, iqtisodi, madaniyatiga qiziqish ortib borgan. Yuzlab va minglab yer o'lchovchilar va topograflar, kartograf va sayohatchilar, savdogarlar va turli xizmatdagi kishilar Sharqiy Yevropa, G'arbiy Sibir va hozirgi Qozog'istonning ulkan hududlarida faoliyat olib borganlar. Bu ish 1600- yilda "Katta chizma" degan nom ostida umumlashtirilib, rus noshiri N.I. Novikov tomonidan 1773- yilda chop etilgan edi. Ushbu "Katta chizma" kitobi bir muncha noaniq va ibtidoiy bo'lsa-da, hozirgi O'rta Osiyo va Qozog'istonning qator yirik geografik ob'ektlarini o'z ichiga olgan kartografik tasvirlardan iborat edi. Masalan, 500 km. uzunlikdagi Sirdaryoning kartografiyasi berilgan. Xaritada Kaspiy (Uvlin) dengizigina emas, balki Orol dengizi ("Ko'k orol") ham berilgan. Shuningdek, Orolbo'yidagi Qoraqum sahrosi borligi qayd etilgan. "Katta chizma" kitobini tuzuvchilar Sibir va Astraxandan O'rta Osiyoga boruvchi savdo yo'llarini yaxshi bilgan savdogarlardan so'rabsurishtirib bilib olingen ma'lumotlardan foydalanganlar.

O'zaro munosabatlardagi savdo-sotiq manfaatlari siyosiy munosabatlarda ham o'z aksini topgan edi. Faqatgina XVII asr mobaynida Xiva va Buxorodan 16 marta elchilar Moskvaga tashrif buyurgan bo'lsa, rus elchilari 9 marotaba O'rta Osiyoda bo'lган edilar. Odatda elchilar savdo karvonlari bilan kelardilar.

O'zaro diplomatik aloqalar ikki tomonidan o'z davrida savdo shartnomalarini tuzishga hamda savdo karvonlari o'tadigan yo'llarni har qanday taqiqlardan xoli va qaroqchilarsiz bo'lishiga erishish edi. O'rta Osiyo va Rossiya o'rtasidagi diplomatik aloqalar doimiy xarakterda bo'lmay, imzo-muhrlar qo'yilgandan keyin ham xonlar qachongacha ushbu shartnama foyda keltirsa, o'sha paytgacha kuchga ega bo'lgan. XIX asr birinchi yarmiga qadar O'rta Osiyo va Rossiya o'rtasidagi uzoq muddatli shartnormalar bo'lмаганлиги o'ziga xos xususiyatlardan biri edi.

Rossiya hukumati sharq bozoriga ahamiyatni tortishdan maqsad o'z oldiga siyosiy maqsadlarni ham qo'ygan edi. Aynan shu maqsadlar savdoning asosiy o'choqlarini mujassam qiluvchi mustahkam yo'nalishlarni yaratishni ko'zlar edi.

Tayanch so'zlar

"Toshkent mollari", miltiq dorisi (porox), quroq-aslaho, mo'yna, Buxoro savdogarları, I.Kirillov ekspeditsiyasi, qozoq juzlari, Kuchumxon, Sibir xonligi, Tobolsk, paxta, boj tizimi, savdo yo'llari, Orenburg, "Ayirboshlash saroyi", "Katta chizma".

Nazorat savollari

1. Turkiston xonliklari Rossiya bilan savdo aloqalari olib borishdan qanday manfaatdor bo'lganlar?
2. Turkiston va Rossiya o'rtasida savdo-iqtisodiy aloqalarni shakllantirish uchun qanday shart-sharoitlar yuzaga kelgan edi?
3. O'zbek xonliklari va Rossiya o'rtasidagi savdo munosabatlarda qozoq juzlari qanday o'rinn tutgan?
4. Turkiston xonliklaridan qaysi biri Rossiya bilan amalga oshirilgan savdoda yetakchi o'rinn tutgan?
5. Turkiston va Rossiya o'rtasidagi savdo aloqalarida tatarlar qanday o'rinn tutganlar?

4-MAVZU: TURKISTON ROSSIYA IMPERIYASI MUSTAMLAKA TIZIMI SHAROITIDA

Reja:

- 1. Harbiy-ma`muriy mustamlaka boshqaruvining joriy etilishi.**
- 2. Mahalliy aholi haq-huquqlari va milliy qadriyatlarining poy-mol qilinishi.**
- 3. Turkistonda Rossiya imperiyasining savdo-sotiq siyosati va boj tizimi.**

1. Harbiy-ma`muriy mustamlaka boshqaruvining joriy etilishi.

XIX asr o`rtalarida dunyoni yetakchi kapitalistik davlatlari yangi yerlar, xom-ashyo bazalari va o`z mollarini sotish uchun bozorlarni egallahsga intilishi Rossiya imperiyasi ham yangi bosqinchilik yurishlarga undadi. Rossiya imperiyasini bosqinchilik siyosatining asosiy ob`ektlari O`rta Osiyo xonliklari bo`ldi. O`sha davrdagi O`rta Osiyo xonliklarini mintaqada yakka hukmronlikka intilishi, mavjud siyosiy parokandalikdan foydalanib, Rossiya imperiyasi tomonidan xonliklar hududi qisqa muddatda birin-ketinlik bilan bosib olindi. Shu bilan birga mustamlakaga aylantirish bilan bir qatorda xalqni ma`naviy hayotiga ham jiddiy putur yetkazdi.

Rossiya imperiyasining XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi O`rta Osiyodagi strategik rejalarini tahlil etish zarur. Bu bosqinga XIX asrning birinchi yarmidayoq jiddiy kirishildi. Bosib olishga harakat Qo`qon xonligi hududiga vaqtı-vaqtı bilan bostirib kirish, keng ko`lamda joususlik ishlarini olib borish, Sirdaryoni quyi oqimlaridagi Raim (1847), G`arbiy Sibir tomondagи Kopal (1847), Oqmachit (1857), Olmaota yaqnidagi Verniy (1854) kabi strategik qulay mudofaa inshootlarini qurish bilan birga qo`shib olib borildi. Bunday mudofaa inshootlari Rossiyani Buxoro amirligi, Xiva va Qo`qon xonliklariga yanada chuqurroq kirib borishiga zamin yaratdi. Bosqinchilik yurishlarini avj olishi uchun xalqaro omil – Rossiya va Angliya o`rtasidagi keskin raqobat ham muhim ahamiyat kasb etdi. Rossiya imperiyasi qo`shinlarini bosqinchilik harakatini tayyorgarlik bosqichi O`rta Osiyo xonliklarini iqtisodiy ekspluatatsiya qilish bilan qo`shib olib borildi. Bu yangi savdo bozorlari va xom-ashyo bazasiga ehtiyoj sezayotgan Rossiya savdo sanoat doiralarini hukumat siyosatini qo`llab-quvvatlayotganidan darak beradi.

Rossiya hukumati Turkistonni boshqarishda bir-biri bilan uzviy bog`liq bo`lgan ikki tamoyilni muvofiqlashtirishga majbur bo`ldi.

Buning birinchisi – mintaqada iloji boricha Rossiya tartiblarini tezroq o`rnatish, ikkinchisi – o`z an`analari va turmush tarzida tub buriish bo`lishini xohlamaydigan xalqlar bilan munosabatlarini qanday qilib o`rnatish edi. Tabiiyki, Turkistonni boshqarish va undan siyosiy va iqtisodiy foyda olishning birdan bir yo`li, umuman Rossiyaning tuzilishini yanada aniqrog`i metropoliya tomonidan imperiyaning boshqa mustamlakalarida o`z ifodasini topgan boshqaruv usuli bo`lib, u Volgabo`yi, Sibir, Qozog`iston, Qrim, Kavkaz va boshqa bir qator joylarda Markaz manfaatlarini to`la ta`minlab turardi. Turkistonni iqtisodiy jihatdan to`la qaram qilishda bu yerda o`rnatiladigan boshqaruv usuli muhim ahamiyatga ega edi. Shuning uchun ham Rossiya imperiyasi Turkistonda boshqaruvni tashkil qilishga uni bosib olgan davrdan boshlab kirishdi. Shu o`rinda Rossiya senatori K.K.Palenning Turkistondagi mustamlakachi ma`muriyatining maqsadlarini ifodalovchi quyidagi fikrlarini keltirishimiz mumkin: “Rossiyaga qo’shib olingandan keyin o`lkada rus hukumati uchun ikki manfaat, birinchidan moliyaviy siyosat nuqtai nazaridan davlat daromadi va ichki ishlab chiqarilgan mahsulotlar uchun yangi bozor, ikkinchidan, mustamlakachilik nuqtai nazaridan imperiyani markaziy rayonlardagi zinchaholni joylashtirish uchun yangi hudud hisoblanadi”. Aslida, Turkiston harbiy strategik hudud sifatida Angliyaning Sharqqa tomon yurishiga to`sinqinlik qilish uchun Rossiyaga yanada ko`proq kerak edi.

Turkistonni Rossiya tomonidan zabit etilishi – bu amalda ikki sivilizatsiya to`qnashuvi, xususan o`lkaga yaqindan tanish bo`Imagan xristian pravoslav oqimini kirib kelishi bilan izohlanadi. Turkistonda yerli aholi madaniyatidan yiroq, tili, dini, urf-odati, an`analari bir-biriga yaqin bo`Imagan bosqinchilar hukmronligi boshlandi.

Turkistonni Rossiya imperiyasi tomonidan zabit etilishi boshqaruv tizimini ham metropoliya manfaatlariga bo`ysundirdi. Yangi boshqaruv asoslari Rossiya manfaatlariga moslashtirilib, mintaqada an`anaviy qaror topgan boshqaruvni, milliy asosdagi tizimni qo`porib tashlandi.

1865- yil 2- martda Rossiya Senatining Orenburg general-gubernatorligi tarkibida Orol dengizining Issiqko`lgacha bo`lgan O`rta Osiyo xonliklari bilan chegaradosh hududlarda Turkiston viloyatini tashkil qilish to`g`risidagi farmoni e`lon qilindi. O`sha paytda bu hududda 453 ming kishi istiqomat qilar edi. Turkiston viloyati uch bo`limga: o`ng qanot, markaz va chap qanotga bo`lingan edi.

O`ng qanot: Aralsk (keyinchalik Sirdaryo nomini olgan), 1-fort keyinchalik Kazalinsk va Perovsk shaharlari,

Markaz: Turkiston va Chimkent rayonlari.

Chap qanot: Avliyotepa, Marke va Pishpak shaharlari.

Turkiston viloyatining ma'muriy markazi qilib dastlab Chimkent shahri belgilandi. Toshkent rasman Rossiya tarkibiga kiritilgunga qadar, bu shahar Turkiston viloyatining ma'muriy markazi bo'lib turgan. Rossiya imperiyasiga rasman qo'shib olingandan e'tiboran. Toshkent va uning atrofi Toshkent rayoni deb atalgan alohida ma'muriy birlikni tashkil qildi. 1866- yili Turkiston viloyati tarkibida yerlar va Zomin bo'limlari, O'ratega va Jizzax rayonlari tashkil qilindi.

1865- yil 2- martda yangi Qo'qon chegarasining qo'mondoni M.G.Chernyayev idorasida "O'rta Osiyo chegara viloyati to'g'risidagi Nizom loyihasi" ishlab chiqarildi va mazkur hujjat 1865- yil 6- avgustda "Turkiston viloyatini boshqarish to'g'risidagi muvaqqat Nizom" nomi bilan bosilib chiqdi. Mazkur hujjatga ko'ra Orenburg general-gubernatorligi tarkibida Orol dengizidan Issiqko'Igacha bo'lgan O'rta Osiyo xonliklari bilan chegaradosh hududlarda Turkiston viloyati tashkil qilindi, uning gubernatori qilib M.G.Chernyayev tayinlandi. Hujjatni asosiy qismi K.P. fon Kaufman tomonidan ishlab chiqildi va ma'muriy boshqaruvi "Harbiy xalq boshqaruvi" deb ataldi. Bu Turkiston viloyatida harbiy tartiblar asosida ishlab chiqilgan ma'muriy-hududiy boshqaruvi tizimi joriy qilinganligini bildirar edi. Shuning uchun ham Rossiya imperiyasi bosib olingen hududlarda hukmronligini mustahkamlash uchun dastlab o'lkada harbiy-strategik inshootlar qurildi. Ular harbiy harakatlarni tayanchi, quroq-yaroq, harbiy kuch va himoyalanish maskanlari rolini bajargan. Mustamlaka ma'muriyatini harbiy kuchlari asosan Toshkent, Samarqand, Farg'on'a kabi katta shaharlarda va harbiy istehkornlarda joylashtirildi.

Turkiston viloyatining ko'chmanchi aholisi urug'lar, bo'limlar va guruhlarga bo'linardi. Urug'larni urug'boshilar -- manaplar, sultonlar va katta biylar; bo'limlarni -- biylar; guruhlarni -- to'g'ochlar boshqaradilar. Sulton, manap va biy unvonlari asosan otadan bolaga meros bo'lib o'tardi. Ammo shunga qaramay, sulton, manap va biylarning o'rniga saylangan yangi shaxslar mahalliy aholi boshqaruvchisi, rus harbiy amaldorining tasdig'idan o'tishlari lozim edi.

Turkistonda o'troq aholi uchun qozilik sudsari, ko'chmanchi aholi uchun esa biylik sudsari xizmat qiladigan bo'ldi. Qozikalon lavozimi bekor qilinib, barcha qozilarning huquqlari tenglashtirildi. Qozilarni uch yilda bir marta saylash tartibi joriy qilinib, da'vogarga arizasini ko'rib

chiqishlari uchun o`zi ko`proq ishongan qoziga murojaat qilish huquqi berildi.

Rossiya hukumati o`z tarkibiga mustamlakalarni kiritar ekan eng avvalo arzon va samarali boshqaruv hamda mustamlaka ekspluatatsiya tizimini yaratishga kirishdi. Rossiya imperiyasi Turkistonni bosib olishga kirishar ekan bu yerlarda qanday boshqaruvni tashkil qilish to`g`risida aniq bir loyihasi ham yo`q edi. Ana shunday bir vaziyatda Turkistonni ma`muriy qurilishini tartibga solishga qaratilgan hujjatlar ishlab chiqish vazifasi rus harbiy qo`mondonligi qo`liga o`tdi. Mazkur hujjatga ko`ra o`lkada harbiy tartiblarga asoslangan boshqaruv 1867-yilda “Sirdaryo va Yettisuv viloyatlarini boshqarish to`g`risidagi Nizom” loyihasiga ko`ra “Harbiy xalq boshqaruvi” va 1886- yilda “Turkiston general-gubernatorligini boshqarish to`g`risidagi” Nizom loyihasiga ko`ra “ma`muriy-politsiya” boshqaruvlari o`matildi.

Rossiya imperiyasi hukumati Turkistonni boshqarish uchun bir necha Nizom loyihalari ishlab chiqdi. Bu loyihalar 1865, 1867, 1871, 1873, 1882, 1884, 1886, 1908, 1912, 1916- yillarda amalga oshirildi.

Bundan ko`rinib turibdiki, Turkistonda joriy qilingan boshqaruv tartibi Rossiya imperiyasining siyosiy, iqtisodiy manfaatlarini himoya qilib o`lkada imperiya manfaatlariga zid keladigan har qanday qarshilikni harbiy yo`l bilan bostirish, yerli aholini doimiy tobekilda ushlab turish, imperiyaning savdo-sotiq, sanoat, moliya-bank sohalari xavfsizligini ta`minlashdan iborat bo`lgan.

Turkistondagi boshqaruv 1865-1917- yillar davomida bu vazifani yetarli darajada bajardi. Nafaqat bajardi, balki sovet hokimiyatining boshqaruv masalalari va o`lkaga nisbatan siyosatni poydevori bo`ldi.

Rossiya imperiyasi uchun Turkiston o`lkasi juda katta hududga ega mustamlaka hisoblanib, uning hududi ayniqsa K.P. fon Kaufman hukmronligi davrida yanada kengaydi. Buni quyidagi raqamlardan ham bilishimiz mumkin. 1867- yilda mustamlakaga aylantirilgan hudud 15,270 kv. mil bo`lgan bo`lsa, 1868- yilda Zarafshon okrugi yerlari 2000 kv. mil maydonga, 1870- yilda Zarafshon daryosini yuqori oqimidagi bekliklar hududi 266 kv. mil maydonga ega bo`lgan. 1871- yilda G`ulja 1.224 kv. mil hududga, 1873- yilda Xiva xonligiga qarashli bo`lgan yerlar esa 1.920 kv. mil hududga ega bo`lgan. 1875-1876- yillarda Qo`qon xonligining yerlaridan jami 5.380 kv. mil bo`lgan hudud bosqinchilik yo`li bilan qo`sib olingan. Buning natijasida Turkiston general-gubernatori orli yerlari 20.650 kv.mil ga yetdi. Aholisi esa K.P. fon Kaufman hukmronligining boshida 1.060.000 kishi bo`lgan bo`lsa,

uning hukmronligining oxirida 3 mln. kishiga yetgan (G'ulja aholisidan tashqari). Turkistondagi rus aholisi esa harbiylardan tashqari 24 ming-dan 65 ming kishiga yetgan.

1867- yil 14- iyunda Turkiston general-gubernatorligi tashkil qilingach, uning tarkibiga G'arbiy Sibir general-gubernatorligi tasarrufida bo'lgan Semipalatinsk viloyati hududining bir qismi kiritildi. Chegara chizig'i Semipalatinsk viloyati chegarasidan Balxash ko'lining o'rta sigacha, undan esa Irtish daryosi bo'yidan cho'zilib Sarisuv daryosiga qadar davom etar edi. Orenburg general-gubernatorligi bilan chegara chizig'i Perovsk ko'rfazi o'rta sigacha, Terimbek tog'iga, undan Terken, Qolmas, Muzbil, Oqqush, Cho'bartepa tog'lari bo'y lab Mo'yin qumning janubiy etaklari va Sarisuv daryosi, Chu daryosi bilan qo'shilgan joyga qadar yetardi.

Tashkil qilingan dastlabki davrlarda Turkiston general-gubernatorligi yerlari ikki viloyat (Sirdaryo va Yettisuv) dan iborat edi. Lekin keyinchalik bosib olingan hududlarda yana 3 ta viloyat tashkil qilindi. 1865-1886- yillarda Turkiston general-gubernatorligi quyidagicha ma'muriy jihatdan bo'lingan edi. Hammasi bo'lib 5 ta viloyat Sirdaryo, Yettisuv, Samarqand, Farg'ona va Kaspiyorti viloyatlariga bo'lingan. Sirdaryo viloyati – Toshkent, Avliyoota, Kazalinsk Perovsk Chimkent uyezdlari va Amudaryo bo'limidan, Yettisuv viloyati – Verniy, Jarkent, Kopal, Lepsinsk, Pishpek va Prejevalsk uyezdlaridan, Farg'ona viloyati – Qo'qon, Andijon, Marg'ilon, Namangan va O'sh uyezdlaridan, Samarqand viloyati – Samarqand, Jizzax, Kattaqo'rg'on va Xo'jand uyezdlaridan, Kaspiyorti viloyati – Ashxabod, Krasnovodsk, Mang'ishloq, Mari va Tajan uyezdlaridan tashkil topgan edi.

Hududni tashkillashtirish tizimidagi eng quyi bo'g'in – bo'lis (volost) hisoblanar edi. Lekin bo'lis faqatgina Farg'ona va Zarafshon okrugida bir muncha izchil joriy qilindi. Ko'chmanchi aholi ko'p joylarda bo'lislar bilan bir qatorda aholi o'troq yashaydigan joylarda oqsqolliklar ham joriy qilindi. Bunga yaqqol misol tariqasida Xo'jand uyezdini olish mumkin. Mazkur uyezd uchta – Xo'jand, O'ratega va Jizzax rayonlariga bo'linardi. Shunga e'tibor berish kerakki, Rossiya imperiyasi tomonidan Turkistonda amalga oshirilgan ma'muriy hududiy bo'linishda milliy xususiyatlar hisobga olinmadi. U haqli ravishda byurokratik – g'azna ahamiyatiga molik deb atalgan hududlarni tashkillashtirish bo'yicha umumimperiya tadbirini qonuniy davomi bo'ldi.

Turkiston general-gubernatorligi harbiy asosda tashkil qilinib, harbiy zabitlar tomonidan boshqarilgan. Turkiston general-gubernatorligi imperianing markaziy rayonlarida bo`lgani kabi Ichki ishlar vazirligiga emas, balki Harbiy vazirlikka bo`ysundirilgan. Bunga asosiy sabab o`cta osiyoliklarni har qanday noroziliklarini yo`q qilib tashlash edi. Chunki Rossiya imperiyasining “taraqqiyot olib kirish” borasidagi rejalar ancha murakkab bo`lib chiqdi.

Minglab kishilar Rossiya imperiyasi agressiyasiga qarshi kurashga otlandilar. Biror bir ahamiyatga molik shahar jangsiz taslim bo`lmadi. “Osiyoliklar, albatta O`cta Osiyodagi harbiy harakatlarimiz qonli solnomasini dahshatlarini juda yaxshi biladilar, - deb yozadi o`sha voqealari davrida yashagan M.Zinovyev, - biroq shunday bo`lsada, yo`limizda uchragan barcha shahar va qal`alarni kuch bilan olishimizga to`g`ri keldi”.

Turkiston general-gubernatorligining birinchi gubernatori K.P. fon Kaufman juda katta huquq va vakolatlar oldi. U yuridik jihatdan chegaralanmagan hokimiyatga ko`ra, Turkistonning besh millionlik xalqini xohlagancha boshqarar edi. Ushbu boshqaruv Rossiya amaldorlarini butun boshli iyerarxiyasini byurokratik mashinasi yordamida amalga oshirilar edi. Ushbu byurokratik mashinada bosh bo`g`in 1867- yil tashkil etilgan Turkiston general-governatorining kanselyariyasi edi. U ijroiya organi hisoblanib, shtat va inspektorlik yer va soliq majburiyatları, yo`l qurilishi va tog`-kon ishlari masalalari, Rossiyaning Buxoro va Xiva xonliklari ustidan protektorati, qo`shni Sharq mamlakatlari bilan aloqa qilishga doir masalalarni hal qilish bilan shug`ullanar edi. Mazkur kanselyariyaning roli ayniqsa o`lkani boshqarish borasidagi turli me`yoriy hujjatlarni tayyorlash va joriy qilishda juda katta edi. Kanselyariya faoliyati o`lkani ma`muriy, iqtisodiy, moliyaviy, xo`jalik va nazorat qilishdan iborat bo`lgan, kanselyariya faoliyatida vazifani bajarish huquqi berilgan lavozimlarga tayinlash; qo`l ostidagi joylar va shaxslarni nazorat qilish; ishlarni hal qilish va qonunlarning bajarilishi yuzasidan choralar ko`rish, “yuqori boshliqlarga taqdim qilish” bilan shug`ullangan farmoyish bo`linmasi muhim o`rin tutgan. Kadrlar masalasi bilan faol shug`ullangan.

Viloyatlardagi mahalliy ma`muriyatni harbiy gubernatorlar boshqarar edi. Ular bir vaqtning o`zida u yoki bu viloyatda joylashtirilgan qo`shin sonidan kelib chiqib korpus yoki bir diviziya qo`mondoni ham hisoblanar edi. Ular muhim mahalliy davlat muassasaslari hisoblanar edi. Ular kollegial organ bo`lib ma`muriy va xo`jalik boshqaruvini

amalga oshirishda “1867- yilgi muvaqqat Nizom loyihasi”ga hamda general-gubernatorining maxsus ko`rsatmalariga amal qilar edi.

Viloyat boshqaruvi raisi vazifasini harbiy gubernator yordamchisi bajarar edi. Viloyat boshqaruvlari ma`muriy sudlov, politsiya, moliya va xo`jalik yuritish funksiyalarini bajarar edi. Mohiyatan ular guberniya boshqaruvini takrorlashardi, biroq ularga nisbatan keng vakolatlarga ega edi. Viloyat boshqaruvlari tuzilishiga ko`ra bo`linmalardan tashkil topgan bo`lib ularni soni vaqt o`tishi bilan ortib borardi.

Ilmiy, texnik tibbiy hamda u yoki bu viloyat uchun muhim sanalgan boshqa masalalarni hal qilish uchun viloyat boshqaruvlari qoshida hozirlik kengashlari tashkil qilindi. Ushbu kengashlarda maslahatchi va ekspertlar sifatida ish olib borish uchun mutaxassislar taklif etilar edi.

Viloyatlar uyezdlarga bo`linib, uyezdlar o`lkada general-gubernatorlik ma`muriy tuzilmasining o`zagi hisoblanar edi. Uezd boshliqlari viloyat harbiy gubernatori taqdimnomasiga ko`ra general-gubernator tomonidan tayinlanib, ishdan olinar edi. Uezd boshlig`i bir vaqtning o`zida ispravnik, politsmeystr, zemestvo boshlig`i, shahar hokimi, yer soliq xizmati raisi ham edi. Ma`muriy ishlar bo`yicha yordamchi odatda uyezd kanselyariyasini boshqarar edi.

Uezd ma`muriyati joylardagi barcha ishlarni rejalashtirib, muvofiqlashtirar edi. Tizimning bu bo`g`iniga g`azna obrok ishlarini nazorat qilish, soliqlarni hisoblash, ichki tartibni kuzatish, yer-suv tufayli kelib chiqqan nizolarni hal qilish kabi vazifalarni amalga oshirar edi.

Uezd boshlig`i jamiyat ijtimoiy va iqtisodiy hayotining deyarli barcha sohalarida monopoliyachi hisoblanib, Rossiya imperiyasi siyosatining mohiyati va ruhini uyezd miqyosida hayotga tatbiq etar edi. Bu vaqtga kelib Turkistonni Toshkentdan boshqa shaharlarida o`zini-o`zi boshqarish organlari tashkil qilinmagan edi. 1867- yilgi muvaqqat Nizomga ko`ra jamoat ishlari shaharlarda saylanuvchi ma`muriyat tomonidan amalga oshirilar edi. Shaharlar qismlarga bo`linib, ularni oqsoqollar boshqarar edi. Ular soliq yig`ish va majburiyatlarni taqsimlash bilan shug`ullanar edi. 1876- yili K.P. fon Kaufman far moyishi bilan shahar xo`jalik boshqarmalari bekor qilindi va shahar xo`jaligi rus uyezd ma`muriyati nazoratiga olindi.

Uezdlar o`z navbatida volostlarga, o`troq aholi yashaydigan volostlar oqsoqolliklarga bo`lingan. Ko`chmanchi aholi yashaydigan volostlar esa ovullarga bo`linib boshqarilgan. Volostlar 1000-2000

xonadon (yoki o`tov)dan, oqsoqollik (yoki ovullar) 100-200 xonadon (yoki o`tov)dan iborat qilib tashkil qilingan. Ko`chmanchi aholining ma`muriy-hududiy bo`linishi ularni tarixiy urug`chilik munosabatlariiga emas, balki o`tovlarni soniga qarab bo`lib yuborilgan. Qishloq qurultoyiga qishloq boshqaruvchisi, xalq sudyalarini va ularga nomzodlarni saylash, quyi ma`muriyatlarning mansabdor shaxslariga maosh belgilash; ko`priklar, yo`llar, xo`jalik qurilmalarining holatini nazorat qilish; suvdan foydalanish va suv ta`minoti ishlarini boshqarish huquqi berilgan edi.

Lekin o`lkani shu darajada mukammal boshqaruv tartibi o`rnatilsa ham XIX asrning 60-80- yillarda Turkistonni mustamlaka sifatida ekspluatatsiya qilishning shakl va usullari to`g`risidagi qarama-qarshi tasavvurlar vujudga keldi. Shu sababdan ham 1881- yilda harbiy vazirlikda Turkiston general-gubernatorligi sarf-harajat smetasi ko`rib chiqilayotganida boshqarish bo`yicha harajatlarni qisqartirish va uning daromadini oshirish zarurligiga to`xtab o`tildi. 1882- yilning 8- mayida general-leytenant M.G.Chernyayev taklifi bilan Turkistonni taftish qilish komissiyasi tuzildi. Komissiyaga F.K.Girs rahbar etib tayinlandi. Taftish komissiyasining hisobotlariga ko`ra, 1884- yili 21- yanvarida imperator Aleksandr III ning ko`rsatmasi bilan Davlat kengashi a`zosi, general-ad`yutant, graf N.Ignatev raisligida “Turkiston o`lkasini boshqarish to`g`risidagi Nizomni qayta ishlangan loyihasini ishlab chiqish” bo`yicha komissiya tashkil qilindi. Ushbu komissiya o`sha paytgacha to`plangan barcha loyihalar, xatlar va hisobotlar asosida Nizomning beshinchchi loyihasini tayyorladi. Nizom quyidagilarni nazarda tutar edi.: general-gubernatorlikning hududiy birliklari nomlarini o`zgartirish va ularni unifikatsiya qilish, general-gubernatorning vakolatlarini chegaralab qo`yish, o`lka, viloyat va uyezd hokimiyatini, uning sud va davlat muassasaslari ishiga aralashuvini chegaralash tomoniga bir qadar o`zgartirish.

Imperator tomonidan “Turkiston o`lkasini boshqarish to`g`risidagi Nizom” 1886- yil 12- iyunda tasdiqlangandan so`ng ham bu sohadagi qarama – qarshiliklar davom etdi. Yuqorida ko`rib o`tilganidek, mazkur nizom general-gubernatorlik tamoyillarini saqlagan holda unga ba`zi bir o`zgartirishlarni kiritdi. “Turkiston o`lkasini boshqarish to`g`risidagi Nizom” bo`yicha Turkiston viloyatlarga bo`linishi, harbiy vazir fikricha “aholini etnografik maishiy va iqtisodiy shart-sharoitlarini o`rganish asosida emas, balki o`lkani bosib olish jarayoni bilan bog`liq holda

amalga oshirildi. Mazkur Nizom turli o`zgartirishlar bilan 1917- yilga qadar amalda bo`ldi.

2. Mahalliy aholi haq-huquqlari va milliy qadriyatlarining poymol qilinishi. Ko`pgina o`zgartirishlar qatori o`lkadagi sud tizimiga ham katta e`tibor berildi. Unga ko`ra o`lkadagi mavjud sud tizimlari saqlab qolningani holda unga ayrim o`zgartirishlar kiritildi. Tuman sndlari bekor qilinib ularni o`rniga murosa (mirovoy) sudlar tashkil qilindi. O`lkada viloyat sndlari tashkil qilinib, ularga mirovoy sudyalar vazifalari yuklatildi.

Viloyat sudi avvalgi viloyat boshqarmalari huquqlarini oldi va murosa sndlari hal etuvchi masalalarni ko`rish huquqiga ham ega bo`ldi. Viloyat prokurori va uning o`rindoshi, sud tergovchisi lavozimlari joriy qilindi. Nizom rasmiy ravishda sud hokimiyatiga mustaqillik bergen bo`lsa ham, amaida u bir butun hokimiyatni o`z qo`llarida tutgan harbiy ma`muriyatning kuchli ta`sirida qolaverdi.

Imperiya sndlarda rus hokimiyatiga bevosita va bilvosita qarshi qaratilgan mahalliy aholi vakillari ishlari ko`rilgan. Noqonuniy ishga qo`l urgan o`zbeklarni ishlari shu sndlarda ko`rilgan.

1886- yilgi Nizomni joriy qilinishi bilan mustamlaka ma`muriyatining iqtisodiy sohadagi funksiyalarini asta-sekin cheklanish jarayoni boshlandi. Bu harbiy vazirlikka emas, balki boshqa mahkamatlarga, eng avvalo moliya vazirligi, dehqonchilik va davlat mulklari vazirligi, ichki ishlar vazirligiga bo`ysundiruvchi ko`plab boshqarmalarni tashkil qilinishida o`z aksini topdi. Bu bilan Rossiya imperiyasi o`z mustamlaka mulklarining daromadlarini oshirishni ko`zlagan edi. 1886- yilda Toshkentda aksiz boshqaruvining ochilishi ham aynan shu ishga ko`maklashishi lozim edi. Shu davrda Rossiya davlat banki va tijorat banklari filiallari tarmog`i yanada kengaydi. 1890- yili Samarqandda, 1893- yili Qo`qonda, 1894- yili Buxoroda Buxoro bankining filiallari ochildi. Shunday qilib o`lka boyliklarini jon - jahdi bilan tashib ketishga asoslangan boshqaruv joriy qilindi.

Boshqaruvda tub aholi vakillarining faoliyat doirasi ijtimoiy – iqtisodiy sohanigina qamrab olib, ularni siyosiy faoliyat olib borishiga yo`l qo`yilmagan.

Mustamlakachi hukumatning ma`muriy-hududiy sohadagi olib borgan bunday siyosati natijasida o`lkadagi turli millat, elat va urug`larni har xil ma`muriy-hududiy birlashmalarga bo`lib yuborilgan. Bunda mustamlakachilarning “Bo`lib tashla, hukmonlik qil” shiori asosida ish olib borgani aniq ravshan bo`ladi. Bu hol aholining

ko`chmanchilik munosabatlari asosida shakllangan boshqaruv tizimining tarixiy - milliy an`analariga ta`sir qilgan. Xususan, bir urug' tarkibida bo`lib kelgan aholi turli ovul, volost, uyezd, hattoki turli viloyatlar tarkibiga bo`linib ketgan. Binobarin, Turkistondagi imperiyani bo`linish sohasidagi siyosati o`troq aholini hududiy bo`linishiga nisbatan ko`chmanchi aholida ko`proq o`zgarishlar bo`lgan.

O`rta Osiyoni zabit etilgan hududlari qattiq nazorat va tobelikda ushlab turilgan. Mahalliy aholi vakillari boshqaruvining quyi bosqichidagi volost boshlig'i, qishloq oqsoqoli, qo`rboshi, ellikboshi, o`nboshi, mirobboshi, ariq oqsoqoli, mirob, qozi, mirshab singari lavozimlarda ishtirok etganlar. Lekin, boshqaruvning quyi bosqichidagi mahalliy aholi vakillariga umuman mablag' ajratilmagan.

Rossiya imperiyasi hukmron doiralari bosib olingen hududdan mustamlaka sifatida foydalanishda va shu hududlarda o`z hukmronligini to`liq o`rnatishda, mahalliy aholini tobelikda ushlab turishda o`sha davrgacha mustamlakachilik sohasida jahon miqyosida to`plangan tajribalar o`rganib chiqilgan, mustamlakachilik sohasida erishilgan yutuqlardan unumli foydalanishga harakat qilindi. Masalan, Angliyaning Hindistondagi mavjud, hududiy, diniy, etnik qarama-qarshiliklar, ijtimoiy kelishmovchiliklardan foydalanish hamda, mahalliy boylar, savdogarlar, ruhoniylarni o`z manfaatlari yo`lida xizmat qildirish tajribalaridan to`la foydalanildi. Aytish mumkinki, bu sohada Rossiya imperiyasining Turkistonda olib borgan mustamlakachilik siyosati boshqa imperiyalarni o`z mustamlakalarda olib borgan siyosatidan farq qilмаган.

Turkistonda joriy qilingan boshqaruv tizimi Rossiya imperiyasining markaziy rayonlaridan aholini o`lkaga ko`chirib keltirish siyosatini amalga oshirishda muhim o`rin tutadi. Ko`chirib keltirish siyosatining maqsadi mustamlakaga aylantirilgan hududlarda podsho hukumatini mustahkamlash bo`lib, Rossiya Dumasi a`zosi Tregubovning fikricha, "ko`chirishdan uchta maqsad ko`zda tutilgan, birinchidan markaziy Rossiyadagi yersiz dehqonlarni yer bilan ta`minlash, ikkinchidan, Turkistondagi hosildor yerlardan unumli foydalanish, uchinchidan va eng asosiysi, imperianing chekka hududlarida Rossiya hukmronligini mustahkamlashdan iboratdir".

Rossiya imperiyasining ko`chirish siyosati natijasida "1882-1900-yillarda Farg`ona viloyatida 20 dan ortiq rus posyolkalari tashkil qilingan. O'n besh yil ichida esa oltmishdan ortiq posyolka paydo bo`lgan".

Turkistonga imperiyaning markaziy guberniyalaridan aholining ko'chirib keltirilishi va hosildor yerlarning zo'ravonlik bilan tortib olinishi ko'plab norozilik harakatlariga sabab bo'lgan. Turkistonga imperiyaning markaziy rayonlaridagi aholining ko'chirilishining yaxshi va yomon taraflari bor edi. Turkistonda tashkil qilingan mustamlakachilik boshqaruv tizimi o'lkanning yer zahiralari va qazilma boyliklari, paxta xom-ashyosini Rossiya sanoati manfaatlari uchun xizmat qildirish vazifasini bajardi. Bu holat o'lkadagi ishlab chiqarishning umumiyligi taraqqiyotiga to'sqinlik qilib, bir tomonlama, ya'ni mustamlakachilarning iqtisodiy manfaatlari bo'yusundirildi. Bunday siyosat o'lkadagi boylarning talon-taroj qilinishiga, yerli aholining ahvolini yomonlashishiga, paxta yakkahokimligini vujudga kelishiga va boshqa ekin turlarini qisqarib ketishiga olib keldi.

Xullas, Rossiya imperiyasining siyosiy, iqtisodiy sohalarda olib borgan siyosati natijasida Turkiston o'lkasi XIX asr oxirida Rossiya imperiyasining tom ma'nodagi mustamlakasiga aylangan.

Turkistondagi mustamlaka boshqaruv tizimi o'lkada soliq yig'ib olishda ham muhim o'rinni tutadi. Soliqlarni yig'ib olish va tartiblar asosan avvalgidek saqlab qolningan. Ya'ni xonliklar davridagi soliq yig'ish, daromad belgilash mezonlariga amal qilib mahalla oqsoqollari, aminlar, qozilar yordamida soliq yig'ish tizimi saqlab qolningan. Asosiy farqi yig'ilgan mablag'lari xon xazinasiga emas, balki general-gubernatorlik xazinasiga tushgan.

Mustamlaka boshqaruv tartiblari, boshqaruv ma'murlarining noqonuniy ish olib borishlari, tub joy aholisining kamsitishlar, shaxsiy manfaatlari yo'lida suiste molchilik va jabr-zulmlari ko'plab norozilik-larga sabab bo'ldi.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida Rossiya imperiyasi tomonidan Turkistonda joriy qilingan boshqaruv tizimi tom ma'noda mustamlakachilik mohiyatiga ega bo'lgan Rossiya imperiyasining Turkistondagi ma'muriy hududiy boshqaruv sohasidagi siyosati tahlili natijasida quyidagi xulosalarni keltirib chiqarishi mumkin:

– Turkistonda XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi tomonidan harbiy asosda boshqaruv tartiblari joriy qilindi;

– joriy qilingan hududiy boshqaruv tartiblari o'lkada imperiyaning siyosiy, iqtisodiy va geopolitik manfaatlari himoya qilishga qaratilgan;

– mustamlakachilikni dastlabki davrida o'lkada o'matilgan boshqaruvning quyi bosqichida yerli aholi vakillari Rossiya imperiyasini Turkistondagi siyosiy, iqtisodiy sohalaridagi rejalarini amalga oshirish

uchun quyi boshqaruvda “ijrochi” va ijtimoiy - iqtisodiy hayotni tartibga solib turish uchungina saqlab qolingga.

Rossiya imperiyasi Turkistonni zabit etgandan mahalliy – yerli aholi urf-odat hamda diniy e`tiqodlariga aralashmaslik siyosatini tutdi. 1865- yil iyunidayoq, M.G.Chernyayev tomonidan Toshkent bozorlarida shahar aholisiga murojaat qilib, aholining urf-odat hamda e`tiqodlariga dahlsiz bo`lishi, shuningdek, yerli aholini harbiy xizmatga chaqirmaslik, xonadonlarni tortib olmaslik, shariat sudini saqlab qolish, o`zboshim-chalik bilan aholini soliqqa tortmaslik va o`z so`zini isboti tariqasida toshkentliklarni bir yilga hamma soliq va yig`imlardan ozod qilgan.

M.G. Chernyayev o`miga tayinlangan harbiy gubernator D.I. Romanovskiy birinchilardan bo`lib 1866- yildayoq hukumatga Turkistonga koloniya sifatida qaramaslikni, o`lkani imperianing tarkibiy qismiga aylantirish va Rossiyaning o`zida burjua islohotlari jarayonida yuzaga kelayotgan davlat muassasalari tizimini bu yerda ham sekin-asta yaratib borishni taklif qildi.

D.I. Romanovskiy Toshkent musulmon ruhoniylarining shaharning quyi ma`muriyatiga ta`sirini cheklashga urinib ko`rdi. Ushbu maqsadda uning tashabbusi bilan Toshkentda mahkama nomini olgan o`ziga xos muassasa tashkil qilindi. Rasman u qozilik sudi o`miga kelgan kollegial sudlov organi hisoblanardi. Mahkama sudlov funksiyalari bilan bir qatorda sof munitsipal funksiyalarni ham bajara boshladi.

1866- yili harbiy vazir D.A.Milyutinning tashabbusiga ko`ra joylarda ahvol bilan tanishish uchun, Turkiston viloyatiga maxsus komissiya jo`natildi. Uning a`zolari vaziyatni o`rganib chiqib, viloyatni Orenburg general-gubernatorligidan ajratish va mustaqil boshqaruvni tashkil qilishning maqsadga muvofiqligi to`g`risida xulosa chiqardilar. Orenburg general-gubernatori N.A.Krijanovskiy bunga o`z e`tirozida: “...avval Rossiya tomonidan yangi qo`lga kiritilgan o`lkada mustahkam o`nashish. aloqa yo`llarini yaxshilash, Turkiston viloyatida ruslashitishni amalga oshirish va shundan so`ng alohida boshqaruvni joriy qilish lozim” deb hisoblagan.

Turkistonda yerli aholi tomonidan rus tilini o`rganishga intilish juda yuqori darajada bo`limgan. Masalan, Turkistondagi ta`lim masalasi bo`yicha 1909- yil 27- avgustdaggi majlisda general-leytenant A.V. Samsonov ishtirokchilar e`tiborini o`lka bo`ylab yurganida mahalliy aholi vakillari o`z ona tillarida murojaat qilganiga qaratib, Turkiston zabit etilganiga 40 yildan ortganiga qaramasdan, shu paytiga

qadar rus tilini o`rganish musulmon aholisi orasida yetarli darajada emas deb o`z afsusini bildiradi.

Ayni paytda Turkiston general-gubernatorligi ma`muriyati ham mahalliy xalq tili, urf-odat, turmush tarzini o`rganish ishlariga befarqlik bilan yondashganlar.

Rossiya imperiyasi o`z oldiga o`lka xalqiga yevropacha sivilizatsiya olib kirish missiyasini qo`ygan edi. Ammo shuni qayd etish lozimki, Rossiya imperiyasi o`z oldiga yerli xalq oldida birinchi navbatda o`z-kuch qudratini ko`rsatish va undan keyingina hurmatga sazovor bo`lish mumkin deya hisoblar edi. Bosqinchilikning o`ziga xos xususiyatlardan biri shu ediki, ruslar amalda Turkistonni zabit etishdan avval o`lka aholisi, urf-odat, an`ana va tilini yaxshi o`rganmay bu vazifalarни yo`l-yo`lakay (bosqinchilik jarayonida - mual`iiflar), joylarda va hatto qo`lda quro`l bilan o`rgandilar.

Rossiya imperiyasi Turkistonning yerli aholisini harbiy majburiyatdan ozod qilib, ulardan buni o`rniga pul yig`ishni joriy etgan. Nima uchun Turkistonning yerli aholisi harbiy xizmatdan ozod qilingan, degan savol tug'iladi? Chunki Rossiya imperiyasi ma`muriyati o`lkaning yerli aholisiga quro`l-yarog' berishdan qo`rqan. Yerli aholi qo`liga berilgan quro`l, oxir-oqibatda rus bosqinchilarining o`ziga qaratilishi ham mumkin edi. Turkiston general-gubernatorligi tomonidan Rossiya harbiy vazirligiga murojaat qilib, imperatordan nafaqat o`lka yerli aholisini, baiki o`lkaga ko`chib kelgan – kelayotgan rus aholisini ham askarlikka jalb qilmaslik bo`yicha ruxsat olib berishni so`ragan. Chunki bunday tartibni joriy etilishi, rus aholisini Turkistonga ko`proq ko`chib kelishga undaydi, deb fikr yuritilgan. Bu murojaatlar natijasi o`laroq, 1890-yildan boshlab Turkistonda tug'ilgan ko`chib keltirilganlar farzандлari, ko`chib kelganlarning o`sha paytda yoshi 15 dan ortmaganlari harbiy majburiyatdan ozod qilingan.

Turkistonni zabit etish jarayonida Rossiya o`z harbiylari sonini yildan - yilga orttirib borgan. 1879- yil ma`lumotlariga ko`ra, Turkiston harbiy okrugi tarkibini 1402 nafar yuqori bo`g`in zabitlari, 46465 nafar quyi bo`g`indagi harbiylar tashkil qilgan. Agar o`sha paytda Turkiston aholisi 3088119 kishini tashkil qilgan bo`lsa, bu o`lka aholisining 65 nafariga 1 nafar soldat to`g`ri kelganligidan dalolat beradi. Rossiya imperiyasi qo`shinlarining ahvoli inglizlarning Hindistondagi holatidan yaxshiroq holatda bo`lgan, chunki u yerda 3000 nafar hindga 1 ta soldat to`g`ri kelgan.

Rossiya imperiyasi Turkiston aholisini bosqinchilarga qarshi bosh ko'tarib qolishidan ma'lum darajada cho'chigan. Shuning uchun ham Turkiston viloyatlarida mahalliy aholi tomonidan ruslarga qarshi isyonlarga qarshi mudofaa ishlariiga xristian erkaklardan zahira kadrlar tayyorlashni maqsadga muvofiq deb topgan. Masalan, 1904- yilda "o`z-o`zini himoya qilishga tayyorlash" ishlariiga Sirdaryo viloyatida 3482, Samarqand viloyatida 2056, Kaspiyorti viloyatida 2659, Farg'ona viloyatida 1907, Yettisuv viloyatida esa 2543 va umuman Turkiston o'lkasi bo'yicha 12647 nafar erkak xristianlar harbiy zahiraga tayyorlangan.

Rossiya imperatori Nikolay II ning 1916- yil 25- iyundagi "Imperiyadagi rus bo'limgan erkak aholini harakatdagi armiya rayonida mudofaa inshootlari va harbiy aloqa yo'llari qurish uchun olib boriladigan ishlarga, shuningdek, davlat mudofaasi uchun zarur bo'lgan boshqa har qanday ishlarga jalb qilish haqida"gi farmoni Turkiston o'lkasida katta g'alayonlarni keltirib chiqardi. Bu haqiqiy ma'noda Turkiston xalqlarining Rossiya imperiyasi istibdodiga qarshi milliy ozodlik kurashi edi.

Taxminiy hisob-kitoblarga ko'ra, Turkiston o'lkasidan jo'natilgan mardikorlarning 101600 nafari Rossiyaning Yevropa qismiga, 7405 nafari Kavkazga, 4000 nafari Sibirga va 10304 nafari Turkiston o'lkasi hududiga ishslash uchun taqsimlangan. Turkistonlik mardikorlar shu tariqa butun Rossiya bo'ylab tarqalgan.

Turkistonlik mardikorlarning 33687 nafari front yaqinidagi harbiy mudofaa inshootlari qurilishida, 17100 nafari yirik sanoat korxonalarida, 28270 nafari yirik shaharlardagi turli korxonalar, zavod, muassasa va pomeshchik imeniyalarida ishslashga taqsimlangan.

3. Turkistonda Rossiya imperiyasining savdo-sotiq siyosati va boj tizimi. O'zaro urushlardan so'ng 1868- yil 13- fevral kuni Turkiston general-gubernatori bilan Qo'qon xoni o'rtaida imzolangan sulh shartnomasiga ko'ra, rus savdogarları Qo'qon xonligining istalgan shahar va qishloqlarida karvonsaroyga ega bo'lish va savdo agentliklarini tuzish huquqiga ega bo'ldilar. Qo'qon xonligi savdogarları Rossiya hududida emas, balki Turkiston general-gubernatorligining shahar va qishloqlarida, ya'ni o'z yurtlarida shunday imtiyozga ega bo'ldilar, xolos. Rus savdogarlarından zakot 2,5% miqdorida belgilandi. Rossiya imperiyasi tazyiqi ostida tuzilgan bu shartnoma xonlikning barcha xalqi, ayniqsa savdo ahli o'rtaida kuchli norozilik uyg'otdi.

1868- yil 11- iyulda Samarqandda, 1873- yil 23- sentabrda Shahrisabzda Buxoro amiri Muzaffarxon va Turkiston general-gubernatori K.P. fon Kaufman o'tasida Rossiya-Buxoro sulu shartnomalari imzolandi. 1873- yilgi shartnomaning 6-moddasiga ko'ra, rus savdogarlarining Rossiyadan Buxoroga yoki, aksincha amirlikdan imperiyaga jo'natiladigan barcha mahsulotlardan avvalgi 5% boj solig'i o'rniغا 2,5% zakot olib belgilandi. Ushbu shartnomalar asosida xonliklarda amal qiluvchi shariat normalari jiddiy buzilib, ruslar endilikda musulmon savdogarlarigina foydalanadigan huquqqa ega bo'lib oldilar. Rus savdogarlari zakotdan o'zga hech qanday qo'shimcha soliq va yig'imlar to'lamaydigan bo'ldilar. Shartnomaning 7-moddasasi esa rus savdogarlariga Buxoro hududidan qo'shni davlatlarga mahsulotlarni bojsiz olib o'tish huquqini berdi. 1868 va 1873- yillardagi shartnomalarga ko'ra, Buxoro amirligi xorijiy mamlakatlar bilan mustaqil diplomatik aloqalar olib borish huquqidан mahrum bo'ldi.

Buxoro amirligini imperiyaga bo'ysundirilishi tez orada iqtisodiy jihatdan ham o'z mavqeini yo'qotishiga olib keldi. Buxoro pul va boj tizimi Rossiya imperiyasiga bo'ysundirilgach, metropoliya Buxoro bozorlarida yakka hukinron bo'lib oldi. Bu esa, o'z navbatida, qadimgi savdo markazlaridan biri bo'lgan amirlikni tashqi savdoda Sharq va G'arb davlatlaridan yakkalatib qo'ydi.

1873- yil 12- avgustda imzolangan Rossiya-Xiva sulu shartnoma-siga ko'ra Xiva xoni Muhammad Rahimxon II Turkiston general-gubernatori K.P. fon Kaufman tomonidan qo'yilgan barcha shartlarni so'zsiz qabul qilib, boshqa mamlakatlar bilan mustaqil aloqalar yuritish huquqidан mahrum bo'ldi. Rus savdogarlari va sanoatchilariga xonlikka qarashli hamma joylarda savdo-sotiq ishlarini bemalol olib borish huquqi berildi, ular boj va boshqa majburiyatlardan ozod etildi.

1867- yilda ishlab chiqilgan "Yettisuv va Sirdaryo viloyatlarini boshqarish haqidagi qoidalar loyihasi" Turkiston general-gubernatorligi tuzilgandan keyin o'lkada bojxona ishini yuritishning dastlabki huquqiy asosi bo'ldi. Unga ko'ra, 1868- yil Turkiston general-gubernatorligi tarkibida boshqa masalalar qatori zakot ishlarini yuritish uchun ham Xo'jalik boshqarmasi tashkil etildi.

Xo'jalik boshqarmasi chegara ortidan kelayotgan har bir karvondan shariat bo'yicha belgilangan miqdorda zakot undirish bilan shug'ullangan. Nazoratni to'g'ri va aniq olib borish uchun hisobot daftarlari yuritilishi joriy etilib, ularga zakot to'laganligini tasdiqlovchi hujjatlar berilgan. Agar olib kirilgan yuklarning ko'rsatilgan qiymati

to`g`riligiga shubha tug`ilsa, Xo`jalik boshqarmasi bir rus amaldori va ikki mahalliy savdogarlar guvohligida yuklarni ochish va uning qiymatini mahalliy shart-sharoitlar asosida aniqlash huquqiga ega bo`lgan. Shundan so`ng yuklarni nazoratga olinganligi va mamlakat hududiga qonuniy yo`l bilan kirib kelganligini tasdiqlovchi kivitansiya berilgan. Yuk olib kirgan savdogar yukini zakotchidan berkitsa yoki uning qiymatini kamaytirib ko`rsatsa, undirilishi lozim bo`lgan zakotning ikki barobari miqdorida jarima undirilgan. Jarimaning yarmi davlat xazinasiga, qolgan yarmi esa ushbu huquqbuzarlikni aniqlagan shaxsga berilgan.

1872- yil 1- aprelda Turkiston general-gubernatorligi tarkibida Zakot boshqarmasi tashkil etilib, 1874- yil 10- dekabrgacha o`z faoliyatini olib borgan. Mazkur zakot boshqarmasi aslida mahalliy zakot-chilarga ishonmaslik natijasida vujudga kelgan edi. Zakot boshqarmasi 1874- yil 10- noyabrgacha Toshkent shahar yarmarka qo`mitasiga bo`ysungan. Uning asosiy vazifalari Turkiston o`lkasiga kelgan yoki chiqib ketayotgan karvonlarni ro`yxatga olish, yuklarning qiymatini aniqlash, yuk va chorva mollaridan zakot undirishdan iborat edi. Kirib kelayotgan yoki chiqayotgan karvonlarni nazorat qilish uchun chegaralarda maxsus zakot maskanlari faoliyat yuritar edi. Bu davrda zakot to`lovi davlat xazinasiga tushardi va u karvon yo`llarini ta`mirlashga, karvonsaroylarning ichki ehtiyoji uchun berilardi. Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilgandan so`ng o`lkada rus savdogarlaridan imperiya miqyosida amal qiluvchi “Savdo-sotiq va kasb-hunar uchun boj haqida”gi Nizom asosida bojxona to`lovlarini undirila boshlangan. Biroq Sirdaryo viloyatining Kazalinsk va Perovsk uyezdilarida, Yettisuv viloyatining barcha hududlarida savdogarlarning barchasi, ular rus yoki mahalliy bo`lishidan qat`iy nazar bojxona to`lovlarini to`lashda yuqoridagi nizomga bo`ysunar edilar.

1872- yili general-ad'yutant K.P. son Kaufman farmoyishiga muvofiq Toshkent shahrida Turkiston o`lkasi savdo yig`imlarini o`rganish bo`yicha maxsus komissiya o`z ishini boshladi. Komissiya ishining natijasi sifatida butun imperiya doirasida qo`llaniluvchi 1865- yil 9-fevraldagagi “Savdo-sotiq va kasb-hunar uchun boj haqida”gi Nizomni mahalliy sharoitlarga moslashtirilgan holda qo`llash maqsadga muvofiq ekanligini bildirdi. Rossiya Moliya vaziri esa bu taklifni ko`rib chiqib, unga ba`zi o`zgartirish va qo`shimchalar kiritadi hamda tajriba sifatida bir qancha muddat davomida sinovdan o`tkazish zarurligini ta`kidlaydi. 1874- yil 3- mayda Turkiston genral-gubernatorining farmoniga muvo-

fiq Turkiston o`lkasida qo`llaniluvchi "Savdo-sotiq va kasb-hunar uchun boj haqida"gi Nizom tasdiqlanib, u dastlab 4 yil muddatga vaqtinchalik chora sifatida kuchga kirdi. Ushbu nizom kuchga kirishi bilan Turkiston o`lkasida zakot undirish to`xtatildi. 1877- yilning 1-iyunida Farg`ona viloyatida "Savdo-sotiq va kasb-hunar uchun boj haqida"gi Nizomga amal qilina boshlandi. Yuqoridagi nizom asosida qabul qilingan bu hujjat Farg`ona shaharlarining savdo-sotiq sohasidagi faoliyatida katta voqeа bo`lgan edi.

1875- yildan Turkiston Zakot boshqarmasining tugatilishi tufayli, o`lka 1881- yilgacha bojxona nazoratidan chetda qoldi. Bu vaqt mobaynida 1868- yilda qo`shni xonliklardan olib kelinadigan choyga nisbatan o`rnatilgan birinchi rus bojini va boshqa to`lovlarni undirishga ham hech qanday idora jalg etilmadi. Vujudga kelgan bu vaziyat Rossiya imperiyasi hukumatini tahlikaga solib qo`ydi. Birinchidan, Rossiya va O`rta Osiyo xonliklari o`rtasida imzoilangan shartnomalarga ko`ra, bu hududlardan kirib kelayotgan mahsulotlardan bojxona to`lovlari undirilmas edi. Protektsionistik⁶ tashqi savdo siyosatini yuritayotgan Rossiya imperiyasi byudjeti va iqtisodi uchun bu katta zarba bo`lishi mumkin edi. Ikkinchidan, Turkistonning xorijiy davlatlar mahsulotlari bilan to`lishi O`rta Osiyoni rus sanoat mollari sotiladigan qulay bozorga aylantirishni xohlagan va shunga harakat qilib kelayotgan Rossiya imperiyasi hukmron doiralari siyosatiga to`g`ri kelmas edi.

1881- yil 19- dekabrda Turkiston general-gubernatori vazifasini bajaruvchi Kolpakovskiy o`lkaga G`arbiy Yevropa va Osiyo mahsulotlari kirib kelishiga chek qo`yish maqsadida Muvaqqat bojxona qoidalarini tasdiqladi. Ularning asosiy mazmuni quyidagicha edi:

1. O`rta Osiyo xonliklarida ishlab chiqarilgan barcha turdagи mahsulotlarni Turkiston general-gubernatorligi hududiga bojsiz olib kirishga ruxsat etiladi;

2. Barcha ingliz-hind (choy, doka va bo`yoqdan tashqari), Yevropa, Turkiya va Eron mahsulotlarini Turkiston general-gubernatorligiga olib kirish qat`iyan taqiqilanadi;

3. Bir pud brutto⁷ choy uchun 14 rubl 40 tiyin, doka uchun 6 rubl va 1 funt bo`yoq uchun 1 rubl miqdorida boj stavkalari belgilanadi;

⁶ Milliy iqtisodiyotni xorij raqobatidan himoya qilishga qaratilgan davlat iqtisodiy siyosati - mualliflar.

⁷ Brutto- tovarning idishi, o`rovi bilan birligida yalpi og`irligi. Qarang: Ўзбекистон миллий энциклопедияси 2-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нацириети, 2001. – Б. 225.

4. Boj undirish rus kredit rubllarida amalga oshiriladi (1876 yil Rossiyada passiv bo`lgan tashqi savdo balansini tenglashtirish maqsadida boj to`lovlarini oltin rublda undirishga qaror qilingan edi. Oltin rublni sotib olish narhi 148 kredit rubliga to`g`ri kelganligi uchun, bojxona bojlari stavkasi o`zgarmagan holda 50% oshgan).

5. Olib kirilishi taqiqlangan yoki boj to`lanishi lozim bo`lgan mahsulotlar, bojxona nazoratidan yashirib olib kirilgan taqdirda musodara qilinadi. Musodaradan tushgan pulning 25% esa bojxona muassasalarining maxsus fondiga o`tkaziladi (1889- yil 29- maydagi qonunga muvofiq ushbu maxsus fond Turkiston bojxona organlarining rezerv fondiga aylantiriladi. Fond bojxona nazoratini olib borishda vujudga keluvchi kutilmagan harajatlarni qoplash maqsadida tuzilgan edi).

Mahsulotlarning kirib kelishini nazorat qilish va boj to`lovlarini undirish, asosan, o`lka ichidagi shaharlarda faoliyat olib boruvchi harbiy-politsiya amaldorlariga yuklatilgan edi. Bu bojxona amaldorlari Harbiy vazirlik hisobida turardilar. Ularning ta`minoti Harbiy vazirlik kreditlaridan qoplangan, bojxona bojlardan tushgan daromadlar ham 1883- yilgacha shu vazirlikning smetasida bo`lgan. Amalga oshirilgan bu chora-tadbirlar natijasida o`lkada kontrabanda avj olib, boj to`lovlarining tushumi keskin kamayib ketgan.

XIX asr oxirlarida bozor munosabatlari rivojlanishi bilan bojxona siyosati tovar sotishning yangi bozorlarini egallashga yordam beradigan dastaklardan biriga aylandi. Buxoro amirligining katta qismini ingлизлар назорат qiladigan Afg'oniston bilan chegarasida bojxonalar tashkil qilindi.

1891- yil Moliya vaziri tomonidan ko`tarilgan O'rta Osiyo bozorlarida kuchli savdo-sanoat monopoliyasini o`rnatish haqidagi masala ko`tarilib, 1892- yil Buxoro amirligi va Xiva xonligini Rossiya bilan yagona bojxona tizimiga kiritish haqida islohot loyihasi tayyorlandi va bojxona chegarasini afg'on-buxoro chegarasiga o`tkazildi. Bu masala shu yili Rossiya imperatori Aleksandr III ga ko`rib chiqishga berildi. U loyihami 1892- yil 7- avgustda tasdiqlandi.

1917- yilgacha Turkiston o`lkasini rus bojxona nazoratiga qo'shib olish borasida juda katta ishlar amalga oshirildi. Bu chora tadbirlar o`lkadagi mavjud bojxona nazoratini o'rganish uchun mahsus ekspe-ditsiyalar yuborishdan boshlangan bo`lsa, 1890- yilda Rossiya impreyasi bojxona tizimining mustaqil bo`linmasi bo`lgan Turkiston bojxona okrugi o`lkadagi bojxona ishiga to`liq rahbarlikni amalga oshirar edi.

1893- yil Rossiya imperiyasida 11 chegara okrugi, shu jumladan, Turkiston okrugi tuzilib, unda 16 bojxona idoralari mavjud bo`lgan.

O`rta Osiyo xonliklari Rossiya bojxona tizimiga qo`shilishi natijasida savdo-iqtisodiy mustaqilligiga barham berildi. Aynan shu holat rus metropoliya ishlab chiqarish korxonalariga xom-ashyoni nafaqt O`rta Osiyo, balki qo`shti davlatlardan olib kirish imkoniyatiga ega bo`lib qolmay, balki Afg'oniston, Eron, Xitoy hududlarida ham o`z mahsulotlarini ichki bozorda sotishni yo`lga qo`ydi.

O`rta Osiyoda yangi huquqiy me`yorlar asosida tashkil qilingan imperiya bojxona idoralari mintaqada metropoliya iqtisodiy manfaatlarni to`la ta`minlash, imperiya xazinasiga boj yig'imini tushirish orqali katta daromadga ega bo`lish vazifasi bajarilayotgan edi.

Rossiya imperiyasining O`rta Osiyoni bosib olishdan ko`zlagan maqsadlari o`lkani arzon xom-ashyo manbai va metropoliya ishlab chiqqagan mahsulotlar uchun yangi bozorni vujudga keltirishdan iborat edi. Shuning uchun ham imperiya hukmron doiralari O`rta Osiyoni bosib olishda eng birinchi navbatda o`lka bozorlari, iqtisodiy resurslarini butunlay o`z qo`llariga olishga harakat qildilar. Ayni paytda, O`rta Osiyo bozorini egallab olish bu hududda o`z savdo monopoliyasini qaror toptirish maqsadida boj tizimini ham tubdan o`zgartirib, shu maqsadlarga xizmat qiluvchi boj siyosatini yuritdi.

Tayanch so`zlar

Raim, Kopal, Oqmachit, Verniy, harbiy istehkomlar, Turkiston istilosи, Turkiston viloyati, M.G.Chernyyayev, "Harbiy xalq boshqaruvi", qozilik sudiari, biylik sudlari, Turkiston general-gubernatorligi, harbiy zabitlar, K.P. fon Kaufman, viloyat, uyezd, volost, uchastka, ovul, Yettisuv, Sirdaryo, Kaspiyorti, Farg`ona, Samarqand, boj tizimi.

Nazorat savollari

1. Turkiston xonliklarining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi jarayonini aytib bering.
2. Harbiy-ma`muriy mustamlaka boshqaruv tizimi deganda nimani tushunasiz?
3. K.P. fon Kaufman tomonidan ishlab chiqilgan "Harbiy xalq boshqaruvi" haqida nimalarni bilasiz?
4. Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida Turkistondagi sud tizimi qanday tartibda amalga oshirilgan?

- 5 "Turkiston o`lkasini boshqarish to`g'risidagi" Nizom va uning tarkibiy tuzilishi, o`lka boshqaruvidagi ahamiyati haqida gapiring.
- 6 Turkistonda mustamlakachilar tomonidan mahalliy aholi haq-huquqlari va milliy qadriyatlarining poymol qilinishi qanday oqibatlarga olib kelgan?
- 7 Mustamlaka Turkistonda boj tizimi haqida gapirib bering?

5-MAVZU: ROSSIYA IMPERIYASINING TURKISTONGA AHOLINI KO`CHIRISH SIYOSATI

Reja

- 1. Rossiyadan Turkistonga aholini ko`chirish jarayoni va uning sabablari.**
- 2. Rossiyadan ko`chirib kelingan aholining Turkistonda joylashuvi va turmush tarzi.**

1. Rossiyadan Turkistonga aholini ko`chirish jarayoni va uning sabablari. Rossiya imperiyasi uchun mazkur mintaqani bosib olishdagi siyosiy va harbiy maqsadlar ustun bo`lganligi 1866- yildayoq imperiya kansleri A.M. Gorchakovga Orenburg general-gubernatori yozgan maktabda, keyinchalik esa imperiyaning ko`plab yuqori martabali amaldorlari tomonidan yozilgan hisobotlarda ham alohida ta`kidlangan edi. Masalan, senator graf K.K. Palen bunday deb yozgandi: “Agar Turkistonni bosib olishda ahamiyatli bo`lgan siyosiy tusdagi sabablarni hisobga olmasak, ushbu o`lka Rossiya imperiyasiga qo`sib olingan ilk kurlardan boshlaboq rus hukumatida ikki yoqlama: 1) moliyaviy siyosat nuqtai nazaridan davlat daromadlari manbai sifatida hamda yangi bozor sifatida; 2) mustamlakachilik siyosati nuqtai nazaridan guberniyalardagi ortiqcha aholini ko`chirish uchun yangi hudud sifatida qiziqish uyg`otadi”.

Rossiya imperiyasining siyosiy va harbiy namoyondalari rus aholisining bir qismini Turkistonga ko`chirishdan ko`zlagan bosh maqsadi:

1. Mustamlaka hududida Rossiyaning harbiy-siyosiy hukmronligini o`rnatish.
2. Mustamlaka hududda Rossiya imperiyasi manfaatlariiga xizmat qiladigan, ishonchli qatlamiga ega bo`lish.
3. Mustamlaka hududda rus armiyasi va boshqaruva tizimi tayanchini tashkil qilish.
4. Metropoliya manfaatlariiga zid hatti-harakatlarda bo`lgan taqdirda yerli xalqqa qarshi kuchlar zahirasini yaratish edi.

Rossiya manfaatlari himoyasida yangi Xitoy, Afg'oniston, Eron chegaraviy davlatlar bilan nazorat hamda mustamlaka tabiiy boyliklarini o`zlashtirish edi.

Imperiya hukumatining va mustamlaka ma`muriyatining aholini ko`chirish siyosati bilan Rossiyaning Orenburg guberniyalaridagi aholi ko`payib ketishi “muammosi”ning o`zaro aloqadorligini asoslash uchun

siyosatchilar, ba`zan tadqiqotchilar keltirgan dalil isbotlar orasida metropoliya bilan mustamlakalar, shu jumladan, Turkiston hududlari tutashligi, imperiya aholisi uning jami mustamlakalari aholisidan ham ancha ortiqligi ko`rsatilgan. Aslida, ko`proq bahonaga o`xshaydigan birinchi dalił ancha ishonarli bo`lib ko`rinadi. Chunonchi, agar Rossiya imperiyasining o`z aholisi uning mustamlakalari imperiyaga bo`ysinuvchi Polsha va Finlyandiya aholisidan 4 baravar ko`p bo`lgan bo`lsa, u holda, masalan, Fransiya mustamlakalari aholisining soni metropoliya aholisi sonidan 1,5 baravar ko`proq edi. Buyuk Britaniya mustamlakalari aholisi soni metropoliya aholisidan 9 baravar ko`p edi. Rossiyada faqat Markaziy sanoat, Janubiy kon-sanoat, Peterburg va Boltiqbo`yi mintaqalarida aholi zich edi. Asosan deqonchilik bilan shug'ullanadigan guberniyalarda esa aholi juda kam bo`lgan.

Rossiya imperiyasi hukumati Turkistonga va Dasht o`lkasiga metropoliyadan xristian aholini ko`chirib, joylashtirish borasidagi buyuk davlatchilik - shovinistik amaliyotini oqlashga, asoslashga harakat qilib, XIX asr oxirida 5 guberniyada 12 million ortiqcha aholi mavjud ekanligini e`lon qildi. Vaholanki, hukumat metropoliya aholisini imperiyaga qaram bo`lgan Polshaga ham, Finlyandiyaga ham ommaviy ravishda ko`chirish tadbirlarini amalga oshirmagan edi. Bu shu bilan izohlanadiki, avvalo, Polsha va Finlyandiyaning maqomi butunlay boshqacha edi; ikkinchidan, imperianing hukmron doiralari Rossiya imperiyasiga qaram bu hududlarni uzoq vaqt qo`lda tutib tura olmasliklarini tushunsalarda, tan olgilari kelmasdi. Kavkaz, Turkiston va Dasht o`lkasi esa abadul-abad bosib olingen, deb tasavvur etilardi.

Turkiston o`lkasiga aholini ko`chirish amaliyotining o`ziga xosligi, o`lkani harbiy-ma`muriy boshqarish tizimi imperiya hukmron doiralari o`z mustamlakalariga, ayniqsa, Turkistonga, Rossiyaning pravoslav, ba`zan esa, nasroniy dinidagi aholisining bir qismini ko`chirib keltirish choralarini, eng avvalo, harbiy-siyosiy strategik manfaatlardan kelib chiqib ishlab chiqqanliklari ham yana bir isboti bo`ladi. Yana shuni ta`kidlab o`tish lozimki, rus o`lkasi imperiya Ichki ishlar vazirligi ixtiyoriga berilgan edi, Turkiston general-gubernatorligi eca doimo Harbiy vazirlik ixtiyorida bo`lgan.

Lekin Buyuk Britaniya, Ispaniya, Italiya, Germaniya, Fransiya davlatlari Rossiya imperiyasidan farqli ravishda, o`z aholisining bir qismini ko`chirish amaliyotini qo`llamay, u yerlarda harbiy, politsiya bo`linmalarini saqlab turish, tegishli boshqaruv va sud organlarini, nasroniy missionerlik muassasalarini tuzish bilan cheklanganlar. Ammo

Rossiya imperiyasi hukumati shunday choralar bilan bir qatorda, Turkistonligining qaltsilagini anglagani holda, o`lkaga o`z aholisining bir qismini izchillik bilan ko`chirishga harakat qilib, ko`chishni istovchilar orasidan ko`chiriladiganlarni saralab olishga e`tibor bergen. Shu sababli o`lkaning bиринчи general-gubernatori K.P. fon Kaufman o`lkaga Ukraina mintaqalaridan kazaklarni ko`chirib keltirishiga norozilik bildirgan va asosan rus qishloq aholisini ko`chirib keltirishni talab qilgan.

Bu davrga ko`chiruvchilik harakatining betartibligi, o`zini g`olib hisoblagan ko`chib kelayotganlarning tub aholiga, ayniqsa, qishloq aholisiga nisbatan bedodlik, ularning aksariyat ko`pchiligi shaharlarda hamda rus garnizonlari, istehkomlari atrofida joylashganliklari bilan xarakterlidir. Ustiga-ustak bedodlik rus askarlari va zabitlarining g`oyat faol ishtiroki bilan amalgalashgandi. Ko`chuvchilarning turli guberniyalardan chiqishi va Turkistonning qaysi joylarida o`mashib qolishi hali yaxshi nazorat qilinmas va boshqarilmas edi. Bu eng avvalo, ushbu bosqichda bosib olingan barcha hududlarda mustamlakachi harbiy-ma'muriy boshqaruv organlarining hali tuzilmagani bilan izohlanadi.

Harbiy-siyosiy muvaffaqiyatlariga tayangan holda, kelajakda Turkiston va Buxoro amirligi, Xiva xonligi bozorlaridan, tabiiy boyliklaridan, tub aholining arzon mehnatidan imperiya manfaatlarida foydalanishni vaziyat taqozo qilsa, askarlarni, quroq-aslahalarni tez va ko`plab yetkazishni ko`zlab Rossiya imperiyasi hukumati mintaqada temir yo`l o`tkazish ishlarini 7-8 yil mobaynida amalgalashgandi. Natijada, 1887- yilda Krasnovodsk-Ashxabod-Qizil Arvot temir yo`li Samarqandgacha yetkazildi. Bu yo`lga Kaspiyorti harbiy temir yo`li nomi berilgani aslida uning asosiy vazifasi mohiyatini ko`rsatar edi. Mazkur temir yo`l Rossiya imperiyasi Harbiy vazirligining rejalarida juda muhim hisoblanganligini quyidagi xujjalardan ham anglash mumkin. Xususan, Turkiston general-gubernatori tomonidan 1888- yil 23- iyulda “Chorjo`y va Buxoro temir yo`l stansiyalari yaqinidagi xo`jaliklarni boshqarish va poseleniyelarni obodonlashtirish qoidalari” tasdiqlanib, bu qoidalarga binoan, birinchidan, Chorjo`y temir yo`l stansiyasida va uning atrofidagi hududlarda boshqaruv va nazorati Chorjo`y harbiy boshlig`i zimmasiga, Buxoro temir yo`l stansiyasida va uning yaqinidagi poseleniyelarida esa bu vazifalar Rossiya imperiyasining bu yerdagagi siyosiy agentligiga yuklatildi; ikkinchidan, mazkur

stansiyalarda va ularning yaqinida mahalliy aholi yashashi hamda bevosita temir yo`lda ishlashi mumkin emas edi.

Turkistonni bosib olish borasida rus qo'shinlari ketidan Sibir va Uraldan kazaklar ko'chirilib, Yettisuvning va Issiqko'l havzasining Xitoy bilan chegaradosh hududlariga joylashtirildi. Shuning uchun ham Turkiston viloyati tashkil qilinishidan ilgari kazaklar bu hududlarda 14 stanitsani⁸ barpo etishdi hamda Yettisuv kazaklarining qo'shinini shakllantirish faol olib borildi. G'apbiy Sibir general-gubernatori Dyugamel 1864- yilda "Yangi bosib olingen Chuorti o'lkasida rus poseleniyelerini joriy qilish zaruriyati haqida"gi loyihani imperiya hukumatiga taqdim etib, bu yerga ko'chishga rozi bo'lgan rus dehqonlarini keltirishni taklif qilgan edi. Biroq u vaqtida yangi hududlarni zabit etish va Rossiya imperiyasining harbiy hukmronligini mustahkamlash maqsadlari ustuvor bo'lgani sababli imperiya Harbiy vaziri Dyugamelning taklifini rad etib, Chuorti o'lkasida faqat Sibir yoki Orenburg qo'shining kazaklarini joylashtirishni afzal ko'rdi. Shuning uchun 1867- yilgacha, ya`ni Turkiston general-governatorligi tashkil etilguncha, bo'lajak Yettisuv viloyati (Chuorti o'lksi)ning hududiga Rossiyadan ko'chib kelganlarning ko'pchiligini kazaklar tashkil qilgan. Shu tufayli 1867- yilda ikki polkdan iborat Yettisuv kazaklarining qo'shini tuzildi.

O'rta va Kichik juzlarga mansub kazaklarning hududlariga rus qo'shinlari XIX asrning 40-yillarda o'z mavqeini mustahkamlashga erishganligi tufayli chegaraga yaqin joylarda Sibir va Orenburg (Ural) kazaklarining stanitsalari barpo etilayotgan sharoitlarda bu hududlarda, biroz keyinroq Sirdaryoning quyi qismida tuzilgan harbiy garnizonlar, istehkomlar atrofida rus aholisining ham soni ko'payib bordi.

1867- yil iyul oyida tuzilgan Turkiston general-governatorligida o'rnatilgan harbiy-ma'muriy boshqaruv tizimi va bu yerda 50 ming kishilik rus armiyasining joylashtirilishi, Xiva xonliklariga, Buxoro amirligiga qarshi jangovar harakatlar Rossiya imperiyasining mintaqadagi maqsadi - bu ulkan va boy o'lkani talon-taroj qilib yoki Rossiya imperiyasining faqat harbiy-siyosiy strategik hukmronligini o'rnatishgina emas, balki Turkistonni imperiya mulkiga aylantirish, xonliklarni esa butunlay yo'q qilish, agar buning iloji bo'lmay qolsa, protektorat, qaramlik shartlarini qabul qilishlariga majbur etish. butun mintqa boyliklaridan, ishlab chiqarish kuchlaridan, salohiyatidan foydalanish ekanligini ko'rsatdi.

⁸ Stanitsa – kazaklar yashaydigan qishloq – mualliflar.

Rossiya imperiyasi bu mintaqada harbiy harakatlarini davom ettirgan holda, bu yerda rus qo'shnilariga va mustamlakachi ma'muriyatga tayanch bo'ladigan hamda o'lkaning boyliklarini metropoliyaga jo'natish bilan band, zarur bo'lsa mahalliy xalqlarning isyon, qo'zg'olonlarini bostirishga qo'shimcha kuch sifatida xizmat qiladigan rus va umuman sharqiy slavyan nasroniy aholini ko'proq joylashtirish tarafdoi edi. Buni juda chuqur tushungan, kazaklarni asosan chegaralarga yaqin yerlarda yashashlari harbiy jihatdangina foydali, deb hisoblagan general-gubernator K.P. fon Kaufman va Yettisuv viloyatining harbiy gubernatori general Kolpakovskiy 1868- yil Irtish daryosining yuqori qismidan Issiqko'l havzasigacha chegara chizig'i bo'ylab kazaklarning stanitsalarini barpo etish masalasiga o'zlarining salbiy munosabatlarini bildirishgan. K.P. fon Kaufmannning fikricha, kazaklar o'lka zabit etilayotgan birinchi davrda chegaralarni qo'riqlashda va qirolsiz mahalliy aholining noroziligini bostirishda foydali bo'lishdi. Keyin esa ular qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetkazib berish bo'yicha hamda yangi sharoitda harakat qila oladigan harbiy kuch sifatida talablarga javob bermas edi.

Rossiyadan Turkistonga ko'chirish, amalda, o'lkan bosib olish bilan bir vaqtning o'zida olib borildi. Rossiya tomonidan dastlab Yettisuv viloyatiga, keyinchalik esa Sirdaryo, Farg'ona, Samarkand, Kaspiyoti viloyatlariga ko'chirish boshlangan. Rossiya protektoratida bo'lgan Buxoro amirligi va Xiva xonligiga dehqonlarni ko'chirish amalga oshirilmagan. Ammo yuqorida ko'rsatilgan hududlarga dehqonlar emas, asosan ishchilar, temir yo'chilar Chorjo'yga, Yangi Buxoro (Kogon)ga, Kerkiga, Termizga joylashganlar. 1897- yilgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotiga ko'ra, Buxoro amirligidagi 12150, 1917-yilga kelganda rus fuqarolari 50 ming kishini tashkil qilgan.

Yettisuvga ko'chirish kazaklarni 1847- yilda Sergiopol va Kopalga joylashtirish bilan boshlandi. 1867- yil Yettisuv viloyatida Yettisuv kazaklar qo'shini tashkil qilindi. Ushbu qo'shinga ajratilgan joylarda 14413 nafar erkak va ayollar bor edi. Ammo ushbu tajriba o'zini oqlamadi, chunki kazaklardan harbiy muddatni o'tagandan keyin mustamlakachilikda foydalaniib bo'lmasdi.

XIX asr 60-yillari oxiridan Rossiya hukumati Turkistonga dehqonlarni ko'chirish siyosatini olib bordi. 1867- yili Turkiston general-gubernatori K.P. fon Kaufman Yettisuv harbiy gubernatori Kolpakovskiyga Rossiyadan dehqonlarni ko'chirishga joy istashni topshirgan edi. 1868- yili yanvarida Kolpakovskiy K.P. fon Kaufmanga

bergan bildirishida To'qmoq, Pishpak va Issiqko'lga 50 tadan oilani joylashtirish zaruriyatı borligini ta'kidlaydi. Kolpakovskiy tomonidan tuklif etilgan rejada keyinchalik Yettisuv viloyatidagi beshta uyezdda 34 ta dehqonlar qishlog'i – 1345 hovlisi bilan tashkil qilgan 47 ta yashash joyi bo'lishi kerak edi. Umumlashtirib olganda, Yettisuv viloyatiga 1815 oila ko'chirib keltirish ko'zda tutilgan edi. 1883- yilga qadar Yettisuv viloyatiga ko'chirilganlar hisobiga 29 ta ruslar posyolkasi tashkil topib, 15 ming kishi istiqomat qilardi.

1870- yili K.P. fon Kaufman Sirdaryo viloyati harbiy gubernatoriga rus qishloqlarini tashkil qilish uchun joy qidirishni topshirgan edi. Oxir-oqibatda, 1874- yildan Sirdaryo viloyatiga rus aholisini ko'chirish boshlangan. Dastlabki ko'chirilgan ruslar Qoraboltaga joylashganlar. Bu hudud Yettisuv viloyati chegarasiga yaqin edi. Shuni aytish lozimki, 1891- yilga qadar Rossiyadan Sirdaryoga ruslarni ko'chirish juda keng quloch yoymagan edi, xususan shu paytga qadar 20 ta rus qishlog'i paydo bo'lib, ko'chirilganlar soni 7702 kishini tashkil qilardi. Volgabo'yidagi ocharchilik tufayli 1891-1893- yillari Sirdaryo viloyatida 22 ta rus qishlog'i tashkil qilingan edi. Umuman olganda, 1895- yilga kelganda 45 ta rus qishloqlari bor bo'lib, unda 15330 kishi istiqomat qilardi. 1900- yilga kelganda Sirdaryo viloyatidagi qishloqlar 48 tani, aholi esa 20 ming kishini tashkil qildi.

Farg'ona viloyatiga ruslarni ko'chirish masalasi ham 1891- yildan boshlandi. 1893- yilda O'sh uyezdiga 200 oila ko'chirib kelindi va Pokrovskiy qishlog'i deb nomlandi. 1897- yilda Namangan uyezdi boshlig'i tashabbusi bilan Kiyev guberniyasidan 200 oila tog'li Chotqol vohasiga joylashtirishga chaqirildi. Umuman olganda, XX asr boshlariga kelganda, Farg'ona viloyatida 3794 kishi ko'chirib kelinganlardan yashardi.

Samarqand viloyatida esa, 1902- yilga kelganda, rus oilalari 570 ta bo'lib, 2300 kishini tashkil qilgan.

1892- yildan Kaspiyorti viloyatining boshlig'i bo'lgan general-leytenant D.N. Kuropatkin Kaspiyorti harbiy temir yo'lida ishslash uchun va viloyat hududida yashovchi turkman, qoraqalpoq o'zbek dehqonlaridan, chorvadorlaridan tortib olingan yerlarda joylashib, xo'jalik yuritishlari uchun ko'plab rus aholini keltirishga katta ahamiyat bergen. Giap shundaki, Turkistonning boshqa viloyatlariga nisbatan bu viloyatda iqlim va yashash sharoitlari (jazirama, issiq qumli shamollar, suvsizlik, aholining mustamlakachilarga nafrati va x. k) ancha noqulay edi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, 1892- yilda Kaspiyorti viloyatida sodir bo'lgan

vabo epidemiyasi shaharlarda, baliqchilar posyolkalarida, temir yo'l stansiyalarining yaqinida yashovchi rus aholisiga katta talofatlar yetkazdi. Bu haqda xabar topgan ruslar, kazaklar Kaspiyorti viloyatiga emas, balki Samarqand, Sirdaryo viloyatlariga, Amudaryo bo'limiga qarashli hududga ko'chishga harakat qilishgan edi.

Kaspiyorti viloyatida general A.N.Kuropatkin boshliq bo'lgan yillarda bir qator tashkiliy, moliyaviy, harbiy choralar va Krasnovodsk-Ashxobod-Samarqand temir yo'li o'tkazilishi tufayli Rossiyadan va Kavkazdan aholini ko'chirib keltirish, joylashtirish amaliyoti ancha kengaydi. Rus aholini joylashtirish uchun eng avval Ashxobod uyezdining hududi tanlandi va bu yerda yashovchi turkmanlarning aksariyati Sharqiy Eronga, Mari, Elatan uyezdlariga ko'chishga majbur qilindi.

Ko'chirib keltirilgan va o'zicha ko'chib kelgan ruslar XIX asrning 90-yillarida Kozelskoye (Vashyuvskiy), Kulkulab (Dmitrievka), Saratovskoye (1911- yildan Samsonovskoye), Kaltachinov (1896- yildan Kuropatkinskiy), Visokos (Obruchevskiy) qishloq seleniyelerini tashkil qilishdi. Marv uyezdida, Afg'oniston chegarasida, Kushka harbiy istehkomiga qo'shni sifatida Alekseyevskoe nomli katta seleniye; Eron chegarasiga yaxshi bo'lgan hududda ham shu yillarda Krestovoye (Tedjen uyezdi); Krasnovodsk uyezdida Petrovskiy, Aleksandrovka, Annenkovskiy, Nikolskiy, Mari uyezdida Poltavskoye nomli seleniyelar paydo bo'ldi.

Bulardan tashqari, Turkiyadan kelgan deyarli 3 ming armani qochoqlar ham Kaspiyorti viloyatida, asosan, Ashxobod uyezdiga joylashtirildi. Natijada, 1897- yilda bu viloyatda 4803 armani va 11 mingdan ko'proq ruslar bor edi.

Turkistonda tashkil etilgan viloyatlarga kazaklar yetarlicha ko'chirilganligini, lekin ular o'lkaning iqtisodiyotini metropolianing ehtiyojlarini qondirish maqsadlarida rivojlantirishda faol qatnashishi mumkin emasligini hisobga olgan holda general-gubernator K. P. fon Kaufman 1868- yoldayoq Turkistonga xo'jalik jihatidan baquvvat dehqonlarni ko'chirish zarurligini asoslagan edi. Shu bilan birga yangi mustamlakada kapitalistik munosabatlarni yanada rivojlantirish, mahalliy mulkdorlar va hunarmandlar raqobatini bartaraf qilish, rossiyalik sarmoyadorlar, savdogarlar, geologlar, muhandislar, agronomlar va boshqa mutaxassislarning faoliyatini kengaytirish va o'lkaning tabiiy boyliklarini metropoliyaga olib ketish masalalari ham qo'yilgan edi. K.P. fon Kaufmanga imperator tomonidan deyarli cheklanmagan

vakolatlar berilganligi, general-gubernatorning buyuk davlatchilik mavqeい va mahalliy xalqlarga o'taadolatsizligi hamda metropoliya aholisining vakillari o'lkada o'zlarini g'olib deb hisoblaganligi Rossiya imperiyasi mustamlaka ma'muriyatining siyosatida, amaliy faoliyatida o'z aksini topdi. Yettisuv yerlariga, Sirdaryo bo'yidagi hududlarga XIX asrning 60-yillarida o'z xohishi bilan ko'chib kelgan rus aholisini shaharlik kambag'allar, mayda savdogarlar va qashshoq dehqonlar tashkil qilgan. Ular mahalliy aholiga nihoyatda qo'pol, jinoyatkorona munosabatda bo'lishgan. Mahalliy dehqonlar va chorvadorlarning yerlarini tortib olish hollari juda ko'p kuzatilgan.

Harbiy ma'muriyat mavjud sharoitlarga ko'ra emas, balki ko'chib kelayotgan rus aholini ehtiyojlarini hisobga olib harakat qilgan va natijada mahalliy aholiga nisbatan tajovuz, adolatsizlik, shovinistik yondashuvlar ommaviy tus olgan. Turkiston general-governatori K.P. fon Kaufman ilgarigi amaliyotdan farqli o'laroq, Rossiya birinchi navbatda rus, umuman, provoslav mazhabiga mansub aholini tashkiliy ravishda ko'chirib keltirishga harakat qilishi lozimligini qayd etib, qaysi yo'nalishlardagi hududlarga rus dehqonlarini joylashtirish maqsadga muvofiq bo'lishini ko'rsatdi.

Imperiya devonxonasi 1873- yilda Turkiston general-governatorining Orenburgdan Toshkentgacha va Toshkentdan Chimkent, Avliyoota va Verniy orqali Semipalatinsk gacha bo'lgan yo'nalishlardagi hududlarga, eng avvalo ruslarni ko'chirish, joylashtirish takliflariga rozi bo'ldi. Tez orada ikkinchi yo'nalish ancha maqbul deb topildi. Chunki bu yo'nalishdagagi hududlarda iqlim yaxshiroq edi. Mustamlakachi ma'muriyat, xususan, general-governator K.P. fon Kaufmanning o'zi Rossiyadan Turkistonga ko'chirib keltirilayotgan aholining sonini, ijtimoiy va milliy tarkibini, siyosiy ishonchligini nazorat qiladigan bo'ldi. Birinchi navbatda, xizmat muddatinn o'tab bo'lgan harbiylar oilalari bilan o'lkada doimiy yashab qolishlariga rag'batlantiradigan choralar belgilandi. XIX asrning 60-yillari oxiri - 70-yillarida Turkistonga aholi, asosan, Astraxan, Xarkov, Voronej, ayniqsa, Orenburg, Samara guberniyalaridan ko'chirib keltirilganligi, ularning ko'pchiligi qashshoq bo'lGANI uchun hukumat ularning ko'chishi yo'nalishini manzillarini oldindan aniqlashga qaror qildi. Ayni mahalda mazkur mezonlar tegishli ravishda tanlab olingach, ko'chishga tayyor bo'lgnlarga "o'tish guvohnomasi" deb atalgan hujjat berilishi va shu hujjatga asosan ularning joylashuvida ma'muriyat ko'maklashishi nazarda tutildi.

Bu tartib o'zboshimchalik bilan ko'chib keluvchilar oqimini eng kam darajaga yetkazish uchun yo`lga qo'yildi. Chunki ular ko'chib kelgan joylarida tub qishloq aholisining yeri, qoramoli va hatto, uyro'zg'or buyumlarini ham zo'rlik bilan tortib olishardi. Garchi hukumat bunday hodisalarga ko'pincha e'tibor bermagan bo'lsa-da, dehqonlarning onimaviy g'alayonlari oldini olishni istagandi. Undan tashqari, Turkiston ma'muriyatining aholini ko'chirish amaliyotini tartibga solishga qaratilgan choralar doim ham samara beravermadidi. Bu boradagi masalalarni hal etish yo'llarini belgilovchi birorta ham qonun-qoidalar to 1881- yilgacha mavjud emas edi. Shu sababli imperiya hukumati, mustamlaka ma'muriyati taklifi bilan 1881- yil 10- iyulda "Dehqonlarni bo'sh davlat yerlariga ko'chirish bo'yicha muvaqqat tartib-qoidalar"ni tasdiqladi. Bu qoidalar 1882- yil 18- mayda tashkil etilgan Dasht general-gubernatorligiga ham taalluqli ekanligi belgilab qo'yildi.

XIX asrining 60-yillardan boshlab, Rossiyaning ichki guberniyalarda krepostnoylik huquqini bekor qilish bilan bog'liq sa'y-harakatlar aholining quyi qatlamlarini juda og'ir ahvolga soldi. Ming-minglab rus dehqonlari qashshoqlikdan, ochlikdan qutilish maqsadida yangi bosib olingan va olinayotgan hududlarga intilishardi. Gap shundaki, krepostnoylik huquqini bekor qilish to'g'risidagi qonunga ko'ra, dehqonlar ixtiyoridagi yerlarning 1/5 qismi pomeshchik va quloglarga o'tdi. Yerni sotib olmoqchi bo'lganlar uning qiyamatining 20-25 foizini to'lashi zarur edi, qolgan qiyamatini davlat to'laydigan bo'lishi kerak edi. Dehqonlar esa davlatga o'z qarzlarini 49 yil mobaynida to'lashlari lozim edi. Tabiiyki, bunday shartlarga dehqonlar ko'nishi qiyin edi. Undan tashqari Rossiyada qurg'oqchilik, hosilsizlik ro'y bergen yillarda metropoliyadan aholi ko'chishini boshqarish, nazorat qilishning iloji yo'q edi. Masalan, 1889-1891- yillarda ichki guberniyalarda ko'chish guvohnomalari 17289 oilaga berildi. Ko'chib kelgan oilalar soni esa aslida 28911 ga yetdi. Imperianing g'alla yetishtiriladigan ko'plab guberniyalarda ro'y bergen ocharchilik sababli 1892- yilda ko'chuvchilar oqimi keskin ko'payib, 100 ming kishidan ortiqni tashkil qildi.

Oqibatda Sirdaryo viloyatining o'ziga 1892-1893- yillarda ko'chib kelganlar 17 ta qishloqni barpo etishdi. Rossiya hukumati Uralortiga, shu jumladan, Turkistonga ahvolini ko'chish harakatini qisqartirish, uni Sibir va Uzoq Sharq tomonlarga yo'naltirish maqsadida 1892- yil 6-martdagagi far moyish bilan chiqish joylarida ko'chish hujjatlarini berishni taqiqlab qo'yganda ahvol shu darajada bo'ldi. Biroq Toshkentda 1892-yilda bo'lib o'tgan qo'zg'olondan havotirga tushgan mustamlakachi

ma'muriyat rus aholisini o'lkaga jalb etishga yana rozi bo'ldi. Aholini ko'chuvchilik harakatini boshqarish uchun mas'ul bo'lgan maxsus idorani tuzish zarurati yuzaga keldi. 1896- yilda Dehqonchilik va yer tuzish Bosh boshqarmasi qoshida tashkil etilgan Ko'chiruvchilik boshqarmasi shunday idora bo'lib qoldi. Turkiston markazida, uning viloyatlarida, Dasht o'lkasida, uning boshqaruv bo'lmlari, uyezdlar va qator shaharlarda ko'chiruvchilik punktlari tashkil etildi.

XIX asming oxirida - XX asming boshlarida faqat Turkistonda emas, balki Buxoro amirligi va Xiva xonligidan zo'rlik bilan tortib olingen hududlar ko'chirib keltirilgan rus aholini, 1915- yildan boshlab esa xorijiy harbiy asirlarni ham joylashtirish uchun foydalilanilgan. Bu esa tub aholi uchun ham juda og'ir bo'lgan. 1914- yil avgustning oxiri sentabrning boshida Rossiya imperiyasining Harbiy va Ichki ishlar vazirliklari Turkiston ma'muriyati bilan birgalikda Avstro-Vengriya, Germaniya armiyalariga mansub harbiy asirlarni Toshkent, Samarcand, Skobelev, Ashxobad, Qo'qon, Andijonda joylashtirish va asirlar tarafidan bajariladigan ishlarning hajmi va turlarini rejalashtirgan edi.

Shuni ham qayd etish kerakki, Rossiya imperiyasi va mustamlakachi ma'muriyati 1898- yilgi Andijon (Dukchi Eshon) qo'zg'oloniga javoban mohiyatiga ko'ra o'ta shafqatsiz, xarakteriga ko'ra shovinistik choralarни qo'lladi. Mustamlakachi harbiy-siyosiy rahbariyat yuzlab qo'zg'olon ishtirokchilari halok bo'lganiga qaramay, 200 dan ziyod kishini Sibirga badarg'a qildi. Ular orasida o'zbeklar, qirg'izlar, qozoqlar, tojiklar, uyg'ular va turklar bor edi. "Tugatilishi lozim bo'lgan qishloqlar o'mida rus seleniyelarni" barpo etish vazifasi ham Farg'ona viloyati aholisi uchun g'oyat fojiali bo'ldi. Hukumat bu borada alohida shafqatsizlik ko'rsatgani diqqatni tortadi. Ayrim rus amaldorlarining guvohlik berishicha, jazoga tortilgan qishloqlar aholisi "ko'chishga majburligi muqarrarligi to'g'risidagi fikrغا butunlay ko'nikkan, lekin qayerga ko'chishga to'g'ri kelishini bilmaydi". Ruslar va ko'plab ko'chib kelgan nasroniy diniga mansub boshqa aholining soni keskin ko'paydi. XX asr boshlarida Stolipin islohoti munosabati bilan bu hol yana ham kuchaydi.

Ichki ijtimoiy-iqtisodiy muammo larini o'z imkoniyatlari hisobiga emas, balki yangi hududlarni bosib olish hamda ularning tabiiy boyliklaridan va aholi salohiyatidan foydalinish hisobiga hal etishni afzal ko'radigan Rossiya imperiyasi hukmron doiralari, qishloq xo'jalik va sanoat-tovar ishlab chiqaruvchilari, savdo va xizmat ko'rsatuvchi sohalarni egalladilar.

Bu tartib o'zboshimchalik bilan ko'chib keluvchilar oqimini eng kam darajaga yetkazish uchun yo'lga qo'yildi. Chunki ular ko'chib kelgan joylarida tub qishloq aholisining yeri, qoramoli va hatto, uyro'zg'or buyumlarini ham zo'rlik bilan tortib olishardi. Garchi hukumat bunday hodisalarga ko'pincha e'tibor bermagan bo'lsa-da, dehqonlarning onimaviy g'alayonlari oldini olishni istagandi. Undan tashqari, Turkiston ma'muriyatining aholini ko'chirish amaliyotini tartibga solishga qaratilgan choralar doim ham samara beravermadi. Bu boradagi masalalarni hal etish yo'llarini belgilovchi birorta ham qonun-qoidalar to 1881- yilgacha mavjud emas edi. Shu sababli imperiya hukumati, mustamlaka ma'muriyati taklifi bilan 1881- yil 10- iyulda "Dehqonlarni bo'sh davlat yerlariga ko'chirish bo'yicha muvaqqat tartib-qoidalar"ni tasdiqladi. Bu qoidalar 1882- yil 18- mayda tashkil etilgan Dasht general-gubernatorligiga ham taalluqli ekanligi belgilab qo'yildi.

XIX asrning 60-yillardan boshlab, Rossiyaning ichki guberniyalarida krepostnoylik huquqini bekor qilish bilan bog'liq sa'y-harakatlar aholining quiqi qatlamlarini juda og'ir ahvolga soldi. Ming-minglab rus dehqonlari qashshoqlikdan, ochlikdan qutilish maqsadida yangi bosib olingan va olinayotgan hududlarga intilishardi. Gap shundaki, krepostnoylik huquqini bekor qilish to'g'risidagi qonunga ko'ra, dehqonlar ixtiyoridagi yerlarning 1/5 qismi pomeshchik va quloqlarga o'tdi. Yerni sotib olmoqchi bo'lganlar uning qiymatining 20-25 foizini to'lashi zarur edi, qolgan qiymatini davlat to'laydigan bo'lishi kerak edi. Dehqonlar esa davlatga o'z qarzlarini 49 yil mobaynida to'lashlari lozim edi. Tabiiyki, bunday shartlarga dehqonlar ko'nishi qiyin edi. Undan tashqari Rossiyada qurg'oqchilik, hosilsizlik ro'y bergan yillarda metropoliyadan aholi ko'chishini boshqarish, nazorat qilishning iloji yo'q edi. Masalan, 1889-1891- yillarda ichki guberniyalarda ko'chish guvohnomalari 17289 oilaga berildi. Ko'chib kelgan oilalar soni esa aslida 28911 ga yetdi. Imperianing g'alla yetishtiriladigan ko'plab guberniyalarida ro'y bergen ocharchilik sababli 1892- yilda ko'chuvchilar oqimi keskin ko'payib, 100 ming kishidan ortiqni tashkil qildi.

Oqibatda Sirdaryo viloyatining o'ziga 1892-1893- yillarda ko'chib kelganlar 17 ta qishloqni barpo etishdi. Rossiya hukumati Uralortiga, shu jumladan, Turkistonga aholini ko'chish harakatini qisqartirish, uni Sibir va Uzoq Sharq tomonlarga yo'naltirish maqsadida 1892- yil 6-martdag'i farmoyish bilan chiqish joylarida ko'chish hujjatlarini berishni taqiqlab qo'yganda ahvol shu darajada bo'ldi. Biroq Toshkentda 1892-yilda bo'lib o'tgan qo'zg'olondan havotirga tushgan mustamlakachi

ma'muriyat rus aholisini o'lkaga jalb etishga yana rozi bo'ldi. Aholini ko'chuvchilik harakatini boshqarish uchun mas'ul bo'lgan maxsus idorani tuzish zarurati yuzaga keldi. 1896- yilda Dehqonchilik va yer tuzish Bosh boshqarmasi qoshida tashkil etilgan Ko'chiruvchilik boshqarmasi shunday idora bo'lib qoldi. Turkiston markazida, uning viloyatlarida, Dasht o'lkasida, uning boshqaruvi bo'limlari, uyezdalar va qitor shaharlarda ko'chiruvchilik punktlari tashkil etildi.

XIX asming oxirida - XX asning boshlarida faqat Turkistonda emas, balki Buxoro amirligi va Xiva xonligidan zo'rlik bilan tortib olingan hududlar ko'chirib keltirilgan rus aholini, 1915- yildan boshlab esa xorijiy harbiy asirlarni ham joylashtirish uchun foydalanilgan. Bu esa tub aholi uchun ham juda og'ir bo'lgan. 1914- yil avgustning oxiri sentabrning boshida Rossiya imperiyasining Harbiy va Ichki ishlari vazirliklari Turkiston ma'muriyati bilan birgalikda Avstro-Vengriya, Germaniya armiyalariga mansub harbiy asirlarni Toshkent, Samarqand, Skobelev, Ashxobad, Qo'qon, Andijonda joylashtirish va asirlar tarasidan bajariladigan ishlarning hajmi va turlarini rejalashtirgan edi.

Shuni ham qayd etish kerakki, Rossiya imperiyasi va mustamlakachi ma'muriyati 1898- yilgi Andijon (Dukchi Eshon) qo'zg'oloniga javoban mohiyatiga ko'ra o'ta shafqatsiz, xarakteriga ko'ra shovinistik choralarmi qo'lladi. Mustamlakachi harbiy-siyosiy rabbariyat yuzlab qo'zg'olon ishtiokchilari halok bo'lganiga qaramay, 200 dan ziyod kishini Sibirga badarg'a qildi. Ular orasida o'zbeklar, qirg'izlar, qozoqlar, tojiklar, uyg'ular va turklar bor edi. "Tugatilishi lozim bo'lgan qishloqlar o'rnida rus seleniyelarni" barpo etish vazifasi ham Farg'ona viloyati aholisi uchun g'oyat fojiali bo'ldi. Hukumat bu borada alohida shafqatsizlik ko'rsatgani diqqatni tortadi. Ayrim rus amaldorlarining guyohlik berishicha, jazoga tortilgan qishloqlar aholisi "ko'chishga mayburligi muqarrarligi to'g'risidagi fikrga butunlay ko'nikkan, lekin quyerga ko'chishga to'g'ri kelishini bilmaydi". Ruslar va ko'plab ko'chib keigan nasroniy diniga mansub boshqa aholining soni keskin ko'paydi. XX asr boshlarida Stolipin islohoti munosabati bilan bu hol yana ham kuchaydi.

Ichki ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini o'z imkoniyatlari hisobiga emas, balki yangi hududlarni bosib olish hamda ularning tabiiy boyliklaridan va aholi salohiyatidan foydalanish hisobiga hal etishni afzal ko'radigan Rossiya imperiyasi hukmron doiralari, qishloq xo'jalik va sanoat-tovar ishlab chiqaruvchilari, savdo va xizmat ko'rsatuvchi sohalarni egalladilar.

Mazkur davrda metropoliyadan Turkistonga aholini ko'chirish xususiyatlaridan yana biri shu ediki, o'lkadagi yirik shaharlar (Toshkent, Samarqand, Andijon, Qo'qon, Marg'ilon) rus (yangi) va mahalliy (eski) qismrlarga bo'linib, shaharlarni bog'lovchi yo'llar bo'yida kazaklarining stanitsalari, rus dehqonlarining poseleniyelari barpo etildi.

O'rta Osiyo, xususan, Turkistonga Rossiyadan aholini ko'chirish usullari esa dastlabki davrda yoki keyingi vaqtida ham deyarli bir xil bo'lgan va mustamlaka ma'muriyatining harbiy-politsiya, buyuk davlat-chilik boshqaruv tizimining mohiyati bilan belgilangan. Metropoliyadan ko'chib kelganlar ayniqsa, kazaklar va ruslarning aksariyati, o'zlarini bu yerda g'olib mamlakatning vakillaridek his etishib mahalliy aholiga nisbatan ko'pincha qo'pol muomala qilishgan. Bunday ta'rif birinchi navbatda kazaklarga, harbiy-politsiya organlaridagi mansabdorlarga hamda hech qanday ruxsatsiz, o'zboshimchalik bilan ko'chib kelganlarga taalluqlidir.

XIX asr oxiriga kelganda, Turkistondagi rus qishloqlari soni 116 ta bo'lib, 70745 kishini tashkil qilgan. 1897- yilgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotiga ko'ra, Turkistonda 197720 nafar ko'chirib keltirilganlar bor edi. Tarixiy dalillar shuni ko'rsatadiki, ko'chirish siyosati bo'sh yerlar emas, amalda mahalliy aholi tomonidan o'zlashtirilgan yerbarda amalga oshirilgan. Rossiya tomonidan Turkiston zabit etilganidan boshlab 1906- yilgacha ko'chirish siyosati tufayli Yettisuv viloyatidan 752197, Sirdaryodan 159561, Farg'onadan 9925, Samarqanddan 22907 va Kaspiyoti viloyatidan 10318 desyatina yer tortib olingan edi.

XX asr boshlarida Rossiyada iqtisodiy tanazzul kuchayib, u dehqonlarni ham chetlab o'tmadni. 800 ming dehqonlar xo'jaligi vayron bo'lib, 1901- yilda dehqonlar 500 ming pud g'alla kam hosil oldilar. To'la bo'limgan ma'lumotlarga ko'ra, 1900-1904- yillarda Rossiyaning Yevropa qismidagi 42 ta guberniyada 670 ta dehqonlar qo'zg'oloni bo'lib o'tdi. 1901-1902- yildagi hosilsizlik Rossiya dehqonlarini ruxsatsiz, o'zboshimchalik bilan chekka o'lkalarga ko'chishini kuchaytirib yubordi. Masalan, 1902- yili Yettisuv viloyatiga Rossiyadan 2228 ta oila, ya'ni 11687 kishi ko'chib keldi. O'zboshimchalik bilan Turkistonga ko'chib kelganlar arzon ish kuchini tashkil qilib, xo'jaliklarda ishlar, qozoqlardan yerbarsi ijara olib dehqonchilik qildi. Shu asnoda ruxsatsiz ko'chib kelgan rus posyolkalari tashkil topdi. Farg'ona viloyatining Andijon va O'sh uyezdlarida qirg'izlardan ijara olingan yerbarda 637 oila ko'chib kelganlar – 3452 kishi yashab, 8 ta ruxsatsiz posyolka tashkil qildilar. Namangan uyezdiga ko'chib kelgan 70 oila

ham Ketmontepaga joylashib, ruslar qishlog'ini tashkil qildilar. Ahvol shu darajada nazoratsiz ediki, oxir-oqibatda 1907- yilda qishloqlariga rasmiy "maqom" berildi va ro'yxatdan o'tkazildi.

Rossiya harbiy vazirligi tomonidan 1903- yil 10- iyunida "Qishloq aholisini ko`ngilli tarzda Sirdaryo, Farg'ona va Samarqand viloyatlariga ko`chirish qoidalari" joriy etildi. Ushbu "qoida"ga ko`ra, Turkistonga ko`chib kelgan har bir erkakka 3 desyatadan yer ajratish ko`zda tutilgan edi. Ko`chib keluvchilar uchun yaylovlar berish, "zaruriyat va imkoniyat"dan kelib chiqardi. Ayni paytda ushbu "qoida" Yettisuv va Kaspiyorti viloyatlariga taalluqli emas edi. O`z navbatida Yettisuv va Kaspiyorti viloyatlariga ko`chib kelganlar o`zboshimchalik bilan joylashganlar qatorida hisoblanib, ularni rasman ro'yxatdan o'tkazish ishlari bilan ma`muriyat shug`ullanmagan. Norasmiy ma'lumotlarga ko`ra, Yettisuv viloyatiga o`zboshimchalik bilan ko`chib kelib, rasman ro'yxatdan o'tkazilmaganlar 1902- yilga kelganda 23 ming kishini tashkil qilgan. Faqatgina Sirdaryo viloyatida ularning soni 2 ming kishini tashkil qilgan.

1904- yil 6- iyunida Rossiya hukumati yangi ko`chirish bo'yicha qonun qabul qilgan. Ushbu qonunga muvofiq, Rossiyada ko`chadiganlar vakili dastlab joylarda yer bor yoki yo`qligini aniqlashi kerak edi. Ushbu qonunga ko`ra, Turkistonga ruxsatsiz ko`chib kelganlar ham endilikda qonuniy deb topildi. Ammo Turkiston hamon rasman ko`chib keluvchilar uchun berk hudud hisoblanardi. Rasman Turkistonga ko`chirish taqiqlangan bo`lsa ham amalda minglab rus dehqonlari Yettisuv va Sirdaryo viloyatlariga ko`chish harakatida edilar. Yettisuv viloyatiga o`zboshimchalik bilan ko`chib kelganlar 1902- yilda 23 ming kishidan 1910- yilga kelganda 65 ming kishiga yetgan. Bu paytda Sirdaryo viloyatida o`zboshimchalik bilan ko`chib kelganlar 7778 kishini tashkil qilgan. Shu paytda Farg'ona viloyatiga o`zboshimchalik bilan 893 oila ko`chib kelgan edi. 1908-1909- yillarda Kaspiyorti viloyatiga 121 oila ko`chib kelgan. Rasmiy ma'lumotlarga ko`ra, 1906-1910 yillari mahalliy aholidan ko`chirib kelinayotganlar uchun 4432 desyatina yer tortib olingan. 1910- yili 19- dekabrda Ko`chirish boshqarmasiga qozoq va qirg'izlardan "ortiqcha" yerlarni tortib olishga rasman ruxsat berish to'g'risida qonun qabul qilindi.

1917- yilga kelganda Turkistonda yashovchi o'troq rus aholisi 750 ming kishini ya`ni o`lkaning umumiy aholisi 10% ini tashkil qilgan. Rus aholisining 400 mingtasi shaharlarda, 350 mingtasi esa qishloq joylarida

istiqomat qilardi. Ko'chirib kelingan, o'lkada yashayotgan rus aholisining 278 mingtasi rus qishloqlarida yashardi.

Ko'chib kelib yashayotganlar ichida birinchi o'rinni Yettisuv viloyati (75 ming kishi) egallab, bu yerda 195 ta dehqon qishloqlari bor edi. Turkistonning qolgan 4 ta viloyatida 269 ta rus qishloqlari bo'lib, 96,5 ming kishi istiqomat qilgan.

2. Rossiyadan ko'chirib kelingan aholining Turkistonda joylashtiruvchi va turmush tarzi. Rossiya imperiyasining ko'chiruvchilik siyosati buyuk davlatchilik va mustamlakachilik tamoyillariga asoslanganligini Turkistondagi yirik shaharlarni (Toshkent, Samarcand, Andijon, Qo'qon va boshqa) rus va mahalliy qismlarga bo'linishida hamda rus aholisi yashayotgan hududda obodonlashtirish, boshqaruv ishlarga sarflanayotgan harajatlarni mahalliy aholidan undirilishida, mahalliy hunarmandlardan, yer egalaridan, o'troq va ko'chmanchi aholidan olinadigan turli soliqlarning hajmini, savdogarlardan esa boj to'lovlarining bir necha barobar oshirilishida ham yaqqol namoyon bo'lgan. Bundan tashqari, mahalliy aholi muntazam ravishda ariqlarni tozalashga, kanallarni qazishga va boshqa ishlarni tekin bajarishga majburan jaib etilar edi. Metropoliyadan ko'chib kelgan aholiga bir qator imtiyozlar berilgan bo'lib, mahalliy aholining zavod, fabrikalarda, boshqa korxonalarda ishlovchi vakillariga to'lanadigan mehnat haqi rus ishchilaridan 40-50 foizga kam edi, ayrim korxonalarda esa bu farq 3-3,5 barobarga yetgandi.

Turkistonga metropoliyadan aholini ko'chirish siyosati chinakam mustamlakachilik mohiyatiga ega bo'lganligi kazaklarni, rus dehqonlarini oddiy (berdanka) miltiqlar bilan qurollantirish, 1882- yilgi Toshkent, 1898- yildagi Andijon qo'zg'oloni, 1916- yilgi umumturkiston qo'zg'oloni bilan bog'lilq voqealar ko'rsatdi.

Umuman olganda, XX asr boshida o'lka tog'-kon sanoatida band bo'lganlarning soni 8 ming kishidan ortiq bo'lib, bu sanoatning eng yirik tarmog'i - paxtachilikdagidan 2,5-3 ming kishiga kam edi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlari, mineral xom-ashyo, neft mahsulotlarini ishlab chiqarish, ularni Rossiya imperiyasiga tashib ketish hamda metropoliyadan Turkistonga qishloq xo'jalik mehnati qurollari, xo'jalik anjomlari, kiyim-kechak, poyabzal, boshqa iste'mol mollarini keltirish ko'payib borayotgan sharoitda, o'lka ma'muriyat Rossiya buyumlariga mahalliy an'anaviy hunarmandlik ishlab chiqarishining raqobatini bosish uchun ko'p choralar ko'rildi. Bu choralar shahar va qishloq hunarmandlariga solinadigan soliqni oshirish, hunarmandchilik

buyumlari sotilishining yirik hunarmandlik ustaxonalari sohiblari bo'lgan olib-sotarlar qo'lida jamlanishi, Rossiya mollarini vaqtincha arzon narxda sotishdan iborat edi. Bunday mustamlakachilik tajribasi o'n minglab hunarmandlarning xonavayron bo'lishiga, an'anaviy hunarlarning ko'plab turlari tugatilishiga hamda tub aholiga odatiy bo'lgan arzon mollar o'miga Rossiyaning qimmatroq mollarini sotib otishi majbur bo'lishiga olib keldi.

Rus aholisini Turkistonga ko'chirib keltirib, tub aholi hisobidan har tomonlama joylashtirish, shuningdek mustamlaka siyosati bilan belgilab berilgan, mahalliy xalqlarga ijtimoiy, iqtisodiy, milliy zulm o'tkizish, o'lka ma'muriyati joylardagi boshqaruv tuzilmalarini, 50 ming kishilik armiyani va shaharlarning rus qismlarini tub aholi hisobidan ta'minlashni ko'zlagani mustamlakachilikning dastlabki davrdayoq soliqlar miqdori oshirilib, ulami yig'ish usullarining kerkinlashuviga olib keldi.

Masalan, Turkiston viloyati mavjud bo'lgan davrdayoq mustamlakchi ma'muriyat davlat hisobiga o'tkazilgan bo'lib, tub aholidan natural soliq tarzida olingan xo'jalik mahsulotlaridan rus armiyasini ta'minlash uchun foydalangandi. Turkiston general-gubernatorligi tuzilib, Toshkent, Delisota, Pishpak, Verniy, Samarqand, Xo'jand, Yangi Buxoro, Chorjo'y, Kattaqo'rg'on va Ashxabodda garnizonlar qurish, shuningdek qator shaharlarda rus qismlarini buniyod etish zarurati tufayli mustamlaka boshqaruv tizimi barpo etilgach, tub aholiga yangi soliqlar, bi yo'la pul yig'imlarini solish, shu jumladan, ilgari hech qachon soliq va o'lponga tortilmagan vaqf mulklaridan ham soliq olish boshlandi.

Imperiya amaldorlari Turkistonni ta'minlash uchun metropoliya katta harajatlar qilayotgani haqida tez-tez gapirib, hatto 1861-1881-yillarda bu harajatlar mustamlakadan olingan daromadlardan 100 million so'mga oshib ketganini ham ta'kidlashgandi. O'lkani 1882-yilda taftish qilgan senator F. Girs Turkistonda ko'rilgan ziyon yiliga 85,5 million rublni tashkil etganini ko'rsatib, shu munosabat bilan: "Bu pullarning katta qismi tub aholi tomonidan emas, ruslar tomonidan to'langan va ayni mahalda, bu mablag", shubhasiz, Turkiston tub aholisi turmush farovonligini oshirgan" - deb yozgandi. F. Girsning bunday xulosasi u rahbarlik qilgan komissiya tomonidan taftish jarayonida aniqlangan quyidagi dalillar bilan aslo qovushmaydi: "Toshkentning rus qumini ta'minlash uchun eski shaharda yashovchi har bir oila 1879-yilda 3 tiyindan to'lagan". F. Girsning o'zi tasdiqlaganidek, "Yangi Murg'ilondan 12 chaqirim masofada joylashgan eski Marg'ilonda istiqo-

mat qiluvchi, yangi shaharga hech qanday aloqasi bo`lmagan aholi esa har yili uni ta`minlash uchun 9 ming rublgacha to`lagan. Samarqand Eski shahar qismining daromadi esa 4 ming so`mdan oshmasdi, lekin Yangi Samarqandning barcha xarajatlari uning hisobidan qoplanardi. Shaharlar xarajatini qoplashning bunday yo`li mahalliy aholining noroziligiga sabab bo`lgan.

Senator F. Girs, keyinchalik graf N. Ignatev komissiyasi ham mustamlakachi ma`muriyat soliqlar sohasida qilgan yangiliklari adolatsizlikdan iboratligiga tushungan holda, ilgari natural tarzda mavjud bo`lgan ko`plab soliqlar o`rniga tub o`troq qishloq aholisidan, ko`chirib keltirilgan ruslardan esa ular yer bo`laklarini olgach, besh yildan keyin pul bilan olinadigan yagona davlat yer solig`ini joriy etish to`g`risida taklif kiritishdi. Bunda Turkistonning tub musulmon aholisi, xuddi ilgaridek, mahalliy ma`muriyatni, qozilarni, bo`limlarni ta`minlash uchun zakot, o`lpon to`lashda, shuningdek sug`orish kanallari, ariqlari, to`g`onlar, ko`priklar va shu kabilarni tozalash, tuzatish, qishloq va mahallalarni obodonlashtirish ishlarini majburiyat sifatida bajarishda davom etardi.

Mustamlakachi ma`muriyat o`lkaning ko`chmanchi, yarim ko`chmanchi aholisidan olinadigan soliq va o`lponni qisqa muddatda oshirib yubordi. Agar 1865-1867- yillarda har bir o`tovdan olinadigan o`lpon yiliga 1,5 rubl bo`lgan bo`lsa, 1868-1881- yillarda 2,75 rublga chiqди. 1882- yildan esa 4 rubl miqdorida olna boshlandi. Bundan tashqari ko`chmanchilarining har bir oilasidan (aslida yagona oila bo`lgan katta va kichik avlod oilaiarini ajratgan holda) mahalliy (zemskiy) ehtiyoj uchun (shu jumladan ma`muriyat maoshi uchun ham) 1,25 rubl va ko`pchiligi mutlaqo aloqador bo`lmagan rus-tuzem maktablarini ta`minlash uchun 0,5 rubldan olinardi. Soliq va o`lponlar to`lash masalasida istisno yo`q edi.

Turkiston viloyati tuzilgunga qadar Orenburg va G`arbiy Sibir general-gubernatorliklarining chegaralaridan tortib Toshkent vohasiga bo`lgan shaharlarga, harbiy istehkomlar atrofiga Rossiyadan aholi ko`chib kelgan edi.

Tabiiyki, rus qo`shinlari ketidan keigan harbiy ma`muriyat keyinchalik harbiy-xalq ma`muriyati yordami bilan shaharlarda, ayniqsa qishloq joylarda juda yaxshi imkoniyatlarga va katta imtiyozlarga ega bo`lishdi. Masalan, 1865-1868- yillarda Turkistonga ko`chib kelgan rus dehqonlarini har bir oilasi 100 desatinagacha (109 hektar) dehqonchilikka yaroqli yerga va yaylovlargacha ega bo`ldi hamda barcha to`lovlardan

ozod etilgan edi. O'sha yillarda ko'pchiligi rus savdogarlari mablag'i bilan bu yerda ish boshlab (asosan spirtli ichimliklarni ishlab chiqish va sotish), tez orada nihoyatda boyib ketishdi. Shulardan biri - D.L.Filatov tononidan Toshkentda va Samarqandda birinchi vino-aroq zavodlari qurildi.

Albatta, Rossiya imperiyasi va mustamlaka ma'muriyati o'lkaga xo'jalik jihatidan baquvvat dehqonlar ko'chishini xohlagan edilar. Biroq XIX asrning 70-yillari va undan keyingi davrda tashkiliy tarzda ko'chirilgan dehqonlar orasida, ayniqsa, o'zboshimchalik bilan ko'chib kelganlar orasida bundaylari juda ozchilikni tashkil etishgan.

Shuni hisobga olib, imperiya hukmron mahkamalari Turkistonga ko'chib borayotgan pravoslav e'tiqodiga mansub aholiga mumkin qadar ko'proq ko'maklashishga harakat qilishdi. Bu borada harbiy xizmat muddatini o'tab bo'lgan, ya'ni Turkistonda yashashni xohlagan soldat va zabitlar ustuvor e'tiborga sazovor bo'lishgani tabiiydir.

XIX asrning 60- yillardan keyin imperiya hukmron doiralalarida metropoliyadan ko'chirilganlar yer bilan ta'minlangan va yana yuz minglab ko'chirilganlar oladigan yerlarni xususiy mulk qilib berish to'g'risidagi masala ancha uzoq muhokama qilingandi. Lekin Yettisuv, Sirdaryo viloyatlarini boshqarish 1867- yil 11- iyuldagagi Nizom loyihasida agrar munosabatlar borasidagi masala uncha yoritilmagani, birinchi general-gubernator K.P. fon Kaufmanga esa mazkur Nizom loyihasida ko'rsatilgan asoslar qo'llanib, unda o'lka tuzumi uchun foydali va zarur deb e'tirof etilgan barcha chora-tadbirlarni ko'rish huquqi berilgani sababli yer mulki to'g'risidagi masala deyarli 15 yil davomida general-gubernatorning ko'rsatma harakteridagi farmoyishlariga muvofiq. lekin ko'pincha ancha erkin-rus amaldorlari ixtiyoricha hal qilib kelindi.

Farg'ona viloyatining qishloq joylarida yashovchi rus aholining moddiy ahvoli, asosan, Andijon va Namangan uyezdlarida birinchilar qatorida tashkil qilingan poseleniyelarda yuqori darajada edi. Masalan, Andijon uyezdidagi Nikolayevskoye nomli qishloq, Namangan uyezdidagi Uspenskoye qishloqlaridagi har bir xo'jalikka 14,5 desyatina ekinga yaroqli hamda 3 desyatina yaylov yerlari to'g'ri kelgan. Umuman esa, Farg'ona va Samarqand viloyatlarida rus qishloq aholisi shu viloyatlardagi barcha aholining 0,05 foizini tashkil etgan holda shaharlarda yashovchi rus aholining turmush darajasidan past darajada bo'lgan.

Metropoliyadan ko'chib kelgan aholi mustamlakachilikning ishonchli tayanchi bo'lishi uchun nafaqat moddiy, balki madaniy ustunligini ham ta'minlash zarurligini yaxshi bilgan holda, Rossiya

imperiyasi va o'lka ma'muriyati masalaga jiddiy yondashgan edilar. Bu borada qiyinchiliklar ko'p edi. Chunki metropoliyadan ko'chib kelgan aholi, ayniqsa kazaklar va rus dehqonlari, savodsiz bo'lganligi sababli farzandlarini o'qitish ahamiyatini tushunmagan. Rossiyaning o'zida esa qishloq joylarda aholi o'z farzandlarini cherkov qoshidagi 3-4 yillik maktablarda o'qishiga rozi bo'lgan, shaharlarda asa aholining mulkdor, moddiy jihatdan ta'minlangan qatlamlarga mansub aholining farzandlari boshlangich maktablarga va o'rta ta'lim gimnaziyalariga ko'proq jalb etilgan.

Keyingi davrda Samarqand, Sirdaryo, Farg'ona viloyatlariga metropoliyadan birinchi navbatda baquvvat qishloq aholisini ko'chirish ancha kengaydi. Rossiya imperiyasi harbiy vazirligi qoshida 1900- yilda tuzilgan maxsus komissiya o'lka iqtisodiyotidan, ijtimoiy imkoniyatlaridan Rossiyaning ichki iqtisodiy, ijtimoiy muammolarini hal etishda faolroq foydalanishga qaratilgan turli loyihalarni ishlab chiqqan edi. Shulardan biri Turkistonda paxta yetishtirishni oshirish edi.

1904- yil 6- iyunda Sibirga, Turkistonga va Dasht o'lkasiga rus qishloq aholisining erkin ko'chishi to'g'risidagi qonun e'lon qilindi. Ayni vaqtida, dehqonchilik va davlat mulklari bosh boshqarmasi Turkiston tub aholisi uchun ortiqcha deb topiladigan yerlarni musodara qilish, tortib olish masalasi bo'yicha bir qator takliflarni tayyorlagan edi. Biroq 1904-1905- yillargi rus-yapon urushi bu boradagi rejalarini, umuman, agrar islohotlarni amalga oshirishga to'sqinlik qildi. 1906- yil 9- noyabrda e'lon qilingan agrar islohot Rossiyaning ichki guberniyalarida dehqonlarning ahvolini og'irlashishiga olib keldi va ularni chet o'ikalarda najot istashga undadi. Shuning uchun ham ko'chiruvchilik harakati kengayib boraverdi.

Masalan, Farg'ona, Sirdaryo va Samarqand viloyatlarida ko'chirib keltirilayotgan va o'zboshimchalik bilan ko'chib kelayotgan rus aholisi ni ta'minlash uchun 1906-1910- yillarda 4432 desyatina sug'oriladigan yerlar tub aholidan tortib olindi. Bu yerlarda 8 mingdan ko'proq ruslarning yangi posyolkalari barpo qilindi.

Bu qonun, aslida, ko'chirib keltirilganlar, asosan pravoslav e'tiqodidagilar tomonidan tub qishloq aholi yerlari, mehnat quro'llari va ko'pincha mol-mulkining ham tortib olinishini rasmiy ravishda rag'batlantirib borganligini manbalarda uchratish mumkin.

Rossiyadan ko'chib kelayotgan dehqonlarga beriladigan sug'oriladigan yerlar bo'limgani va 2 mingdan ortiq oilalar yersiz bo'lgani uchun Turkiston o'lkasiga 1907- yildan aholini ko'chirish taqiqlandi.

Lekin keyingi jarayonda ham metropoliyadan yana aholi ko'chib kelaver ganligini kuzatish mumkin. Masalan, Sirdaryo viloyatining Avliyoota uyezdida 1906-1910- yillarda 18 ta, Chernyayev uyezdida 19 ta, Toshkent uyezdida 19 ta, Perovsk uyezdida 3 ta, Samarqand viloyatida 5 ta, Kaspiyorti viloyatida 10 ta, Farg'ona viloyatida 12 ta yangi rus posyolkalari paydo bo'ldi.

1910- yil 19- dekabrda qabul qilingan qonunga ko'ra, Turkistonga ko'chirib keltirilayotgan, aksariyat hollarda o'zboshimchalik bilan kelayotgan rus aholisi tub millatni qehqonlardan, ko'chmanchi chorvadordardan zo'rlik bilan tortib olish yo'li bilan yerli bo'lган. Shu bilan birga, Mirzacho'lning Xo'jand uyezdiga qarashli qismida, 1913- yilda Romanov kanali ishga tushirilgach, bu yerga ko'chib keluvchi har bir oilaga 8-10 desyatindenan sug'oriladigan yer berilishi tufayli tez orada 6 ta rus posyolkalari tuzildi.

Eng asosiysi, Rossiya imperiyasi va mustamlaka ma'muriyati 50 ming kishilik rus armiyasini saqlab qolib, oshkora mustamlakachi va buyuk davlatchilik, shovinistik hokimiyat tizimini yaratishga Rossiya imperiyasi Turkistonning deyarli 600 ming desyatina sug'orma, deyarli 2 million desyatina sug'orilmaydigan yerlariga zo'rlik yo'li bilan metropoliyadan 750 mingga yaqin rus dehqonlari, kazaklar va shahar kambag'allarini ko'chirib keltirib, joylashtirishga erishdilar.

Aholining ijtimoiy, ma'naviy manfaatlariiga, madaniyatiga nisbatan tashkiliy, mafkuraviy yondashuvi oldindan ishlab chiqilmagandi. Biroq ularning mazkur manfaatlarni inkor etish niyati istilodan oldinroq ma'lum edi. Milliy madaniyatni esa, iqtisodiyot singari, buyuk davlatchilik maqsadlariga bo'ysundirish nazarda tutilgandi.

Ilk pallada Rossiya hukmron doiralari mustamlakachi ma'muriyatning Turkiston uchun maxsus mo'ljallangan yondashuv va faoliyat uslublari bo'limgaganligini quyidagicha izohlash mumkin: imperiya hukumati G'arbiy Yevropa davlatlari, eng avvalo Buyuk Britaniya va Fransiya bilan munosabatlar yanada murakkablashib ketishidan xavfsirab. XIX asrning 60- yillari boshida qozoq juzlariga kirib borishdan tashqari, Qo'qon xonligi hududining katta qismini istilo etish bilan vaqtincha kifoyalanish niyatida edi. Ustiga ustak, 1865- yil 2- martda Turkiston viloyati tuzilganidan keyin imperiya hukumati shu viloyat o'rniga Rossiya imperiyasi protektorati ostida bo'lishi lozim bo'lган Toshkent xonligini tuzishni mo'ljallagan edi. Orenburg general-gubernatori Krijanovskiy 1866- yil bahorida shu maqsadda Toshkentga kelgandi. Biroq, bu faqat diplomatik nayrang edi, chunki Turkistonning

ichki ma'muriy-hududiy tuzilishining o'zi kelajakda sof harbiy vazifalarni amalga oshirishga moslashtirilgan edi.

Turkiston ma'muriyatni ko'chirib keltirilgan ruslarning mavjud qishloqlari aholisi uchun chek yer hamda jamoa bo'lib foydalaniладиган yer maydonlarini kengaytirish zarur deb hisoblagan chog'larda ham tub aholiga nisbatan shafqatsiz choralar ko'rildi. Masalan, 1913-yil fevralda Sirdaryo viloyatidagi ko'chiruvchilik bo'limining mudiri Avliyoota uyezdi boshlig'iغا yo'llagan maktubida: "Maksimalovka qishlog'ini yer bilan ta'minlash uchun 1911-yil dekabr oyida Alekseyevka qishlog'ining aholi dehqonlari xususiy ijara sifatida foydalaniб turgan yerlarning 120 desyatinaga yaqin maydon tortib olindi. Buning o'rniga, o'sha vaqtdayoq Alekseyevka qishlog'iga noqonuniy bitim bo'yicha ijaraga olingan yer o'rniga, ushbu qishloqning chek yerlarini yaxshilash maqomida 100 desyatinaga yaqin yerni qo'shib berishga qaror qilingandi", - deb yozgandi. Ko'rinib turibdiki, hokimiyat tub aholidan tortib olingan 120 desyatinai yerni Maksimalovka qishlog'ida istiqomat qiluvchi ruslar manfaati uchun ajratib bergen, Alekseyevka qishlog'ining aholisi uchun esa yana 100 desyatinai yerni ajratganligini qayd qilgan.

Shunday qilib, Turkistonning ma'muriy-hududiy bo'linishi, barcha hokimiyat (davlat-boshqaruv, sud va boshqa) funksiyalarining yaxshi qurollangan rus armiyasiga, politsiya kuchiga, kazaklarga, ya'ni qurollarga ega bo'lgan rus aholisiga, shuningdek shovinistik xarakterdagi shafqatsiz qonunlarga hamda tub aholi orasidan chiqqan vakillarga tayangan rossiyalik harbiylar qo'lida jamlanishi mustamlakachi ma'muriyatga tub xalqlarni ma'naviy va jismoniy ezish bo'yicha Rossiya imperiyasi belgilab qo'yan muayyan siyosatni amalga oshirish imkonini bergen. Binobarin, bu siyosatning ilk oqibati, tub aholining tarixan tarkib topgan istiqomat hududlarini ma'muriy-hududiy jihatdan viloyatlarga, uyezdrlarga, volostlarga, shaharlarda esa Eski va Yangi shahar qismlariga ajratib tashlash bo'lib, o'troq qishloq jamoalari, ko'chmanchi aholining va qarindosh-urug'chilik xo'jalik aloqalari ham bo'lingan edi.

Biroq, yuqorida aytib o'tilganidek, ko'chirib keltirilgan ruslarni ma'muriy, hatto, tabaqaviy joylashtirish bilan bog'liq muammolar yuzaga kelganida mustamlakachi ma'muriyat Turkiston tub aholisi huquqlari, manfaatlarini oshkora oyoqosti qilgani holda lozim darajada tez va aniq ish olib borardi. Ushbu mulohazani tasdiqllovchi diqqatga loyiq misol bilan tasdiqlash mumkin. Rostov guberniyasidagi rus

dehqonlari istiqomat qiladigan qishloqdagι yerlarni Keniyskaya stanitsasi kazaklariga berish zarurligi yuzaga kelganligi, Sirdaryo va Amudaryo bo'limi, Kaspiyorti, Sirdaryo va Yettisuv viloyatlari Nakaznoy atamanining iltimosiga ko'ra mazkur hududga ko'chirib keltirishga rozilik berdi. Buning uchun Yettisuv viloyati Prjevalsk uyezdi Oqsuy volostiga qarashli Kungay qishloqlaridagi qirg'izlar, o'zbeklar va uyg'urlardan sug'oriladigan yerlarni tortib olib, rus dehqonlariga berishga qaror qilindi. Boz ustiga, Dondan ko'chirib keltirilayotgan 60 nafar dehqonning ishini hisobga olib, mazkur boshqarma quyidagi qarorni qabul qildi: "Mablag'ni alohida ajratib, har bir oilaga 25 rubldan berilsin, chunki yo'l xarajati uchun berilgan 1000 rubl qarz miqdori bu xarajatlarni qayta ko'chiriladiganlar uchun ziyon keltirmay amalgalashirish imkonini bermaydi".

Mustamlaka ma'muriyati tub aholidan ishlov beriladigan yerlarni hamda yaylovlarni metropoliyadan ko'chirib keltirilganlarni joylash-tirish, davlat yer fondini vujudga keltirish, buyuk knyazlari uchun yerlarni mustamlakachilarcha tortib olish amaliyotini asosan kuch bilan keng qo'llangan holda, sanoatchilar, banklar va savdo shirkatlari, Rossiya firmalarining manfaatli ishtiroki bilan dastlabki yigirma-o'ttiz yil ichida Turkiston qishloq xo'jaligining ko'p tarmoqli universal xususiyatini jiddiy ravishda o'zgartirib, markaziy Yevropa to'qimachilik va yengil sanoatiga bo'yusundirilgan xom-ashyoga, eng avvalo paxtaga ixtisoslashtirdilar. Turkiston ham, Buxoro amirligi va Xiva xonligi singari, asosan agrar mintaqaga bo'lgani, aholisini ko'pchiligi natural xarakterdagi emas, balki bozorga yo'naltirilgan qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik bilan shug'ullangani bois, tub xalqlar iqtisodiy mustaqillikdan mahrum etilgani, ishlab chiqarish kuchlarining bir yoqlama rivojlanishiga olib keluvchi paxta yakkahokimligi o'rnatilgani, tub qishloq aholisi orasida kam yerli va yersizlar soni keskin ko'payganligi, uning kambag'allashuvi Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosatining eng jiddiy iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari sifatida keltirish mumkin.

Rus dehqonlarini ziroatchilik hududlarda joylashtirish bilan bog'liq bo'lgan temir plug, mexanik seyalkalar, o'rish mashinalari, mineral o'g'itlar, bahorikor ekinlarga ishlov berish agrotexnikasi singari yangiliklar esa ko'chirib keltirilgan rus aholi uchungina bo'lib, hukumat ularni tashkiliy, siyosiy va moddiy qo'llabgina qolmay, quroq bilan ham ta'minlab, o'zlarining "iqtisodiy" imkoniyatlarini oshirib bordi. Ahvol bunday bo'lishiga qaramay tub qishloq aholisi jinoyatlarga moyil

bo`limgani, halol mehnatga, jamoa, oila turmush an`analariga sadoqatini yo`qotmagani va ustiga-ustak o`z turmush tarzi bilan Rossiyadan ko`chirib keltirilganlarga muayyan ta`sir ko`rsatganligi g`oyat muhimdir.

Rossiya imperiyasining Turkistondagi ko`chiruvchilik siyosati va amaliyoti imperiya va mustamlakachi ma`muriyatning o`lka tabiiy, ishlab chiqarish va mehnat zahiralarini Rossiya imperiyasi Turkistonda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotni o`z manfaatlariga butkul bo`ysundirish bo`yicha chora-tadbirlarini ishlab chiqdi, uning strategik maqsadlari bilan bevosita bog`liq ko`p qirrali jarayon sifatida amaliyoga tatbiq qildi.

Tayanch so`zlar

Ko`chirish siyosati, guberniya, kazaklarning ko`chirilishi, stanitsa, metropoliya, tartibsiz ko`chish, Qorabolta, rus qishloqlari, poseleniye, "o`tish guvohnomasi", Dukchi Eshon qo`zg`oloni, Eski shahar, Yangi shahar, desyatina, Avliyoota, Romanov kanali, Maksimalovka, Alekseyevka, Nikolayevskoye.

Nazorat savollari

1. Rossiya imperiyasining Turkistonga aholini ko`chirishdan ko`zlagan strategik maqsadlari nimalardan iborat edi?
2. Turkistonga rus aholisini ko`chirish jarayoni dastlab qachondan boshlangan va kimning ko`rsatmalari asosida amalga oshirilgan?
3. Rossiya imperiyasining kazak harbiylarini ko`chirishdan ko`zlagan maqsadlarini gapirib bering.
4. Turkistonning xorijiy davlatlar bilan chegara hududlariga asosan kimlar ko`chirilgan?
5. Turkiston general-gubernatorligi hududida Rossiya imperiyasining necha ming kishilik qo`shini doimiy saqlangan?
6. Turkistonga Rossiya imperiyasidan ko`chirib keltirilgan aholini joylashtirish jarayonida qandayadolatsizliklarga yo`l qo`yilgan?
7. Rossiyadan rus dehqonlarining Turkistonga ko`chirilishi qanday oqibatlarga olib keldi?

6-MAVZU: TURKISTON VA ROSSIYA O'RTASIDAGI MADANIY – MA'RIFIY MUNOSABATLAR

Reja

- 1. Turkistonda matbuot, matbaa ishlarini tashkil etish va rivojlantirishda rossiyalik matbuotchilarining o'rni.**
- 2. Milliy teatr san'atining vujudga kelishida Rossiya musulmon teatr truppalarini va aktyorlarining o'rni.**

1. Turkistonda matbuot, matbaa ishlarini tashkil etish va rivojlantirishda rossiyalik matbuotchilarining o'rni. Turkistonda vaqtli matbuot va matbaa ishlarining yuzaga kelishi bevosita Rossiya podsholigi istilosidan keyin yuzaga keldi. Toshkentda 1868- yilda birinchi bosmaxona Turkiston general-gubernatorligi harbiy okrug shtabi huzurida tashkil qilindi. Bu bosmaxona dastlabki davrda yaxshi jihozlanmagan edi. Shu sabab faqat turli blankalar, ish qo'ozlari bosildi. Mazkur bosmaxona gazeta nashr qilishga moslashmagani uchun 1869- yilda boshqa bosmaxona tashkil etildi. Bu yerda ishslash uchun Rossiyadan harf teruvchilar chaqirildi. Ushbu bosmaxona 1870- yildan arab harfi (shrifti)ga ham ega bo`ldi.

1870- yildan boshlab Turkiston general-gubernatori K.P. fon Kaufmanning farmoniga asosan "Turkestanskiye vedomosti" gazetasiga ilova tariqasida "Turkiston viloyatining gazeti" ham chop etila boshlandi. K.P. fon Kaufman Peterburgdan mazkur gazetani nashr etish uchun musulmon (arab) shrifti keltirishni iltimos qildi. Oradan 6-7 oy o'tgach, Toshkentga tuyalarda (bu vaqtida hali temir yo'llar qurilmagan edi – mualliflar) musulmon shriftlari bilan tatar mutaxassis harf teruvchilari - Shaxingirey Bekqulov, Abdulatif Yavushev va Ali Bektemirovlar kelishdi va birinchi o'zbek tilidagi gazetaning nashr etilishiga bosh qo'shdilar. Shu o'rinda birinchi o'zbek matbuotchilar qatoriga Sirojiddin Xo'jayev, Hamid Xo'jayev va Abdurahmon Xo'jayevlarni kiritish mumkin.

"Turkiston viloyatining gazeti"ni tashkil etish va rivojlantirishda Turkiston general-gubernatori tarjimoni Shohimardon Ibragimov va general-gubernatorlik devonxonasi tarjimoni Muhammad Hasan Chanishevlar katta jonbozlik ko'rsatdilar. Mazkur gazetaga 1872- yildan Sh.Ibragimov, 1883- yildan boshlab qisqa muddat M.Chanishev muharrirlik qildilar. Mazkur gazetaga 1883- yilning oxiridan 1917- yilgacha etnograf, tarixchi va tarimon N.P. Ostroumov muharrirlik qilgan. 1872-yil 18- yanvardagi ma'lumotga ko'ra, Turkiston general-gubernatorligi

devonxonasi va “Turkiston viloyatining gazeti” tahririyatida Abdulla Yaushev va Muhammad Kurmishev harf teruvchi bo`lib ishlaganlar.

1877- yilda S.I.Laxtin tomonidan tashkil etgan bosmaxona Toshkentdagi dastlabki xususiy bosmaxona edi. Mazkur bosmaxona litografiya (toshbosma) jihozlariga ega bo`lib, mahalliy tillarda ham kitoblar nashr qilgan.

XIX asrning 70- yillari oxirlarida Turkistonda mahalliy aholi vakillari tomonidan xususiy bosmaxonalar ochish boshlandi. Xususan, 1877- yilda Toshkentda, 1880- yilda Samarqandda, 1882- yilda Namanganda va 1887- yilda Qo`qonda shunday bosmaxonalar tashkil etilgan. Shubhasiz bu bosmaxonalar ishini tashkil etishda tatar matbaachilar yetakchilik qildilar.

Esonboy Husaynboyev dastlabki o`zbek nashriyotchilaridan biri hisoblanadi. Uning litografiyasi Toshkentda 1883- yilda ishga tushirildi. Mazkur litografiya uchun asbob-uskunalar Rossiyadan 50 dan ortiq tuyada keltirilgan.

1888- yilning oxirida Toshkentda S.A.Portsev tomonidan yana bir bosmaxona ishga tushirildi. Umuman, 1868- yildan 1898- yilga qadar Turkistonda matbaa korxonalarining soni 15 taga yetdi. Ulardan oltiasi bosmaxona bo`lib, qolganlari litografiya yoki tipolitografiyaga ega bo`lgan matbaa uylari edi.

Kitob nashr qilish yangi ishlab chiqarish munosabatlarining mahsuli bo`lib, uning kashf qilinishi burjua jamiyati vujudga kelishiga muhim shart-sharoit yaratgan edi. Binobarin, Turkistonda kitob bosishning kech rivojlanishi uning iqtisodiy va texnik jihatdan qoloqligi natijasi edi. Rossiya imperiyasi ma`murlarining Turkistonda vaqtli matbuotni tashkil etishdan asosiy maqsadi hokimiyatni mustahkamlash, Turkiston general-gubernatorligining obro`sini oshirish, mustamlakachilik siyosatini amalgalash oshirish edi.

Rossiya imperiyasi mustamlakachilar boshqa sohalar kabi noshirlik ishlarida ham o`lkani ma`naviy jihatdan tobe qilish, ruslashtirish siyosatini kuchaytirish kabi strategik vazifalarni hal etishda foydalanishga intildi. Ammo hukumatning tazyiq va taqiqlarga asoslangan mafkuraviy va ma`muriy tadbirlariga qaramay, keng xalq ommasi, milliy ziyorolar asriy an`analarni asrab qolishga intildilar, o`tmish ma`naviy merosini boyitishga kirishdilar. Noshirchilik ishlarida milliy taraqqiyot uchun o`ziga xos shafqatsiz kurash avj oldi.

Matbaachilik sohasidagi raqobatga chiday olmagan N.A.Kugelning shtampgraver (o`ymakorlik ustaxonasi) bosmaxonasini 1907- yilda

Samarqandda faoliyat yuritayotgan aka-uka Ignatevlar litografiyasi hamda Sliyanov va Nazarov matbaalari shirkatini G.Demurov litografiyasi o`ziga qo'shib oldi. Natijada 1908- yilda bu qadimiy shaharda katta litografiya vujudga keldi. Bu yerda dastlab choy yorliq (etiketka)lari bosmadan chiqarildi. 1904- yil 1- maydan V.M.Morozov tashkilotchiligidagi rus tilida "Samarkand" gazetasi nashr etila boshlandi. Unga avval N.V.Bototin, keyinchalik P.V.Pozdnyakov, G.D.Demurovlar noshirlilik qilishdi. 1906- yilda 16- yanvarda ushbu gazeta va bosmaxona podsho senzurasi tomonidan yopildi. Ko'p o'tmay G.D.Demurov katta jarima to`lab, bosmaxonani qayta ishga tushirishga muvaffaq bo`ldi. Gazeta 1906- yil 5- fevraldan boshlab kundalik nashr – "Zarafshan" nomi bilan chop etila boshladi.

1897- yil 14- oktabrda Farg'ona viloyati harbiy gubernatori, general-leytenat Shvaykovskiy Turkiston general-gubernatoriga yozga xatida vodiyya yashovchi yarim million kishilik rus aholisi uchun vaqtli matbuotning o`ta zarurligini ta'kidlab o'tgan edi. Xuddi shu mazmunda-gi xatlar general-gubernator nomiga Samarqand va Sirdaryo viloyatlari harbiy gubernatorlaridan ham kelgan edi. Mazkur iltimosnomalar natijasida yuqoridaq viloyatlarda ham vaqtli matbuot nashrlari yuzaga keldi.

Kitob bosishning rivojlanishi Turkistonda maxsus senzura qo'mitasi ta'sis etish ehtiyojini tug'dirdi. 1883- yilda N.P.Ostromov Turkiston o'lkasida ilmiy-adabiy faoliyatni "rivojlantirishni ko'zda tutib", Turkiston general-gubernatori huzurida mahalliy senzura qo'mitasi ta'sis etishni taklif qiladi. Ammo bu taklif amalga oshmadidi. General-gubernator mahkamasidagi ma'murlar bu yerda bunday faoliyat uchun asos yo'q deb hisobladilar. Garchi senzura qo'mitasi ta'sis etilmagan bo'lsa ham, nashr etiladigan asarlar senzuradan o'tmasdan qolmas edi.

Turkistonda jadid matbuotining yuzaga kelishi shu davr uchun katta progressiv hodisa edi. G'aflatda yotgan xalqni uyg'otish va uning alyosiylar ma'naviy ongini yuksaltirishda davriy matbuotning muhim o'rinni anglab yetgan taraqqiyatvar jadidlar 1905- yil 17- oktabrda Rossiya imperatori Nikolay II ning "So'z va vijdon erkinligi haqida"gi Manifesti e'lon qilinganidan so'ng bu boradagi ishlarni jadallashtirib yuborililar.

Rusiya imperiyasi hududida yashovchi turkiy xalqlar ichida o'zlarining milliy matbuotchiligidagi birinchilardan bo'lib, tatar ma'rifatparvarlari tomoni toshini qo'ydilar. Dastlab 1883- yili Boqchasaroyda "Tarjimon" gazetasini (tashkilotchisi va muhariri Ismoilbek G'asprali) chiqqan

bo'lsa, Manifestdan so'ng 1905- yil 29- oktabrdan "Qozon muxbiri" (muharri S.Alkin), 1906- yil 5- yanvardan Peterburgda "Ulfat" (muharri Abdurashid Ibragimov), 15- yanvardan Qozonda "Yulduz" (muharri Ahmad Hodi Maqsudiy), 1- fevraldan "Ozod" (muharri A.Apanayev), 21- fevraldan Orenburgda "Vaqt" (muharri Fotih Karimov) kabi gazetalar dunyo yuzini ko`rdi. Gazetalar nashrlarining birinchi yilida yoq Rossiya imperiyasi tobelligidagi turkiy xalqlar haq-huquqini tanitadigan ko`plab maqolalar nashr etildi. Turkiston taraqqiyparvarlari bilan yuqorida nomlari tilga olingan gazetalar o`rtasida keng ko`lamda hamkorlik yo`lga qo'yilgan edi. Mahmudxo`ja Behbudiy, Abdulqodir Shakuriy va boshqa turkistonlik taraqqiypavarlar maqolalarini "Vaqt" gazetasida tez-tez ko`rinib turishi hamda gazetaning Kabir Bakir, Ahmadjon Bektemirov, Nuriddin Sayfulmulukov, Mahmud Budayli kabi muxbirlarining Turkistonda faoliyat olib borganliklari fikrimizni isbotlaydi.

Turkistondagi milliy davriy matbuot, bosmaxona tashkilotchilar asosan tatarlardan iborat bo`lgan. 1905-1906- yillarda Qozon badiiy maktabida o`qigan Ismoil Obidov 1906- yili taniqli tatar matbaachilar Sh.Muxtor, I.Aliyevlar bilan hamkorlikda Toshkentda "Taraqqiy" gazetasini tashkil qildi. Shu yillarda (1905-1906- yy. - mualliflar) I.I.Geyer muharrirligida mustamlakachi ma`muriyatning manfaatlarini himoya qiluvchi aynan "Taraqqiy" nomli gazeta ham nashr etilgan.

"Taraqqiy" gazetasining birinchi soni 1906- yil 14- iyunda chiqdi. Gazeta o`zining dastlabki sonidan boshlab Rossiyada sodir bo`layotgan yirik voqealarni asosiy mavzu sifatida olib, ularni keng mehnatkash xalq nuqtai nazaridan yoritishga harakat qildi. "Taraqqiy" o`z sahifalarida podsho ma`muriyatining Turkistonda yuritayotgan mustamlakachilik va zo`ravonlik siyosati, ijtimoiy haqsizliklarni ochib tashlashga qaratilgan maqolalarni e`lon qildi. Jumladan, uning 1906- yil 30- iyul sonidagi "Dunyo yig'uvchilari va mehnat qiluvchilari xususida" nomli maqolada mehnatkash aholining xor-zorlikda, yuqori tabaqa vakillarining esa rohat-farog'atda yashayotganliklarini achchiq satrlarda isbotlab beradi.

"Taraqqiy" gazetasi haftasiga ikki marta chop etilib, uning sahifalarida sharqshunos V.Nalivkin, yozuvchi va tarjimonlar Ismoil Aliyev, Shokir Muxtorov, o`zbek ma`rifatparvarlari Mahmudxo`ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Nozimaxonim va boshqalar o`zlarining o'sha davr ijtimoiy-siyosiy voqealariga bag'ishlangan maqolalari hamda ilmiy ijod namunalari bilan qatnashib turdilar.

Ma`rifatparvarlik va ozodlik g`oyalarini o`ziga bayroq qilib olgan "Taraqqiy" gazetasiga sun`iy ravishda mahalliy ulamolar tomonidan bo`xtan va tuhmatlar uyuşdırıldı. Tez orada ma`muriyat tomonidan tu`qib ostiga olinib, matbuot nashri musodara etildi. Muharriri I.Obidov esa qamoqqa olindi. "Taraqqiy" gazetasi atigi 72 kun umr ko`rgan bo`lsa-da, uning 20 ta soni nashr etildi va Turkistonda milliy matbuotning yuzaga kelishida o`ziga xos zamin hozirladi⁹. Oradan ko`p o`tmay shu yilning 6- sentabridan Munavvarqorining "Xurshid", 1907- yil 1-dekabrdan Abdulla Avloniyining "Shuhrat" gazetalari chiqqa boshladi.

"Taraqqiy" gazetasi yopilgandan so`ng oradan ikki yil o`tib, 1908-yil apreldan yana bir tatar ma`rifatparvari Ahmadjon Bektemirov muharrirligida "Osiyo" gazetasi nashr etila boshlandi. Gazetaning beshta soni chiqqandan so`ng podsho ma`murlari tomonidan yopildi. Gazeta sahifalarida Abdurashid Ibragimovning turkchilik va islomchilik masalalariga bag`ishlangan, boshqa jadid ziyyolilarining Turkistonda maorif tizimini isloh etish bo`yicha maqolalari bosildi.

I.Obidov va A.Bektemirovlarning gazetalari hukumatga qarshi ruhda degan ayblov asosida yopilgan bo`lishiga qaramay, turkistonlik tatarlar mahalliy gazetalar bilan hamkorlikni davom ettirdilar. Abdurauf Muzaffar, No`sirayev Yaushev, Abdulla Begi, Mahmud Budayli va boshqalar Turkistondagi boshqa milliy gazetalarda o`z maqolalari bilan faol ishtirok etib bordilar. Tatar tarjimon Gazi Nurmuhammad Usmonov Obidjon Mahmudovning "Sadoi Farg`ona" gazetasi tahririyatida faoliyat ko`rsatdi. Mashhur tatar siyosat arbobi Islom Shagiahmedov "Turkestanskiy kray" gazetasining muharriri sifatida faoliyat ko`rsatdi.

1908- yil mashhur tatar ma`rifatparvari Abdurashid Ibragimov Buxoroga kelib, qo`shbegi bilan bu yerda musulmoncha tipografiya ochish to`g`risida muzokaralar olib borgan. Uning Buxoro amirligi uchun foydali tomonlarini aytib o`tgan. Biroq qo`shbegi amir Abdulla-hadxon bilan bu xususda maslahatlashgach, uning xalqaro miqyosdagagi faoliyatidan cho`chib, bunga rozilik bermaganlar. Hatto A.Ibragimovning tezroq Buxoro amirligidan chiqib ketishi uchun yo`l haqini ham to`laganlar.

1909- yili To`raqo`rg`onda xalq qozisi Is`hoqxon to`ra Junaydul-laxo`ja o`g`li tomonidan yangi tipo-litografiya ochilgan bo`lib, Naman-gan shahrida hukumat va shaxsiy buyurtmalarni nashr etishga kirishgan. Is`hoqxon to`ra tatarlar bilan do`stona munosabatda bo`lib, litografiyanı

⁹ "Taraqqiy" gazetasi nashr etila boshlangan 27- iyun Mustaqil O`zbekistonda 1993- yildan boshlab "Matbuot kuni" sifatida nishonlab kelinmoqda - mualliflar.

ham ularning maslahatiga asosan ochgan edi. Uning yaqin yordamchisi qozonlik tatar Abdulrauf Shagidullinov bo`lib, u litografiya ishini yuritish bilan birga, shu yerda tashkil etilgan yangi usul mакtabida o`qituvchilik qilgan.

A. Shagidullinov keyinchalik o`z yurtiga qaytiib ketib, 1918- yilning may oyida Simbirskda “Ovul” nomli jurnal chiqarishni yo`lga qo`ygan. Jurnal sodda turkiy tilda bo`lib, joylarda jamoalarga birlashib ishlash, sud ishlari, do`konlar ochish, mayda jamiyatlar tuzish kabi masalalar haqida ma`lumotlar berib borish bilan shug`ullanar edi.

Tatar ziyolilari matbaa ishlardan tashqari Turkistonda yangi ruhdagi kitoblar, gazetalar savdosi va kutubxonalar tashkil etish bilan ham shug`ullaniganlar. Masalan, 1909- yil 18- avgustda Is`hoq Sharipov Farg`ona viloyati harbiy gubernatori nomiga iltimosnoma yozib. Qo`qon shahrida “Kashshofiya” nomli kitob do`koni ochishga ruxsat so`raydi. Iltimosnomada yozilishicha, kitob do`konida kitoblardan tashqari kunlik gazetalar sotilishi ham ko`zda tutilgan edi. I.Sharipov o`z iltimosnomasida Qo`qon shahrida 1895- yildan beri yashayotganligi, 5 yil harbiy xizmatni ham o`tab kelganligini aytib o`tgan edi. Farg`ona viloyati harbiy gubernatori Qo`qon uyezdi boshlig`idan I.Sharipov shaxsi haqida ma`lumot so`raydi. Qo`qon uyezdi boshlig`i I.Sharipovning “o`ta panislomist” ekanligini ta`kidlab, kitob do`konai ochishdan maqsadi diniy aqidaparstlik ruhidagi kitoblar savdosini yo`lga qo`yishi mumkinligidan cho`chiyotganligini bildiradi.

1909- yil ma`lumotlariga ko`ra, Chustda 2 ta, Andijonda 18 ta, Namanganda 20 ta, Qo`qonda 32 ta kitob do`konlari bor edi. Bu kitob do`konlarida Bombey, Istanbul, Qozon, Toshkent va Qo`qonda nashr etilgan 100 dan ortiq nomdag`i kitoblar sotilar edi. “Tafsiru favoid”, “Jazohil hikoyat”, “Abu ayn sina”, “Go`ro`g`li”, “Dur ul ajalb”, “Dur ul majolis”, “Majo ul latif”, “Hikoyati latif” kabi kitoblar Qozonda, tatar tilida chop etilgan edi.

1913- yilga kelib, Turkiston o`lkasi aholisi o`rtasida Orenburgda chop etilayotgan “Vaqt” gazetasini o`quvchilar soni keskin ortishi munosabati bilan mahalliy tatarlar mazkur gazetani Turkistonda ko`chirib bosishni tashkil etishga harakat qilib ko`rdilar. Biroq hukumatdan ruxsat olinmagach, bu ishlar to`xtab qoldi.

1917- yil fevral inqilobidan so`ng Turkiston jadidlarining tatar-boshqird ma`rifatparvarlari bilan ma`buot sohasidagi hamkorliklari yangi bosqichga ko`tarildi. Nafaqat o`z millati, balki barcha turkmusulmon dunyosi qayg`usi bilan yongan Ahmad Zaki Validiy, Po`lat

Soliyev, Kabir Bakir, Muxtor Bakir va boshqa tatar-boshqird xalqining farzandlari Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etish bilan birgalikda o'zlarining quyidagi gazetalarini ham nashr ettirdilar:

1. "Ulug' Turkiston" gazetası - Toshkentda Kabir Bakirov va Sodiq Abdusattorovlar muharrirligida 1917- yil 25- apreldan 1918- yil 30- noyabrga qadar tatar tilida chop etilgan. Turkiston tatarlarining markaziy sho'rosi va Toshkent tatarlarining "Ittifoq" jamiyatni nashri hisoblangan.
2. "El bayrog'i" gazetası - Qo'qonda Po'lat Soliyev va Ashurali Zohiriylar muharrirligida 1917- yil 8- sentabrdan 1918- yil boshlari ga qadar Turkiston muxtoriyati hukumatining nashri sifatida o'zbek tilida chop etilgan.
3. "Farg'ona sahifasi" gazetası – 1917- yil 15- martdan Namanganda taniqli tatar matbuotchisi Xusayn Makayev tomonidan o'zbek tilida nashr etilgan. Gazetaning 19 ta soni chop etilgan xolos.
4. "Kengash" gazetası - Toshkentda Ahmad Zaki Validiy To'g'on va Munavvar Qori muharrirligida 1917- yil 25- iyundan 1917- yil oktabrga qadar Turkiston musulmon markaziy sho'rosining nashri sifatida chop etilgan.
5. "Sho'roi Islom" gazetası - Toshkentda A.Battol muharrirligida 1917- yil 16- maydan 1917- yil iyunga qadar "Sho'roi Islomiya" tashkilotining nashri sifatida o'zbek tilida chop etilgan.
6. "Chayon" jurnali – Toshkentda Xalif Tulakov va Ibrohim Tohiriylar muharrirligida 1917- yil iyundan 1918- yil avgustga qadar Turkiston milliy ishchilar sektsiyasining nashri sifatida tatar tilida chop etilgan.
7. "Cho'l chayon" jurnali – Toshkentda Ibrohim Tohiriy muharrirligida 1918-1919- yillarda tatar tilida chop etilgan.
8. "Xalq dorultumuni" - Toshkentda Muxtor Bakir (Bakirov) muharrirligida 1918- yil 31- maydan boshlab Turkiston xalq univesitetining nashri sifatida chop etila boshlangan.

Mazkur gazeta va jurnallar ichida mashhur tatar ma'rifatparvari Kabir Bakir (Bakirov) muharrirligida nashr etilgan "Ulug' Turkiston" gazetasini alohidagi o'rinn tutadi.

Kabir Bakir (1880-1938) o'zining jurnalistik faoliyatini 1905- yil 2- sentabrdan Peterburgda tatar tilida Ataullo Boyazidov muharrirligida chiqsa boshlagan "Nur" gazetasida boshlagan edi. Keyinchalik u "Vaqt" va boshqa gazetalarning muxbiri bo'lib ishlagan paytda ko'p marotaba

Turkistonda bo`lib, bu yerdagi hamkasblari bilan do`stlik rishtalarini bog`ladi. 1917- yil fevral inqilobidan so`ng Toshkentga kelib, “Ulug’ Turkiston” gazetasining tashkilotchisi va muharriri bo`ldi.

“Ulug’ Turkiston” gazetasining birinchi soni “Turkestanskiye vedomosti” bosmaxonasida 1917- yil 25- apreldan chiqa boshladi. Obuna uchun “g’azitaning bahosi yilliq 7 so`m, olti oyliq 4 so`m, uch oyliq 2 so`m 25 tiyin” narx belgilandi. Gazeta 4 sahifadan iborat bo`lib, uning birinchi sahifasi yuqori qismida e`lon (reklama – mualliflar) undan so`ng kunning eng muhim voqeasi bayon etilib, keyingi sahifalarda “Telegraf xabarları”, “Siyosiy ahvol”, “Adabiyot”, “Dohiliya xabarları”, “Turkiston xabarları”, “Toshkand xabarları” va yana oxirida e`lonlar o`rin olgan.

“Ulug’ Turkiston” gazetasini chiqarish yo`lidagi iqtisodiy masalar toshkentlik Rahim Tuminov, Latif Yavushev, Xalil Shirinskiy, Safarali Sutushov va Muboraksho Eshimboyevlar tomonidan hal etilgan. Toshkentda mashhur bo`lgan Yaushevlar oilasi ham gazetaning tashkilotchilaridan biri edi.

Dastlabki jarayonda “Ulug’ Turkiston” gazetası o`z bosmaxonasiga ega bo`Imaganligi sababli “Turkestanskiye vedomosti” bosmaxonasida chop etilgan va bu hol uning doimiy chiqib turishiga salbiy ta`sir ko`rsatgan. 1917- yil dekabrdan boshlab, gazeta o`z matbaasiga ega bo`lgandan so`ng uning haftada 3-4 marta chiqib turishiga imkoniyat tug`ildi.

Iqtisodiy muammolarning kuchayib borishi gazeta sotuviga salbiy ta`sir ko`rsatgan. Bu omil gezetani kengroq hududda sotishni taqazo etardi. Shuning uchun ham 1918- yil boshlaridan “Ulug’ Turkiston” gazetasini Toshkent temir yo`lining yirik stansiyalarida ham sotishni yo`lga qo`yildi.

“Ulug’ Turkiston” gazetasini ko`rib chiqish jarayonida uning o`z oldiga qo`yan maqsadi Rossiya hududida yashovchi “turk-musulmon xalqi”ni yagona millat yoki davlat (muxtoriyat)ga birlashtirish, ularni (o`zbek, qozoq, tatar-boshqird – mualliflar) alohida-alohida muxtoriyat tuzishlariga yo`l qo`ymaslik g`oyalari bilan uyg`unlashganligini ko`rish mumkin. Xususan, gazetaning 1917- yil sonlaridan birida: “Hurriyat e`lon qilinuv ila (1917- yil fevral inqilobi nazarda tutilmoxda – mualliflar) Toshkanddagi no`g`oylar masjidida totor, sartiya va qozoqlardin iborat uch-do`rt ming kishilik bir miting` yosoldi. Hurriyat va yerklik hurmatina g`oyat ta`sirli nutqlar so`ylandi. Oxirida bir ovozdin “Bitsun totorliq, sartiyaliq, qozoqliq! Yashasun musulmonliq va

turkliq!” deya fotiha qilindi. Mundin so`ng hech bir vaqt sartiya, qozoq, totor deya turk bolalarini turli isminda yurutub ayirma yosomasqa qaror berildi...” deya xabar beradi.

“Ulug’ Turkiston” gazetasining asosiy mavzularidan biri Turkiston o`lkasida yashovchi tatarlarning ijtimoiy-siyosiy va madaniy faoliyatlarini keng yoritib berishdan iborat edi. Gazetaning deyarli har bir sonida Toshkentdagি Markaziy tatar sho`rosi, “Ittifoq” jamiyatи, “Muslimalar nashri maorif jamiyatи”, Qo`qon, Kattaqo`rg`on, Samarqand, Buxoro, Andijon va Namangandagi tatar jamiyatlarining o`lka ijtimoiy-siyosiy hayotidagi ishtiroki haqidagi xabarlar o`z ifodasini topar edi.

1917- yil 3- aprelda tashkil etilgan “Ittifoq” jamiyatи Toshkent shahrida yashovchi tatarlarning manfaatlari va huquqlarini himoya qilish bilan birqalikda o`lka siyosiy hayotida ham faol harakat olib borgan.

1917- yil fevral inqilobidan so`ng Yangi Buxoro (Kogon)da yashovchi tatarlar ham o`z jamiyatlarini tuzadilar va maktab qurish uchun pul jamg`aradilar. Buxoro amiri Said Olimxonidan maktab uchun yer so`raydilar. Talabni qondirgan amir ularga yaxshi bir bino hadya etish bilan birqalikda, shu binoni ta`mirlash uchun 20 ming rubl pul ham beradi. Bu voqeа Buxoroda yashovchi tatarlarning cheksiz quvonchiga sabab bo`ladi. Mana shu vaqtdan e`tiboran eski Buxoroda ham tatar jamiyatining sho`basini ochish uchun harakatlar boshlab yuboriladi.

1917- yil may oyi boshlarida Qozondan A.Battol va Ismoil abzi Turkistonda matbaa ishlariga yordam berish uchun keldilar. “Ulug’ Turkiston” gazetasi tahririysi “...Qozon musulmonlarining shundayin muhim zamonda Turkistondagi musulmon qardoshlarin eslarina olib ko`rsatgan bu zo`r yordamlari” uchun ko`p minnatdorchilik bildiradi. A.Battol va Ismoil abzi “Sho`roi Islomiya” tashkilotiga a`zo qilib olinadilar. Ularning kelishi bilan “Turon” gazetasi chiqarilishi to`xtatilib, yangi “Sho`roi Islomiya” gazetasini chiqarishga qaror qilingan.

“Umid” (Ulug’ Turkiston) matbaa shirkati 1917- yilda ko`rgan foydasidan 20 000 so`mni o`qituvchilar tayyorlash maktabiga topshirgan. Shirkat Nizomiga ko`ra, yillik ko`rilgan sof foydaning 20 foizi idora a`zolariga berilishi kerak edi. Biroq idora a`zolari Rahim Tuminov, Muhammadjon O`razayev, Alisafar Sutushov, Jaloliddin Tojiddinov, Muxtor Bakir va Kabir Bakirlar o`z ulushlarini olmay Markaziy tatar byurosi va “Ittifoq” jamiyatи tomonidan ta`sis etilgan o`qituvchilar tayyorlash maktabiga berishni lozim topganlar.

“Ulug’ Turkiston” gazetasining 1917- yil 24- dekabrdagi 46-sonidan boshlab, sarlavhada “Yashasun Turkiston Muxtoriyati” shiori paydo bo’ldi. Turkiston Muxtoriyati tor-mor keltirilgandan keyin (1918- yil 18-19- fevral) 21- martdan e’tiboran bu shior boshqa tarzda o’zgartirildi. Albatta, bu bolsheviklarning ta’siri yoki tazyiqi estida o’zgartirilgan bo’lishi ehtimoldan xoli emas.

“Ulug’ Turkiston” gazetasi tahririyati xodimlari 1918- yil 23-fevraldan maxsus jurnal chiqarishni rejalashtirganlar. Bu jurnaldan keladigan foyda ochlikdan azob chekayotganlarga yordam ko`rsatishga sarflanishi ko`zda tutilgan. Jurnalni chiqarishga toshkentlik boylar qog’oz, muhartir va harf tyeruvchilar esa yozuv bilan yordam ko`rsatishlari ko`zda tutilgan. Mart oyida birinchi soni chiqariladigan bu jurnalning bahosi 1 rubl qilib belgilangan.

Yuqoridagi ma’lumotlar Turkiston tatarlarining eng mas’uliyatli paytlarda ham o’lka xalqlari bilan yelkama-yelka turib, sabot bilan kurash olib borganliklarini tasdiqlaydi. Bolsheviklar rejimi o’rnatalib, milliy taraqqiyat parvarlarga nisbatan tazyiqlarning kuchayishi, moliyaviy holatning yomonligiga qaramasdan, “Ulug’ Turkiston” gazetasi nashr etilishda davom etgan.

1918- yil 28- aprelda Toshkentdagи barcha nashriyotlar sovet hukumat qo’liga o’tganligi e’lon qilindi. Shu jumladan, “Ulug’ Turkiston” gazetasining “Umid” matbaasi ham barcha asbob-uskunalar bilan hukumat tomonidan tortib olindi. Mazkur matbaa markaziy tatar byurosi tashabbusi bilan tashkil qilinib, uning uchun alohida shirkat ham tuzilgan edi. Bu shirkatga butun Turkiston o’lkasidan yuzga yaqin a’zo bo’lib, ularning aksariyatini muallimlar, muharrirlar, harf teruvchi va boshqalar tashkil etardi.

1918- yil oxirlariga kelib, og’ir iqtisodiy holat va tazyiqlar ostida gazetaning nashr etilishi o’z poyoniga yetdi. Markazdan “Milliy ishlar seksiyasi”ga rasmiy va favqulodda komissar qilib yuborilgan Orif Klevleyev seksiya majlisida “Ulug’ Turkiston” gazetasini butunlay to’xtatib, uning o’rniga “Yangi Ulug’ Turkiston” nomli bolsheviklar siyosatiga mos boshqa bir gazeta chiqarishni taklif qildi. Bu fikr dastlab qo’llab-quvvatlanmagan bo’lsa-da, seksiyaning so’nggi majlisida “Ishtirokiyun”¹⁰ nomli gazeta chiqarishga qaror qilindi. Shuningdek, mahalliy aholi ustidan nazorat olib borish va muharrirlar faoliyatini

¹⁰ “Ishtirokiyun” gazetasi sovet hokimiyati yillarda tegishli tarzda “Qizil bayroq”, “Qizil O’zbekiston”, “Sovet O’zbekistoni” nomlari bilan yuritilgan. Bugungi kunda u “O’zbekiston ovozi” nomi bilan nashr etilmoqda - mualliflar

muayyan yo'lga solish uchun xususiy matbaa dastgohlarini yig'ish, matbuot bilan shug'ullanadigan barcha musulmon jamoasini bir yerga jamlab, musulmon organlarini tuzishga qaror qilinadi. Bu tadbirlarni amalga oshirish vazifasi matbuot xodimi Abdulhamid Bekqulovga topshiriladi.

Shunday bo`lishiga qaramasdan, qariyb ikki yil davomida nashr etilgan «Ulug' Turkiston» gazetasi Turkiston o`lkasi matbuotchiligi taraqqiyotida muhim va sezilarli iz qoldirdi.

“Chayon” jurnali 1917- yil iyun oyida tatar va o`zbek milliy ziylolarining fikr tarqatuvchisi bo`lib dunyoga keldi. Jurnal ikki haftada bir marta Toshkentdagi “G`ulomiya” bosmaxonasida Xalif Tulakov va Ibrohim Tohiriyalar muharrirligida nashr etilgan. Jurnalning 1917- yili 12 ta, 1918- yilda 19 ta soni chiqib, Turkiston Xalq komissarligi milliy ishlar seksiyasi tomonidan to`xtatildi.

1917- yil dekabrdan Namanganda tatarlar jamiyatni tomonidan “Farg`ona nidosi” nomli yangi gazeta chiqqa boshladi. Gazetaning muharriri “Turkistonda birinchi totor matbaasi ochuv va yangi ishlar nashr qila boshlov ila tanilg`on” Husayn Makayev edi. Gazeta kichik hajmda bo`lsa-da, tez-tez chiqib turishi va eng so`nggi ma`lumotlarni mukammal yetkazib berishi bilan boshqa gazetalardan farqlanar edi.

1917- yil sentabr oyidan boshlab, Perovsk shahrida Turkistonda birinchi bor bolalar uchun Hamza Gazizov tomonidan “Bolalar tovushi” nomli gazeta nashr etila boshlangan.

Ahmad Zaki Validiy To`g`on o`lka milliy matbuotida ham faol ishtirok etib borgan. Uning Turkiston milliy matbuotida: “Saylovlarda xotin-qizlarning ishtiroki” (“Kengash”, 1917- yil 25- iyun), “Turkistonda tashkilot masalasi” (“Kengash”, 1917- yil 19- iyul) “Musulmonlar ogoh bo`linglar” (“Kengash”, 1917- yil 28- iyul), “Navbatdagi masalalar oldinda” (“Kengash”, 1917- yil 11- avgust), “Milliy ruhoni boylarimiz” (“Yurt”, 1917- yil 1,2-sonlar) kabi maqolalari chop etilgan edi.

Haqli ravishda ta`kidlash joizki, tatar matbuoti va Turkistondagi yashovchi tatar ma`rifatparvarlari o`lkada milliy matbuot va matbaa ishlarini tashkil etishda katta xizmat qildilar.

2. Milliy teatr san`atining vujudga kelishida Rossiya musulmon teatr truppalari va aktyorlarining o`rni. Turkistonda jadidchilik harakatining mahsuli sifatida XX asr boshlarida milliy teatr san`ati vujudga keldi. Ushbu san`at turining shakllanishida rus, ozarbayjon sayyor truppalari bilan birgalikda tatar teatr truppalari ham katta ahamiyat kasb etgan. Jadid dramaturgiyasining vujudga kelishi va

shakllanishi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan Sh.Rizayevning ta'kidla-shicha, o'zbek milliy teatr san'atining tug'ilishiga tatar sayyor teatr jamoalari muhim turki bergan edi.

Tatarlar Yevropa teatr san'ati bilan Turkiston aholisiga qaraganda ancha oldinroq tanishgan bo'lib, o'lkada yashovchi tatarlar tomonidan badiiy kechalar tashkil etish odad tusiga kirgan edi. Jumladan, Toshkentda savdo ishlari bilan shug'ullanuvchi Sharif Yaushev doimiy ravishda Moskvadan badiiy orkestrlarni olib kelib Toshkentdag'i o'z bog'ida kon-tsvert dasturlarini tashkil etgan. Ushbu ziyofatlarga K.P. fon Kaufman boshliq general-gubernatorlik vakillarini ham taklif etib, o'z faoliyati uchun lozim bo'lgan ko'plab siyosiy huquqlarni qo'lga kiritgan edi.

XIX asr oxiri - XX asr boshlari Turkiston tarixida muhim o'zgarishlarga boy bo'lgan davr hisoblanadi. Jadidchilik g'oyalari shiddat bilan o'lkaza kirib keldi va Turkistonning keyingi tarqqiyoti darajasini belgilab berdi. Jadidchilik g'oyalari bilan birga o'lsa xalqi uchun "yangilik" hisoblangan yevropacha teatr san'ati ham kirib keldi va mahalliy millatni unga bo'lgan qiziqlishi ortib bordi. Teatr san'atini Turkiston xalqi madaniy hayotiga qisqa davr ichida kirib kelishi va taraqqiy etishida o'lsa taraqqiy parvarlarining tatar ma'rifatparvarlari bilan o'zaro hamkorliklari asosiy rol o'ynagan. Turkiy xalqlar orasida tatar professional teatrining paydo bo'lishi va uning ijodiy safarlarini qachondan boshlanganligi to'g'risida quyidagi fikrlar mavjud. X.L.Kumisnikovning fikricha, tatar professional teatrining paydo bo'lishi va uning to'la shakllangan davri 1905- yilga to'g'ri kelgan. 1906- yil 22- dekabrdan esa, bu teatr truppasi o'z gastrollarini boshlagan.

M.Raxmonov ham 1905- yilgi rus revolyutsiyasi ta'sirida haqiqiy tatar professional teatri 1906- yilda tashkil topgan deya qayd etadi. 1908- yilda esa A.Qoriyev qo'l ostida "Sayyor", Izzatullina boshchiligidagi "Nur" teatr truppalari tashkil topgan. Sh.Rizayevning qayd etishicha, S.I. Voljskaya boshliq "Nur" truppasi 1911- yil tashkil topib, 1912- yildan Turkistonning turli shaharlarida bo'lganini ta'kidlaydi.

Toshkentda istiqomat qiluvchi general S.G. Yenikeyev xonadonida ham doimiy ravishda san'at kechalari o'tkazib kelingan. 1904- yilning 4-aprelida shu xonadonda Navmiq Kamolning "Ishq balesi" spektakli Turkistonda yashovchi tatar havaskorlari tomonidan namoyish qilingan. Mazkur spektakl namoyishi boshlanishidan oldin polkovnik Abubakr Divayev so'zga chiqib, Yevropa teatri haqida ma'ruza qilgan. Xonadon egasi S.G.Yenikeyev boshqirdistonlik tatarlardan edi. Uning turmush

o`rtog`i Saodatxonim Yenikeyeva esa Qo`qon xoni Xudoyorxonning Sankt-Peterburgdagi elchisi Mirza Hakim parvonachining tatar xotinidan dunyoga kelgan edi. Saodatxonim Toshkent ayollar gimnaziyasida tahsil olib, yevropacha tarbiya olgan, royal chalishni biladigan ma`rifatparvar ayollardan bo`lgan. S.G.Yenikeyev Rossiya imperiyasining Turkistonda-gi armiyasi safida ofitser sifatida xizmat qilgan. U Asakada mas`ul lavozimda ishlayotgan paytda 1898-yilgi Dukchi Eshon qo`zg`oloniga xayri-xoh bo`lganlikda ayblanib iste`foga chiqarilgan edi. Iste`fodan so`ng Toshkentda yashab, Turkistonda istiqomat qiluvchi tatarlarning ijtimoi-siyosiy huquqlarini himoya qilgan. Shu maqsadda bir necha bor Sankt-Peterburgga hukumat rasmiylari bilan muzokara uchun borgan.

1909- yili S.G.Yenikeyev va Saodatxonim xonardonida tatar havaskorlari tomonidan “tatar dramaturgiyasining otasi” Aliasqar Kamolning “Birinchi teatr” nomli komediysi qo`ylgan. Mazkur komediya sahna ko`rinishlarida o`zbek ziyyolilaridan A.Avloniy ham ishtirot etgan edi.

S.G.Yenikeyev va Saodatxonim sa`y-harakatlari tufayli Toshkentda badiiy tatar havaskorlari jamoasi yuzaga kelgan. Ular tomonidan 1909- yili Toshkentda “Musibati Faxriddin” va “Qizlar qanday kulalar” nomli spektakllar namoyish etilgan. 1910- yildan boshlab esa Toshkentda doimiy tatar teatr jamoasi ish boshlagan. Mazkur truppada ozarbayjon, tatar va rus dramaturgiyasining sara namunalari sahnalashtirib borilgan.

1908- yilda “Sayyor” truppasi Kavkazda ijodiy safarda bo`lib, Ozarbayjon teatr truppasi bilan uchrashgan. Bu truppaga Husain Arablinskiy boshchilik qilgan. U tatar teatrinda ayollarning faoliyat ko`rsatishiga yuqori baho berib, “buyuk qahramonlik” deya baholagan.

O`sha paytda Ozarbayjon teatr truppasida ayollar rolini erkaklar ijro etishgan. H.Arablinskiy Ozarbayjon va tatar teatrлari o`rtasidagi hamkorlikni rivojlanishida o`zining hissasini qo`shdi. “Nodir” spektakli-da Nodirning xotini rolini 16 yoshli S.Izzatullina-Voljskaya o`ynagan bo`lib, bu roli uning hayotida o`chmas iz qoldirgan. O`sha kezlar “Sayyor” truppasida 2 nafar ayol bo`lib, S. Izzatullina-Voljskaya va Z.Bog-danova lar bor edi. 1910- yilning o`rtalariga kelib, “Sayyor” truppasida aktrisa ayollarning soni birmuncha ko`payib, Gulsum Bolgarskaya, Naima Tapirova, Nafiga Arapova, Fotima Ilskaya va Sara Baykina kabi aktrisalar safga qo`shilganlar. Ularning o`ynagan rolliari tatar teatrining shuhratini yanada oshishiga sabab bo`lgan. S.Izzatullina-Voljskaya “Xo`jayin va g`ulom” spektaklida Bibijamol rolini o`ynagan. U o`zini zo`rlab boyga uzatmoqchi bo`lgan zulmkor otaga qarshi chiqa olgan qiz

rolini ijro qilib, undagi jur`atlilik, mardlik va o`z baxti uchun kurashish kabi qirralarini mahorat bilan ochib bera olgan.

Qo`qonda yashab, faoliyat ko`rsatgan tatar ziyolisi A.Shagidulinov 1908- yili to`raqo`rg'onlik jadid munavvari Is'hoqxon Ibrat taklifiga ko`ra, Namanganga kelib, "Matbaai Is'hoqiya"ni tashkillashda ishtirok etgan. Uning mehnat va ijodiy faoliyati serqirra bo`lib, 1911-yili "Falokatzoda" nomli qissa va Turkiston tarixida birinchi bor o`zbek tilida "Mahramlar" nomli 3 pardali dramasini yozib, 1912- yili "Matbaai Is'hoqiya"da nashr ettirdi. Mahmudxo`ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi ham aynan shu yilda yozilgan bo`lsa ham 1913- yili nashr etilgan edi. Birinchi o`zbek milliy dramasini masalasida bu ikki drama va uning mualiflari hozirgi kunga qadar olimlar o`rtasida bir to`xtamga kelinmagan va munozaralarga sabab bo`lib kelmoqda.

Tatariston teatr truppaları Turkistonga 1911- yildan boshlab tashrif buyurganlar. 1911- yili Ilyosbek Kudashev-Ashkazarskiy rahbarligidagi professional tatar "Sayyor" teatr truppasining Toshkent, Samarqand, Qo`qon, Buxoroda bo`lishi ham o`lkada mahalliy teatrchilik ishlari rivojiga katta ta`sir ko`rsatgan. "Sayyor" teatr truppasi 1908- yilda Qozonda I.Ashkazarskiy, S.I.Voljskaya va A.Qoriyev tashabbuslari bilan tashkil topgan edi. "Sayyor" truppasi ta`sirida 1912- yilda Ufa tatarlari tomonidan "Nur" nomli teatr truppasi ham faoliyat ko`rsata boshlagan.

1910-1911 yillarda Qozon va Ufa kabi Rossiya musulmonlarining markaz shaharlarida ko`plab teatr truppaları mavjud bo`lgan. Shunday truppaldan biri I.Kudashev-Ashkazarskiyning teatr truppasi bo`lgan. Faxriya Ibatullova Qudasheva I.Kudashev-Ashkazarskiyning turmush o`rtog'i bo`lgan. 1911- yil Faxriya uning truppasiga aktrisa bo`lib ishga kiradi. Shu yili mazkur truppa Rossiya shaharlari hamda Turkiston, Qoshg'ar bo`ylab, ijodiy safarda bo`lgan. Safardan asosiy maqsad tatar teatr san`atini mahalliy musulmonlar o`rtasida yoyish bo`lgan. M.Raxmonovning ta`kidlashicha, Turkistonga birinchi bo`lib mazkur teatr truppasi tashrif buyurib, barcha shaharlarda "Baxtsiz kuyov", "Uch xotin bilan turmush", "Xo`ja va g`ulom", "Uyat yoki ko`z yoshi" kabi asarlarni sahnaga qo`yan.

"Sayyor" truppasi 1911- yili Toshkent, Buxoro va Farg`ona vodiysi shaharlarida Aliasqar Kamolning "Baxtsiz yigit", "O`ynash", "Bizing shahar sirlari", "Dajjal", Is`hoq Bogdanovning "Kambag'allik ayb emas" nomli sahna asarlarini namoyish etgan. Oradan bir yil o'tib, taniqli tatar aktrisasi Sohibjamol Izzatullina-Voljskaya Ufadan "Nur"

nomli teatr guruhi bilan kelib, Buxoro, Samarqand, Toshkent, Marv, Chorjo'y shaharlarida spektakllar namoyish etgan.

1913- yili I.Kudashev-Ashkazarskiy Toshkentda yana bir doimiy faoliyat ko'rsatuvchi tatar truppasi tuzishga rahbarlik qildi. Truppa ishini rivojlantirish uchun 1914- yildan taniqli tatar rejissyorlari Zaki Boyazidskiy va Mustafo Mansurov taklif etildi. Ular tatar truppasida faoliyat ko'rsatish bilan birga asosan o'zbek yoshlaridan tuzilgan "Turon" teatr truppasi ishlarini muvofiqlashtirishga ham munosib hissa qo'shganlar. "Turon" teatr truppasi 1914- yil dekabrda tatar rejissyori Muhammadyorov rahbarligida "Istanbul" va Zaki Boyazidskiy rejissyorligida "To'y" pyesalarini sahnalashtirdilar.

I.Kudashev-Ashkazarskiy rahbarligidagi "Sayyor" truppasining 1913- yildagi Turkistonga ikkinchi tashrifi va Toshkent, Namangan, Kogon, Buxoro shaharlarida spektakllar namoyish etilishi o'lkada teatr san'atining paydo bo'lishi hamda rivojlanishiga ham ma'naviy, ayni chog'da bevosita amaliv yordam bergen.

1913- yili "Sayyor" truppasining yana bir vakili Abdulla Qoriyev o'z jamoasi bilan Simbirsk, Samara, Saratov, Saritsin, Astraxan, Boku shaharlariga qilgan safaridan so'ng, Turkistonning Chorjo'y, Marv, Buxoro, Samarqand, Andijon, Namangan, Qo'qon, Toshkent, Turkiston, Oqmachit, Qozoli kabi shaharlari bo'ylab ham ijodiy safarda bo'lib spektakllar namoyish etgan. Bu hol Turkiston rayon muhofaza bo'limi (TRMB) boshlig'i Sizixni jiddiy tashvishlantirgan. Sizix A.Qoriyev to'g'risida Qozon guberniya jandarmeriya boshqarmasi boshlig'i, podpolkovnik Dobrodeyevdan ma'lumot so'ragan. Undan olingen maxfiy ma'lumotga qaraganda, tatar aktyori A.Qoriyev shu yil qish yaqinlashishi munosabati bilan Nijniy Novgoroddan Qozonga qaytib kelgan. A.Qoriyev keng dunyoqarashli va ma'rifatli kishi bo'lib, Qozonda bo'lgan paytlarida doimiy ravishda madrasa talabalari bilan uchrashib turgan. U o'zi safarda bo'lgan shaharlarda tatarlar bilan uchrashib, ular tomonidan olib borilayotgan ma'rifiy ishlar to'g'risida qozonlik ma'rifatparvarlarga so'zlab bergen. Qozon guberniya jandarmeriya boshqarmasi boshlig'i bu ma'lumotlarni yetkazish bilan birga TRMB boshlig'i Sizixga A.Qoriyev faoliyatini jiddiy nazorat ostiga olinishi foydadan holi bo'lmasligini maslahat bergen edi. O'z navbatida podpolkovnik Sizix Toshkent, Turkiston, Perovsk, Aralsk, Krasnovodsk, Ashxobod, Marv, Murg'ob, Chorjo'y, Samarqand, Chernyayev, Sirdaryo va Marg'ilon politsiya boshqarmalariga yo'llagan xatida A.Qoriyev faoliyatini qat'iy nazoratga olishni buyurgan edi.

Ta'qib va tazyiqlarga qaramay A.Qoriyev "Sayyor" truppasi bilan 1913- yil 8- iyunda Kogonda, 13- iyunda Samarqandda spektakllar namoyishini tashkil etgan.

1913- yilning 13- sentabrida Kolizey teatrida Qozon shahridan kelgan F. Ilskaya ishtirokida tataрcha teatr kechasi bo'lib, unda "Tengsizlar", Fotix Amirkhonning "Bir soatlik xotun" pyesalari o'ynal-gan. Teatr juda qiziqarli bo'lib, xalq katta olqishlar bilan qarshi olgan. Bundan tushgan foyda xayriya ishlariga sarf qilingan. Birinchi jahon urushi (1914-1918) kechayotgan og'ir damlarda ham butun musulmon dunyosini diniy bayrami hisoblangan mavludin-nabiy kunini Turkiston aholisiga tufha sifatida tatar teatr truppasi hamda tatar ayollari tomonidan 1915- yil 18- yanvarda Xiva tomoshaxonasida "Bolalar ertasi" kechasi uyushtirilgan. Sahnadagi bolalarni o'zlarini tutishlaridan Toshkentdagи tatar maktablarida yaxshi tarbiya berilganligidan bilib olish mumkin edi. Sahnada "mavludun nabiy" tamoshasi ko'rsatilib, eng kichik ishtirokchi 5 yoshli bola edi. Maqola so'ngida mavlud bayramini tashkil etishda faol ishtirok etgan afandi va xonimlarga tashakkur bildirilgan. Kechaga turkistonlik muallimlardan bir nechasi tashrif buyurgan.

Asta sekin mahalliy aholining ham teatr san'atiga bo'lган qiziqishi ortib berigan. 1914- yil 15- yanvarda Samarqandning Yangi shahar qismida o'zbek va tatar yosh taroqqiy parvarlari birqalikda o'zbekcha "Padarkush" va tataрcha "Oldaduk va oldanduk" nomli sahna asarlarini ijro etganlar. Spektakllarni tomosha qilishga kelganlar shu qadar ko'p bo'lган-ki, biletlar avvaldan qimmat narxlarda sotilgan. 320 kishilik teatr zaliga qo'shimcha yana ellikta joy tayyorlangan.

1914- yil 2- mart kuni Kattaqo'rg'onda mahalliy tatar va o'zbek havaskorlari tomonidan "Padarkush" dramasi qo'yilgan. Undan so'ng tatar truppasi o'z tillarida "Erim qaytdi" komediyasini namoyish etganlar.

Buxoro amirligida teatr ishlari tashkil etish ham asosan tatarlar tomonidan amalga oshirilgan. Bular asosan Qozon va Samarqanddan kelgan tatar truppalari bo'lib, o'z spektakilariga mahalliy tatar, o'zbek va tojik havaskorlarini ham ijrochi yoki tashkilotchi sifatida jalb etishga uringanlar. Shu tariqa Buxoroda yashovchi tatarlar tomonidan ham yangi bir truppa tashkil etilib, tatar, ozarbayjon va turk pyesalarini sahnalashtira boshlaganlar. Bu truppagacha tatar ziyolisi Husayn Najib boshchilik qilgan. H.Najib Behbudiya murojaat etib, "Padarkush"ni sahnalashtirishga ijozat so'rangan. Tomoshadan tushadigan foydani faqir talabalarga tarqatilishi xususida ma'lumot bergen. 1914- yil 5- mart kuni

Buxoroning “Torikiston” binosida “Padarkush” dramasi namoyish etilgan. Biroq tatarlar “Padarkush”ni mahorat bilan ijro eta olmagan bo`lsalar ham, shu kuni Aliasqar Kamolning “Birinchi teatr” komediyasini namoyish etib, tomoshabinlarni xushnud etganlar.

1915- yil yanvar oyida buxorolik tatarlar ikkinchi bor “Padarkush”ni sahnaga qo`yish uchun Behbudiydan ijozat so`rab, o`z vakillari To`qdor Jaloliddin o`g`lini Samarqandga yuborganlar. Buxoro tatarlarning bu sahna ko`rinishlarida Abdurauf Fitrat ham faol ishtirot etgan edi.

Turkistonga tatar teatr truppalari bilan birligida qo`sinqchilar ham gastrolga kelganlar. 1913- yili tatar xonandası Muhammad Komil Mut`ey Tuxfatullin Turkistonning ko`plab shaharlarida bo`lib, konsert dasturlari tashkil etgan. Ayniqsa uning Samarqanddagi ruscha, arabcha va turkiycha qo`sinqlari katta olqishlarga sazovor bo`lgan. U shunday ijodiy safarini 1914- yilning yozida Farg`ona vodiysi bo`ylab amalga oshirgan edi. Mana shunday gastrol safarlari Turkistonda yashovchi tatarlarni ham musiqa yo`nalishida faoliyat yuritishga undagan bo`lishi ehtimoldan xoli emas. 1914- yil 5- iyundan Toshkent shahrida Mustafо Mansurov boshchiligidagi tatar musiqa to`garagi ish boshlagan. Biroq bu to`garak rivojlanishi uchun ijtimoiy zamin yetarli bo`Imaganligi sababli qisqa vaqt ichida o`z faoliyatini to`xtatishga majbur bo`lgan.

Mahalliy tatarlar tomonidan uyuştiralayotgan ko`plab ko`ngil-ochar tadbirlar va spektakllar asosan xayriya maqsadlarini ko`zlagan. “Shahrisabzlik” laqabli maxfiy xizmatchi tomonidan berilgan ma`lumotda keltirilishicha, 1914- yil 6- avgustda tatar havaskor teatr to`garagi spektakllar namoyishidan tushgan mablag`ni harbiy xizmatga chaqirilgan askarlarning oila a`zolariga tortiq qilganlar.

1917- yil fevral inqilobidan so`ng Turkistonda istiqomat qilayotgan tatarlar tomonidan badiiy kechalar, spektakllar namoyish etish keng ko`lam kasb etgan.

1917- yil 2- aprel kuni Toshkentdagagi Kolizey teatrida birinchi bor “To`qay kechasi” tashkil etilgan. Kecha to`rt qismidan iborat bo`lib, 1,2,3-qismlarda F.Sutushova, M.Yaqubova va Sh.Boybuрова To`qayning xotin-qizlar masalasidagi fikrlari, N.Sayfulmalikov esa To`qayning tarjimai holi, F.Sultonbek bo`lsa Misirinskiy va To`qayning tatar millatiga ko`rsatgan xizmatlari haqida gapirganlar. Kechada To`qayning she`rlaridan namunalar o`qilib, uning xalqni ilm-ma`rifatga undashga bag`ishlangan faoliyatini haqida sahna ko`rinishlari namoyish etilgan.

1917- yil 19- mayda Buxoroda tatar va Kavkaz havaskor aktyorlari tomonidan madaniy kecha uyuştirilgan. Unda “Adashuv” nomli komediya va Shokir Anbulatning “Chingizxon qabrida” nomli uch pardali tarixiy pyesasi qo'yilgan. Tatar milliy qo'shiqlari kuylanib, Kavkaz raqslari namoyish etilgan. Kechada Turkiston komiteti a'zolaridan S.Maqsdiiham ishtirok etgan va tomosha yakunida so'z olib, xalqni birlik hamda ittifoqqa da'vat etgan.

1917- yil 5- mayda Yangi Buxoro (Kogon) shahrida Fitrat va Kamoliddin No`g'ay sa`y-harakatlari bilan “Ko'hna turkba” nomli uch pardali drama qo'yilgan. Mazkur sahna asari aslida Eski Buxoroda qo'yilishi rejalshtirilgan edi. Lekin bu yerda bo'lib o'tgan so'nggi dahshatli voqealar (1917- yil 8- aprelda “Yosh buxoroliklar” namoyishining o'qqa tutilishi - mualliflar) munosabati bilan uni Yangi Buxoroda qo'yishga qaror qilingan. Spektakl namoyishi mahalliy aholida juda katta qiziqish uyg'otgan va katta olqishlarga sazovor bo'lgan. Shu kuni tomoshadan tushgan 786 rubl sof foyda “Sho'roi islomiya” jamiyatini xazinasiga berilgan.

1917- yil 1- dekabrda Toshkentda Fotima Ilskaya va Fotih Kabir tashabbusi va sa`y-harakati bilan “Sayyor” truppassi hamda “Cho'lpon” to`garagi a'zolari “Sotoshkon qiz” nomli to`rt pardali spektakl namoyish qilganlar.

Toshkentda muqim yashovchi tatarlar 1917- yil boshlarida No'shirvon Yavushevning “Chingizxon” nomli tarixiy pyesasini sahnaga olib chiqqanlar. 1917- yil dekabrda “Umid” matbaasi mazkur bir pardali tarixiy pyesani nashr etib, sotuvga chiqargan.

1917- yil 14- dekabrda mavlud bayrami munosabati bilan Katta-qo`rg'onda tatarlar jamiyatini tomonidan “Ittihod va taraqqiy” jamiyatini foydasiga kecha o'tkazilgan. U tatar maktabida o'quvchi bolaiar tomonidan uch bo`limdan iborat tarzda tashkil etilgan. Birinchi bo`limda she'rxonlik, ikkinchi bo`limda musiqali chiqishlar, uchinchi bo`limda “Iyimchilar qurbanı” nomli bir pardali drama namoyish etilgan. 24-dekabrda esa Toshkentda siyosiy ahvol jiddiyligiga qaramay tatarlar tomonidan shahardagi birinchi tatar maktabi foydasiga spektakl namoyishi tashkil etilgan. Vaziyat o'ta tahlikali bo`lsa-da, ancha ko'p tomoshabin yig'ilgan. Ko'rilgan 1300 rubl sof foyda esa tatar maktabi ixtiyoriga berilgan.

1918- yil 2- fevralda “Qozoli muslimon teatr to`garagi” tomonidan o'zbekcha-tatarcha spektakl namoyish etilgan. Spektaklga tomoshabinlar shunchalik ko'p to`plangan edilar-ki, biletlar yetishmaganligidan odam-

larni kiritish uchun nazorat markalaridan ham foydalanilgan. Shu kuni olingan 470 rubl 14 kopeyek sof foyda to'garak ixtiyorda qoldirilgan.

Bolsheviklarning hokimiyat tepasiga kelishi va olib borilgan siyosat oqibatida nafaqat Rossiyaning ichki guberniyalari, balki Turkistonda ham ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy tanglik vujudga keldi. Bu o'z navbatida Turkistonda endigina rivojlanib kelayotgan milliy teatr taraqqiyotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatgan. "Ulug' Turkiston" gazetasining 1918- yil 23- mart sonida berilgan xabarga ko'ra, 18- martda Toshkentdag'i harbiy kengash zalida mahalliy o'quvchilar "Guliston" jamiyati tomonidan "Ishqning furtunasi" nomli to'rt pardali drama qo'yilgan. Biroq bu spektakl kutilgandek yaxshi natija bermagan.

Xulosa o'mida ta'kidlash joizki, Turkistonda teatr san'atining yuzaga kelishiga tatar ziyyolilari munosib xissa qo'shdilar. Bu hol keyingi jarayonda mahalliy aholi madaniy ongingin rivojlanishida muhim omillardan biri bo'ldi.

Tayanch so'zlar

Matbuot, matbaa, "Turkestanskiye vedomosti", gazeta, Shohimardon Ibragimov, S.I.Laxtin, litografiya (toshbosma), S.A.Portsev, aka-uka Ignatevlar litografiyasi, G.D.Demurov, "Tarjimon", "Yulduz", "Vaqt", "Taraqqiy", "Osiyo", "Ulug' Turkiston", "El bayrog'i", "Farg'ona sahifasi", "Kengash", "Sho'roi Islom", "Chayon", "Cho'l chayon", "Xalq dorulfununi", teatr, drama, "Sayyor", "Nur", S.I. Voljskaya, "Mahramilar", "Padarkush".

Nazorat savollari

1. Turkiston general-gubernatorligida dastlabki matbuotni yuzaga kelishiga qaysi omil sabab bo'lgan?
2. Turkistondagi ilk o'zbek matbaachilaridan kimlarni bilasiz?
3. Turkistonda Rossiya imperiyasining senzura tizimi haqida nimalarni bilasiz?
4. Rossiya imperiyasidagi turk-musulmon matbaasining yuzaga kelishi qanday ijobiy natijalarni berdi?
5. Turkistonda milliy matbaa ishlarini tashkil etishda Rossiyalik matbaachilarining ishtirokini aytib bering?
6. Milliy jadid dramaturgiyasining shakllanishi Turkiston xalqlari madaniy hayotiga qanday ta'sir ko'rsatgan?
7. Tatarlarning sayyor va mahalliy havaskor teatr truppalarining faoliyati haqida gapirib bering?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yuxati:

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1998.
2. Абдурахимова Н., Эргашев Ф. Туркистанда чор мустамлака тизими. – Т.: Академия, 2002.
3. Аҳмаджонов Г.А. Россия империяси Марказий Осиёда. – Т.: “Ta’lim manbai” жамияти, 2003.
4. Ахмеджанов Г.А. Россия и Центральная Азия взаимосвязь исторической защиты. – М., - Т., 2008.
5. Аъзамхўжаев С. Туркистан мухторияти. – Т.: Маънавият, 2000.
6. Бобобеков Ҳ. Қўқон тарихи. – Т.: Фан, 1996.
7. Губаева С.С. Население Ферганской долины в конце XIX – начале XX в. – Т.: Фан, 1991.
8. Гуломов Ҳ.Г. Дипломатическая отношения государство Средней Азии с России в XVIII - первое половине XIX века. – Т.: Фан, 2005.
9. Гуломов Ҳ.Ғ. Ўрта Осиё ва Россия (XVIII аср бошида давлатлараро муносабатларнинг шаклланиши). – Т.: Университет, 2007.
10. Зиёев Ҳ. Сибирь, Волга ва Уралбўйларидағи ўзбеклар. – Т.: Шарқ, 2003.
11. Зиёев Ҳ. Тарих – ўтмиш ва келажак кўзгуси. – Т., 2000.
12. Зиёев Ҳ. Тарихнинг очилмаган саҳифалари. – Т.: Мехнат, 2003.
13. Зиёев Ҳ. Туркистанда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. – Т.: Шарқ, 1998.
14. Зиёев Ҳ. Ўзбекистон мустақиллиги учун курашларнинг тарихи. – Т.: Шарқ, 2001.
15. Зиёев Ҳ. Ўзбекистон мустамлака ва зулм исканжасида. – Т.: Шарқ, 2006.
16. Зиёев Ҳ. Экономические связи Средней Азии с Сибирию в XVI-XIX вв. – Т., 1983.
17. Исокбоев А.А. Туркистан ижтимоий-сиёсий ва маданий ҳаётида татар-бошқирд маърифатларварларининг фаолияти (XIX аср охири XX аср бошлари): Тарих. фан. номз.. дисс. – Наманган, 2008.

18. Исхаков Ф. Национальная политика царизма в Туркестане (1867-1917 гг.). – Т.: ART FILEX, 1997.
19. Исхаков Ф. Центральная Азия и Россия в XVIII-нач. XX вв. – Т.: “O’zdavmatbuotliti”, 2009.
20. Йўлдошев Й. XVI-XVII асрларда Бухоро билан Россия ўртасида элчилик муносабатлари. – Т.: ЎзССР давлат нашриёти, 1957.
21. Мавлонов У., Маҳкамова Д. Маданий алокалар ва савдо йўллари. – Т.: Академия, 2004.
22. Международные отношения в Центральной Азии XVII-XVIII вв. Документы и материалы. Кн. I. 1989.
23. Михалева Г.А. Торговые и посольские связи России со среднеазиатскими ханствами через Оренбург (вторая половина XVIII – первая половина XIX в.). – Т.: Фан, 1982.
24. Набиев А. Мустақилик учун кураш ёхуд парчаланган Туркистан тарихи. – Т.: Ёзувчи, 1998.
25. Пулатов Ю. Русско-Средней Азиатские отношение конца XVII первое четверти XVIII в. – Т., 1968.
26. Расулов А. Туркистан ва Волгабўйи, Уралолди халқлари ўртасидаги муносабатлар. – Т.: Университет, 2005.
27. Расулов А.Н. Туркистан ва Волгабўйи, Уралолди халқлари ўртасидаги муносабатлар тарихи (1917-1924 йй.): Тарих фан. докт... дисс. – Наманган, 2005.
28. Соколов Ю. Ташкент, ташкентцы и Россия. – Т.: Узбекистан, 1965.
29. Топилдиев Н. Қўқон хонлигининг Россия билан дипломатик алокалари тарихидан. – Т.: Фан, 2007.
30. Ўзбек дипломатияси тарихидан. – Т.: Жаҳон иктисадиёти ва дипломатия университети, 2003.
31. Ўзбек дипломатияси тарихидан. Тарихий очерклар ва лавҳалар. – Т., 2003.
32. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Туркистан чор Россияси мустамлакачилиги даврида. – Т.: Шарқ, 2000.
33. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2001.
34. Курбонов Ч. XIX аср охири – XX аср бошида Россия империясининг Ўрта Осиёда бож сиёсатини ташки ва ички савдога таъсири // O’zbekiston tarixi, 2010. №1. – Б. 20-28.

35. Ғаффоров Ш. Тарих ва тақдир: Россия империясидан Туркистонга кўчирилганлар (XIX асрнинг иккинчи ярми - XX аср бошлари). - Т.: Фан, 2006.
36. Файзиев Т. Бухоро феодал жамиятида куллардан фойдаланишга доир ҳужжатлар. – Т.: Фан, 1990.
37. Халфин Н.А. Россия и ханства Средней Азии. – М., 1974.
38. Ҳасаний М. Юрт бўйнидаги килич ёки истило. – Т.: Адолат, 1997.
39. Ҳожиев Э. Тошкентнинг Россия шаҳарлари билан алоқаси (XVII аср охири – XIX аср бошлари). – Т.: Фан, 1973.
40. Эрназаров Т. Туркистонда вакъти матбуот. – Т.: Ўздавнашр, 1959.
41. Юлдашев М. Экономическая связи Средней Азии и Сибирю XVI-XIX вв. – Т.: Фан, 1957.
42. Юнусхўжаева М., Абдурахимова Ф., Никитенко Г. Келажаги буюк давлат пойтахти. – Т.: Ўзбекистон, 1997.

MUNDARIJA

So`z boshi.....	3
1-mavzu: O`rta osiyo va Rossiya o`rtasidagi o`zaro munosabatlar asoslari	5
2-mavzu: Turkiston va Rossiya o`rtasidagi elchilik aloqalari	24
3-mavzu: Turkiston va Rossiya o`rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlar	48
4-mavzu: Turkiston Rossiya imperiyasi mustamlaka tizimi sharoitida	64
5-mavzu: Rossiya imperiyasining Turkistonga aholini ko`chirish siyosati	83
6-mavzu: Turkiston va Rossiya o`rtasidagi madaniy – ma`rifiy munosabatlar	104
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....	123

Tarix fanlari doktori, professor A. N. Rasulov

Tarix fanlari nomzodi, dotsent A. A. Isoqboyev

Turkiston va Rossiya munosabatlari tarixi

(o`quv qo`llanma)

I QISM

Muharrir: **N. Rasulova**

Musavvir: **I. Soliyev**

Tex. muharrir: **B. Vahobov**

Musahhib: **B. Mirzajonov**

Санкт-Петербург

Санкт-Петербург

Москва

Волга

Румыния

п-ов Крым

Болгария

Черное море

Севастополь

ИАНСКАЯ ИМПЕРИЯ

Кипр

(оккупирован
Великобританией)

Каиро

Суэцкий канал

Турция

Балканы

П



